

ZAMIRA ISAQOVA

FALSAFA

(axloqshunoslik, estetika, mantiq)



2016

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI


IJTIMOIIY-IQTISODIY FAKULTETI

**«O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH
NAZARIYASI VA AMALIYOTI» KAFEDRASI**

ZAMIRA ISAQOVA

FALSAFA

**(axloqshunoslik, estetika, mantiq)
fanidan ma'ruza mashg'ulotlari uchun
o'quv-uslubiy qo'llanma**



**NamDU
2016**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida «Falsafa (axloqshunoslik, estetika, mantiq)» fanidan tayyorlangan ma'ruza mashg'ulotlari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma axloqshunoslik, estetika, mantiq fanining maqsadi, muammolari, vazifalari, asosiy mezoniy tushunchalari va qonun-qoidalarini muhtasir yoritishga bag'ishlangan.

Mas'ul muharrir

Ibrohim Usmonov
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar

Obidxon Mamatov
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Nizomjon G'ofurov
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Muharrir

Naimaxon Zaynobiddinova
falsafa fanlari nomzodi



Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma Namangan davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti Kengashining 2016 yil 24 fevral 6 sonli majlis qarori bilan tasdiqlanib, nashrga tavsiya etilgan.

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e‘tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmastligimiz kerak.

Islom Karimov.

«Falsafa (axloqshunoslik, estetika, mantiq)» fani jamiyatdagi yangilanish jarayonida o‘ziga xos o‘rniga ega. Zero, demokratik va huquqiy davlatning fuqarolari, ayniqsa, yoshlarning axloqiy, estetik, aqliy kamolot darajasiga mas‘ullik va barkamol avlodni tarbiyalash uchun axloqiy qadriyatlar bilan yo‘g‘rilgan hayotbaxsh mafkura bor.

Muhtaram Prezidentimiz I.Karimov «xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili, dinidan qat‘iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas‘uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarning bebaho merosi, milliy qadriyat va an‘analarga munosib bo‘lishiga erishish, yuksak fazilatli komil insonni tarbiyalash va yaratuvchilik ishlariga da‘vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish milliy istiqloq mafkurasining teran ildizi bo‘lgan falsafa fani zimmasida ekanini alohida ta’kidlaganlar.

Talabalar «Falsafa (axloqshunoslik, estetika, mantiq)» fanini o‘zlashtirish jarayonida axloqshunoslik fanining axloq falsafasi sifatidagi mohiyati, uning ilmiy-amaliy ahamiyati, axloqning tarkibi va vazifalari, estetikaning go‘zallik, san‘at va tarbiya falsafasi sifatida mohiyati va ilmiy-amaliy ahamiyati, tafakkurning asosiy xususiyatlari, mantiqiy shakllari va qonunlari, bilish jarayonida tafakkurning tutgan o‘rni to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish, axloqshunoslikning asosiy tushuncha va tamoyillari, estetik tafakkur taraqqiyoti, estetik ongning mohiyati, estetik faoliyat, estetikaning asosiy tushunchalari, formal mantiq qonunlari haqida bilish, axloqshunoslik, estetika, mantiqning falsafa, iqtisodiyot, siyosat va huquq va boshqa fanlar bilan o‘zaro munosabatini tahlil qilish, «axloq – ma’naviyatning o‘zagi», zamonaviy komil insonni tarbiyalashda axloqshunoslik fani erishgan yutuqlar, san‘atning mohiyati, vazifalari va estetik-badiiy tarbiya vazifalari va turlari, har jihatdan barkamol fuqarolik jamiyati a‘zosi, zamonaviy shaxsni tarbiyalashda estetika erishgan yutuqlarning katta o‘rin egallashini bilish, tilning vazifalari, tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, xulosaviy

bilimlar hosil qilish, dalillash, muammolarni yaratish va hal etish, farazni ilgari surish va asoslash, ilmiy nazariyaning mantiqiy tuzilishi to'g'risida muayyan bilimga ega bo'lishlari talab etiladi.

«Falsafa (axloqshunoslik, estetika, mantiq)» fanining vazifasi quyidagilardir:

– oliy qadriyat bo'lgan axloqning milliylik va umumbashariylik xususiyatlarini tahlil etish, uning hayotdagi yuksak mavqeiini talabalar ongiga singdirish, halol, pok, rostgo'y mutaxassis bo'lib yetishda odob-axloqning ahamiyatini talabalarga teran anglatish, fanni o'qitishda ijodiylik, ilmiylik, tarixiylik va xolislik tamoyillariga amal qilish;

– estetik qadriyatlarning milliy va umumbashariy jihatlarini tahlil etish, ularning mamlakatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi ahamiyatini ko'rsatish, talabalarda go'zallikka, ulug'vorlikka muhabbat hissini shakllantirish, haqiqiy san'at asarlarining millat va jamiyat hayotidagi ulkan ma'naviy hodisa ekanini uqtirish, ularda san'atni chuqur tushunish malakasini hosil qilish, texnika estetikasi va dizaynning sanoatni go'zallashtirishdagi, erkin, demokratik jamiyat taraqqiyotidagi beqiyos ahamiyatini anglatish;

– talabalarga to'g'ri muhokama yuritishning mantiqiy shakllari va qoidalarini o'zlashtirish, mustaqil fikrlash madaniyati rivojida tutgan o'rinni tushuntirish, muammolarni yaratish va bartaraf etish, farazlarni ilgari surish va asoslash qoidalari, savol-javoblar qilish, bahs yuritish sir-asrorlarini o'rgatish, ilmiy bilimlarning mantiqiy tuzilishi bilan tanishtirishdan iborat.

«Falsafa (axloqshunoslik, estetika, mantiq)» fanining ahamiyati talabalarda ezgulikka e'tiqod, Vatanga, millatga, insoniyatga muhabbat hissini shakllantirish va yuksak darajaga ko'tarishda, yoshlarning komil inson bo'lib yetishlariga ko'maklashishda, shaxs sifatida ham, fuqarolik jamiyati a'zosi sifatida ham – har jihatdan go'zallikka oshno, yuksak estetik did egasi qilib tarbiyalashda, fikrlash madaniyatini o'stirishda, to'g'ri muhokama yuritishning usullari, qoidalari, mantiqiy masalalarni yechishda, dalillash va tanqid jarayonini to'g'ri tushunishda, bahs-munozarani boshqarish malakasini hosil qilishda namoyon bo'ladi.

«Falsafa (axloqshunoslik, estetika, mantiq)» fanidan ma'ruza mashg'ulotiga ajratilgan soatlar miqdori 18 soatdan iboratdir.

1-mavzu. Axloqshunoslik fani predmeti va ahamiyati. Axloqiy tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari

1. *Axloqshunoslik – axloqning kelib chiqishi, mohiyati, taraqqiyoti hamda insonning oila va jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o'rganadigan qadimiy falsafiy fan*
2. *Qadimgi Sharq axloqiy tafakkur beshigi sifatida*
3. *Qadimgi dunyo mumtoz axloqshunosligi. Suqrot va Aflotunning axloqiy qarashlari*
4. *O'rta asrlar musulmon Sharqi va Ovro'pa axloqshunosligi. Diniy-hadisiy yo'nalish axloqshunosligi*
5. *Eng yangi davr axloqshunosligidagi asosiy yo'nalishlar*

Axloqshunoslik axloqning kelib chiqishi, mohiyati, xususiyatlari, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqidagi fandir. «Axloq» arabcha so'z bo'lib, xulq so'zining ko'pligi, xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya degan ma'nolarni anglatadi. Hozirgi vaqtda bu tushuncha jamiyatning axloqiy hayotida yuz beradigan barcha jarayonlar majmuini ham aks ettiradi.

Jamiyat axloqiy hayoti – kishilarning ijtimoiy, siyosiy va xuquqiy faoliyati, oilasi va kundalik turmushida yuzaga keladigan o'ziga xos munosabatlar shaklidir. Axloq tushunchasi umumiy tushuncha sifatida axloqshunoslikning tadqiqot ob'ektini anglatsa, yakka tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va xatti-harakatining o'ziga xos ko'rinishini anglatadi. Xususan, axloq «odob», «xulq-atvor» ma'nolarida ham ishlatiladi. Aslida «axloq» va «odob» tushunchalari bir-biridan mazmun jihatidan farq qiladi.

Odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlardir.

Axloq – jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisidir. Axloq inson va jamiyat o'rtasidagi ob'ektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, har bir shaxsning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan axloqiy tamoyil va me'yorlar majmuidir.

Axloq ijtimoiy hodisa sifatida kishilik jamiyati vujudga kelishi bilan bir vaqtda jamoalar bilan shaxs o'rtasidagi ehtiyoj va manfaatlarga xizmat qiluvchi aloqa tarzida vujudga kelgan.

Tarixiy taraqqiyotda axloq insonning tabiiy xislatlarini o'zgartiruvchi, yaratuvchilik faoliyati shaklida umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi, shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi ma'naviy-ijtimoiy omillaridan biri, kishilarning ichki tuyg'u va hissiyotlarini o'stirib, umuminsoniy

moddiy va ma'naviy qadriyatlarini anglab yetish, ularni asrash va kelgusi avlodlarga yetkazish yo'lining eng afzali, oila va kundalik turmushda mavjud bo'lgan oilaviy burch, o'zaro hurmat, sadoqat, or-nomus kabi an'analarni avloddan-avlodga o'tkazish asosida davom ettirish vositasi, adolatli jamiyat qurish va unda boy-badavlat, tinch-totuv, baxtli yashash g'oyasi sifatida muntazam rivojlanib kelgan va rivojlanaveradi.

Axloqiy tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Ilk axloqiy qarashlar bundan uch yarim ming yillar ilgari yuzaga kelgan. Qadimgi Shumerda topilgan mixxat va giltaxtalarda yozib qoldirilgan pandnoma, matal va maqollar o'sha davr xalqlari hayotida axloqning o'rni haqida tasavvur beradi. *Jumladan, shumerliklarning ezgulik, haqiqat tamoyillari bo'lgan xudolari madh etilgan qo'shiqlar, alqov-gimnlar xalqning hamjihatlikda yashashga, ezgulikka yo'naltiruvchi axloqiy me'yor va qoidalar vazifasini o'tagan.*

Qadimgi Misr va Bobilda axloqqa doir qarashlar epos, xalq dostonlari, pandnomalarda bayon etilib, ayrimlari bizgacha yetib kelgan. *«Pxotatep o'gitlari», «Xo'jayinning o'z quli bilan hayotning mazmuni haqida suhbat», «Gilgamish» eposi, «Arfist qo'shig'i»* kabi bitiklarda «baxt», «burch», «adolat», «hayotning mazmuni» kabi axloqiy mezoniy tushunchalar tavsiflanib, axloqiy me'yorlar xususida fikr yuritilgan.

Qadimgi Turon va Erondagi axloqiy tafakkur zardushtiylik dini negizida shakllangan, uning asosiy g'oyasi «Avesto»da o'z aksini topgan. Ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy kurash mazkur g'oyaning asosini tashkil etadi. Bunda Axuramazda ezgulik, Axriman yovuzlik kuchlarining timsoli sifatida ko'rsatiladi va ezgulik xudosi madh etiladi. Ezgulik xudosi kishilarni baxt-saodat, kamolat sari yetaklaydi.

«Avesto»da «ezgu so'z, ezgu fikr va ezgu amal» g'oyasi ilgari surilgan, «yaqin kishisiga mehribon bo'lish, muhtojlik va xavf-xatarda qolganda ko'maklashish, yovuzlikka qarshi, kishilar baxt-saodati uchun kurashga shaylik, hamma bilan ahil va totuvlikda, o'z maslakdosh birodarlari bilan do'stlik va hamjihatlikda yashashga intilish ezgu amaldir». Inson o'z fikr-xayolida boshqalarga hasad qilmasligi lozim, chunki hasad yaxshi niyatni, burch va adolat tuyg'usini yo'qotadi.

«Avesto»da insonning axloqsizligini yovuzlik, yomonlikka qo'l urishi uchun ham oldindan jazo bo'lishi va u dunyoda bunday kishilarga beriladigan jazo haqida fikr yuritiladi. Unda keltirilishicha, odamzot hayotining ikkinchi davri Zardushtning diniy islohotlari bilan bog'liq faoliyati bo'lib, 3000 yillik kurashdan so'ng, Zardushtning farzandi boshchiligida dunyoda osoyishtalik va farovonlik davri yuzaga keladi. Ahriman yengiladi. Uchinchi davrda qiyomat qoyim boshlanadi va o'liklar

tirilib, hamma ishlardan voqif bo'lgan Xudo huzuriga o'z qilmishlari haqida hisob bergani borishadi. Ezgu amal bilan mashg'ul bo'lganlar jannatga kiritiladi, yovuz ishlar bilan shug'ullanganlar jahannam azobiga mahkum bo'ladilar.

Qadimgi dunyo axloqiy tafakkuri Hindiston, Xitoy va Yunonistonda yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan. Hind axloqshunosligida vedachilik yetakchi o'rinni egallaydi.

«Vedalar» diniy-falsafiy mazmunga ega bo'lgan muqaddas bitiklar bo'lib, unga ko'ra, jamiyat to'rt tabaqaga – brahmanlar (qohinlar), kshatriylar (harbiylar), vayshelar (yer egalari, savdogarlar, hunarmandlar), shchudriylar (qullar)ga ajratiladi. Har bir tabaqa muayyan darajadagi tug'ma axloqqa ega bo'lib, qohinlar yuksak axloq egasi, qullar esa axloqan tuban odamlardir.

Buddaviylikda axloqiy fazilatlar tug'ma bo'lmasdan, ular har bir shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash, kamol toptirish natijasida shakllanishi e'tirof etiladi. Budda (mil. av. 567-488 y.) ta'limotini «to'rt oliy haqiqat» tashkil etadi: *hayot azob-uqubatlardan iborat, azob-uqubatlarning sabablari bor, sabablarni anglash va xalos bo'lish mumkin, azob-uqubatlardan xalos bo'lish, ularni bartaraf etish yo'llari bor va ularni bilib olish mumkin. Haqiqatga erishish uchun axloqiy tamoyil va me'yorlarga (yomonlik qilishdan, yolg'on gapirishdan, o'g'rilik qilishdan, his-tuyg'ularga ortiqcha berilishdan saqlanish, mast qiluvchi ichimliklardan o'zini tiyish, turmush o'rtog'iga xiyonat qilmaslik, zebu ziyonatga berilmaslik) qat'iy rioya qilish lozim.*

Qadimgi Xitoy axloqiy tafakkuri daochilik va konfutsiylik ta'limotlari negizida shakllangan. Lao-tzi fikricha, borliqda «dao» deb ataladigan, uning uyg'unligini ta'minlab turadigan ob'ektiv qonuniyat amal qiladi. Inson ham ana shu qonuniyatga bo'ysunadi va oqibatda axloqiy komillikka yo'l tutadi, undagi barcha salbiy xislatlar, axloqsizliklar daoga nisbatan xilof xatti-harakat natijasidir.

Konfutsiyning axloqiy qarashlari «Suhbatlar va mulohazalar» kitobida aforizm, hikmat va pandnomalar shaklida bayon etilgan. Uning fikricha, inson taqdirini «Osmon» qonuni belgilaydi, odamlarning tabaqaga bo'linishi, qismatni o'zgartirib bo'lmaydi.

Imperator – osmon o'g'li, u osmon ostidagilarning barchasiga ota. Demak, podsho – podsho, ota – ota, mulozim – mulozim, o'g'il – o'g'il bo'lishi darkor. Inson bu qonuniyatlarni o'rganib, o'zlashtirib olishi uchun jamiyatdagi o'rni, mavqei, darajasi va burchini yaxshi bilishi zarur.

Qadimgi yunon axloqiy tafakkuri rivojiga Demokrit, Suqrot, Aflotun, Arastu, Epikur katta hissa qo'shganlar. Demokrit (mil. av. 460-370 y.) aql

inson ma'naviyati, axloqi negizini tashkil etadi va uning takomili bilan baxtga erishish mumkin degan g'oyani ilgari surgan. Uning fikricha, *donolik (aqllilik) axloqiy fazilatlarini, xususan, yaxshi fikrlash, yaxshi xulq-atvorni hosil qiladi.*

Suqrot (mil. av. 469-399 y.) fikricha, donishmandlik o'zgarmas va mutlaq tabiatga ega bo'lib, o'z-o'zini anglashdan boshlanadi. Suqrot fikricha, tartib bo'lmasa, jamiyat barqaror rivojlanmaydi. Inson qonun-qoidalarga bo'ysunsagina axloqiy fazilatga ega bo'ladi.

Suqrotning *«nimaiki qonuniy bo'lsa, o'sha adolatlidir»* so'zlari hozirga qadar ahamiyatini yo'qotmagan. Suqrotning fikricha, *falsafaning markazida axloq masalalari turmog'i lozim va bu masalalarning qanday tarzda hal qilinishi jamiyat hayoti ravnaqini belgilaydi.*

Aflotun (mil. av. 347 y.) axloq ilohiy asosga egaligi, davlatni boshqarish, siyosatni amalga oshirishda axloq alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan.

Arastu (mil. av. 384-322 y.) axloqshunoslikni «amaliy falsafa» deb ta'riflab, uni «etika» deb nomlagan. Arastu ixtiyor erkinligini axloq tuzilmasining asosiy tarkibiy qismi deb ko'rsatgan. Aflotundan farqli, Arastu axloqni ruhning tug'ma xususiyati emas, balki tafakkur bilan bevosita ixtiyor erkinligi natijasida hosil qilinadigan fazilat deydi.

Arastu *inson ma'naviy barkamollikka o'zida ezgu fazilatlarini shakllantirish bilan erishadi,* deb hisoblaydi: *«ma'naviy barkamol inson aql bilan fazilat birligida amal qiladigan kishidir. Fazilat inson qo'lga kiritgan sifatdir».*

O'rta asrlarda axloqiy tafakkur musulmon Sharqida yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarilgan. Agar bu davrda G'arbda turg'unlik hukm surgan bo'lsa, Markaziy Osiyoda Uyg'onish davri yuz beradi. Bu davrda axloqshunoslikda ikki yo'nalish: mashshoiyyunlik (arastuchilik) va tasavvuf falsafiy-diniy ta'limoti rivojlangan.

Abu Nasr Forobiy (873-950)ning axloqiy qarashlari *«Fozil odamlar shahri», «Shaharni idora etish kitobi», «Baxt-saodatga erishuv haqida risola»* asarlarida bayon etilgan. Forobiy *axloqiy kamolotga erishish insonning o'z qo'lida ekanligi, bunga tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalashi orqali erishilishi, barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlari bilan hamkorlik munosabatida bo'lishlari kerakligini* uqtirgan.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) *«burch», «nomus», «yaxshilik va yomonlik», «adolat», «vijdon»* mezoniy tushunchalari doirasida har qanday bilim insonning axloqiy kamolotiga xizmat qilish kerakligini tushuntirgan.

Abu Ali ibn Sino (980-1037)ning axloqiy qarashlari *«Solomon va Ibsol», «Hayy ibn Yaqzon»* kabi asarlarida bayon etilgan. Ibn Sino axloqiy

fazilatlarini tarbiya mahsuli deb hisoblaydi. Kamolotga intilish yaxshilikdir. «Yaxshilarning yaxshiligi nimada? Xoksorlik, beminnat saxovat hamda mukofot tama qilinmagan xizmatda».

Ibn Rushd (1126-1198) ixtiyor erkinligi masalasi ustida fikr yuritadi. Uningcha, inson xulq-atvori bilan bog'liq xatti-harakatlar azaldan belgilab qo'yilmaydi, inson ixtiyor erkinligiga egadir. Bunday erkinlikni inkor etish Yaratuvchining mohiyatiga ziddir, zotan insonning axloqqa zid xatti-harakatlarini taqdiri azal bitiklari deb bo'lmaydi. O'z bandalariga yomonlik sog'inish, ularni yovuzlikka boshlash Yaratuvchi sifatiga kirmaydi.

O'rta asrlar musulmon Sharqida tasavvuf diniy-falsafiy ta'limoti VIII-IX asrlarda Markaziy Osiyoga keng yoyildi. Xoja Yusuf Hamadoniy, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni, Xoja Ahmad Yassaviy, Shayx Najmiddin Kubro, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Maxdumi A'zam kabi mutasavviflar tasavvuf va tariqat rivojiga katta ta'sir ko'rsatganlar.

Yassaviya tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy (1103-1166)ning axloqiy qarashlari turkiy tilda bitilgan «Devoni hikmat»da aks etgan. Yassaviy talqinida Xudo haqiqat va ezgulik timsolidir, Xudoga erishish uchun qilingan barcha amallar axloqiy fazilatlardir.

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni (1103-1220) insonni ma'naviy axloqiy komillikka olib boruvchi yo'llar (rashha)ni ishlab chiqqan. *Hush dar dam (zikr vaqtida har bir chiqayotgan nafas hushyorlik bilan chiqmog'i, g'aflatga tushmaslik lozim, har nafas olib chiqarish paytida Allohni zikr qilish darkor), nazar bar qadam (tariqat a'zosi qayerda bo'lmasin har bir qadamiga nazar solishi, ogoh bo'lib yurmog'i lozim), safar dar vatan (solikning yomon odatdan xushxulqlikka yo'nalishi), xilvat dar anjuman (zohiran xalq bilan, botinan Haq bilan bo'lish zarurligi) keyinchalik naqshbandiya tariqatining asosiy tamoyiliga aylangan.*

Xoja Bahouddin Naqshband (1318-1389) tasavvufni ma'naviy-axloqiy ta'limot darajasiga ko'targan naqshbandiya tariqatining asoschisidir. Tariqat asosida «*dil ba yoru dast ba kor*» («*ko'ngil Xudoda, qo'l ishda bo'lsin*») degan diniylik va dunyoviylikni mujassamlashtirgan shior yotadi. Zero, *ilohiylik bilan yo'g'rilgan axloqiylik insonning baxt-saodatiga yo'naltirilgan bunyodkorlik ishlarida namoyon bo'ladi.*

Kubroviya tariqatining asoschisi Shayx Najmiddin Kubro (1154-1226)ning axloqiy qarashlari «Usuli ashara», «Favoyih ul-jamol» asarlarida bayon etilgan.

Tariqat o'n axloqiy qoida asosiga qurilgan: *tavajjuh – Xudoga o'z hohishi bilan yuzlanish, zuhd fid dunyo – har qanday lazzatdan o'zini tiyish, tavakkul – Allohga e'tiqod va bu yo'ldan har qanday nopok narsalardan voz kyechish, qanoat – har ishda sabrli bo'lish, uzlat – xilvatni ixtiyor qilish,*

mulozamat az-zikr – zikr bilan mashg‘ul bo‘lish, vaqtni zoe o‘tkazmaslik, muhabbat – Xudoga chin dildan e‘tiqod qilish va o‘zini bag‘ishlash, nafsni yengish, muroqaba – tafakkur qilish, mushohada – Allohni zot va sifati bilan tafakkur qilish, rizo – Alloh rizqiga, qiyinchilik, kasallik, yaxshilik va yomonlikni birdek qabul qilish va ilohiy barkamollikka erishish.

Temuriylar hukmronligi davrida naqshbandiya tariqati ma‘naviy-axloqiy ta‘limot sifatida xalq mafkurasiga aylanib, xalqni mo‘g‘ul istilosiga qarshi kurashga, bunyodkorlik ishlariga safarbar etish uchun xizmat qilgan. Amir Temurning «Kuch-adolatda» degan shiorining mazmuni tariqatning «dil ba yoru dast ba kor» tamoyili bilan yo‘g‘rilgan.

Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Alisher Navoiy (1441-1501) naqshbandiya tariqati tamoyillari asosida ijod qilib, uning g‘oyalarini hayotga tadbiiq etishda ibrat namunalari ko‘rsatganlar.

Abdurahmon Jomiy asarlarida insoniylik, baxt, burch, yaxshilik va yomonlik kabi axloqiy mezoniy tushunchalar tahlil qilgan. Jomiyning «Bahoriston» asari axloq qomusi deb ulug‘langan.

Alisher Navoiy insonni oliy qadriyat darajasiga ko‘tarib, uni koinot gultoji deb atagan: *Inson baxt-saodatga o‘zida axloqiy fazilatlarni shakllantirish orqali erishadi. Inson bu dunyoga bir marta kelar ekan, inson bo‘lib, insoniy sifatlarni o‘zida kasb etib yashamog‘i kerak.*

Ovro‘pada XV asrdan boshlangan Uyg‘onish davridagi axloqiy qarashlar gumanizm-insonparvarlik g‘oyalari ta‘sirida rivojlanadiki, bunga Lorenzo Valla, Makiavelli katta hissa qo‘shganlar.

L.Valla (1407-1457) «Haqiqiy va yolg‘on ezgulik», «Ixtiyor erkinligi haqida» asarida barcha jonzotlarning tabiatan o‘zini asrashga va iztirobdan qochishga intilishini ta‘kidlaydi. Valla muhabbat, ixtiyor erkinligi masalalarini biologik tamoyil asosida izohlaydi: *muhabbat lazzatga o‘xshash hissiy idrok etishdir, ixtiyor erkinligi esa har bir kishining yaxshi yashash uchun intilishi va yomonlikdan qochishidir.*

M.Makiavelli (1469-1577) axloq masalalarini din, siyosat bilan bevosita bog‘liq tarzda talqin etadi. Uning bunday qarashlari «Podshoh», «Tin Liveyning birinchi dekadasi» asarlarida bayon etilgan.

Nemis mumtoz falsafasi vakillari I.Kant (1724-1804) va F.Gegel (1770-1831) yangi davr axloqshunosligi rivojiga katta hissa qo‘shganlar.

I.Kant «Xulqlar metafizikasi», «Axloq metafizikasi» asarlarida buyruq (imperativ) xatti-harakatning mazmuniga bog‘liq bo‘lmagan holda xulq-atvorning yalpi umumiy qonuni bo‘ladigan qoidaga amal qilishni talab etadigan «axloqning oltin qoida»si g‘oyasini ilgari surgan. Mazkur qoidaning muhim talabi: «... faqat shunday qoidaga muvofiq harakat qilki,

unga amal qilish barobarida uning eng umumiy qonun bo'lib qolishini xohlab qolishing mumkin bo'lsin».

Kant fikricha, insonning tabiiy mayllari irodaga ta'sir o'tkazadi va ayni paytda iroda erkin aql yordamida o'rnatilgan qonunga bo'ysunadi. Bu axloqiy majburiyat amr sifatida qat'iy imperiativ mutlaq buyruq mavqeiga egadir. Axloqiylilikning mezoni adolatdir. Kant abadiy tinchlik g'oyasini ilgari surgan.

F.Gegel cherkovning tarkidunyochilik axloqiga qarshi chiqqan va har qanday fazilat «huzur-halovat baxsh etsa, shunchalik saodatga eltadi» deb, axloqshunoslik masalalarini huquq, siyosat bilan bog'lagan holda, axloqiy imperiativ haqidagi fikrlarini bayon etadi: *«Qonunlar harakat qilmaydi, faqat inson harakat qiladi».*

Gegel fikricha, ezgulik erk darajasiga ko'tarilgan ixtiyor, amalga oshirilgan erkinlik, olamning mutlaq so'nggi maqsadi. Yovuzlik zaruriyat, lekin ro'y bermasligi kerak. Vijdon muqaddas, qo'l etmas narsa, insonning o'z-o'ziga pok ishonchi, ezgulikni bilish va anglashdir.

Eng yangi davr axloqshunosligi irratsionalizm (lot. Irrationalis – g'ayri aqliy) ta'sirida rivojlanib, ekzistensiyachilik, pragmatizm, pozitivizm, ruhiy tahlil kabi axloqiy yo'nalishlar vujudga kelgan.

Nemis faylasufi Karl Yaspers (1889-1969) tomonidan ilgari surilgan ekzistensiyachilik (lot. existensia – mavjudlik) XX asr axloqshunosligidagi yetakchi yo'nalish bo'lib, kishining har lahzada hayot va o'lim oralig'ida kechadigan ichki kechinmalari mavjudligi asosiy masala sifati olib qaralgan. Bu qarashlar keyinchalik fashizmning g'oyaviy quroli, mafkurasi sifatida yuzaga chiqqan. Yaspers insondagi zo'rlik, shavqatsizlikka moyil biologik jihatlarni uning ma'naviy-axloqiy javobgarlikdan ozod holatdagi mavjudligi tarzida talqin qilgan.

Ekzistensializm vakillari insonni o'z hayotini insoniylik vazifasini bajarish uchun qurbon qilgan mavjudot sifatida qaraydi. K.Yaspers an'anaviy ma'naviy merosni egallash inson axloqiyligi darajasini belgilovchi omil sifatida namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi.

Ekzistensializm ta'limotiga fransiyalik Jon Pol Sartr (1905-69) tomonidan gumanizm ruhi singdirilgan. Ch.Pirs, J.Dyun tomonidan ishlab chiqilgan pragmatizm falsafasi Amerikada ommalashgan. Pragmatizm axloqiy tamoyil va me'yorlar kishining foydali faoliyati talablariga bo'ysunadi. *Axloq kishi xatti-harakati, fe'l-atvorining me'yorlari emas, balki uning istak va niyatlaridir. Va ular har bir kishining o'z hohishi, o'z maqsadi bor bo'lgani uchun ularda shunga muvofiq, o'zi uchun nima yaxshi va nima yomon ekanligini aniqlashga yordam beruvchi axloqiy me'yor-o'lchovlari bo'ladi.*

Ruhiy tahlil ta'limoti asoschisi Zigmund Freyd (1856-1939) axloqiy masalalarni kishi ruhiyatidagi *ongsizlik* asosida tahlil etgan. Inson shaxsi uchta – Id, Ego, Superego komponentlarining o'zaro birligidan tashkil topadi. Freyd fikricha, ongsizlik inson shaxsidagi markaziy komponent bo'lib, inson tanasining ichki ehtiyojidan kelib chiqadi.

Ongsizlikda hech qanday zamon ta'siri bo'lmaydi, unda hech qanday yaxshilik ham, yomonlik ham yo'q va axloqiy me'yorlarga ham bo'ysunmaydi. Inson shaxsidagi Ego va Superego komponentlari bevosita Id bilan bog'liqdir. Ego Id negizida, Superego esa Ego zaminida vujudga keladi. Shaxsdagi barcha axloqiy fazilatlar, xulq-atvor talablari Superego komponentida mujassamlashadi va ma'naviy axloqiy taqiqlar qatlamini hosil qiladi.

Erix Fromm (1900-1980) inson qalbining axloqiy talablarga munosabatini tahlil etgan. Uning fikricha, yovuzlik insoniy hodisa, u insoniylik holatidan ortga qaytish, insonga xos aql, muhabbat, erk xususiyatlarini yo'q qilishga bo'lgan intilish, ayni paytda, fojiaiy holatdir. Ezgulik inson mavjudligini tobora o'z mohiyatiga yaqinlashtirsa, yovuzlik inson turmush tarzi bilan o'z mohiyatining o'sib boruvchi begonalashuvi demakdir. Insonning haqiqat sari intilishi zamirida beshafqatlik, burchi zamirida shuhratparastlik yotadi.

Muhabbat harakat, faollikdir, sevish – olish emas, berishdir. Muhabbat asosida qurilgan nikoh juftlashgan ikki xudbinning hamdo'stligidir. Agar inson o'z yarmini topish va sevish baxtiga muyassar bo'lgan bo'lsa, boshqa juft izlashga intilmaydi, butun borlig'ini sevgilisiga bo'lgan muhabbatga sarflaydi, aksincha, bunday baxtdan bebahra kishilar muhabbat qiyinchiliklarini yengish uchun yo'l qidirib, o'zlariga yarashmagan ishlar bilan mashg'ul bo'ladilar.

Shunday qilib, eng yangi davr axloqshunosligidagi oqim va yo'nalishlar (g'ayrizo'ravonlik, hayotga ehtirom, ruhiy tahlil va boshqalar) bir-birini inkor etmagan holda to'ldirib, yangi fikrlar bilan boyitgan.

2-mavzu. Axloqiy tamoyil va me'yorlar. Axloqshunoslikning mezoniy tushunchalari

1. *Axloqiy tamoyillarning amaliyotda namoyon bo'lishi, ularning bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liqligi*
2. *Axloqiy me'yorlarning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati*
3. *Axloqshunoslikdagi fazilat va illat atamalarining qutb tushunchalar sifatidagi mohiyati*
4. *Muhabbat – axloqshunoslikning keng qamrovli mezoniy tushunchasi (kategoriyasi) sifatida. Muhabbat va nafrat*
5. *Ezgulik mezoniy tushunchasi. Ezgulik va haqiqat, ezgulik va go'zallik, ezgulik va yovuzlik. Yaxshilik va yomonlik tushunchasi*
6. *Adolat, burch, vijdon, nomus. Ideal, hayotning ma'nosi va baxt*

Axloqshunoslikda qo'llaniladigan barcha tushunchalar axloqiy mezoniy tushunchalar, axloqiy tamoyillar va axloqiy me'yorlarga bo'linadi. Axloqiy tamoyillar umuminsoniy mazmunga ega, ya'ni irqi, millati, mazhabi turlicha kishilar uchun birdek talab hisoblanadi. Axloqiy tamoyillar insonning oliy qadriyat sifatidagi mohiyatini belgilaydigan tinchlikparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, jumardlik, erksevarlik, fidoyilik, mehmondo'stlik, o'zbekchilik, ziyolilik tarzida namoyon bo'ladi.

Insonparvarlik – insonning tom ma'nodagi mohiyatini belgilovchi axloqiy fazilat bo'lib, uning muhim belgisi insonning insonga oliy qadriyat sifatida munosabatda bo'lishidir. Saxovatpeshalik, ya'ni bor narsasini hech kimdan qizg'anmaslik, qalbini kibru havo, gina-qudrat, qahr-g'azabdan pok tutish, xalq xizmatida bo'lish, barchaga mehr-muruvvat ko'rsatish va buning evaziga hech narsa talab qilmaslik insoniylikdir.

Erkparvarlik – insonning o'z qadr-qiymati, ozod va erkin yashash maqsadi yo'lidagi sa'y-harakati bo'lib, erkparvarlik u yoki bu mamlakat, millat, xalqning boshqa davlat, millat tomonidan istilo qilinishi natijasida yuzaga keladi. Mamlakat uchun eng og'ir, mash'um kulfat – mustamlaka, millat, erksizlik va qaramlikdir. Istiqloq va erkinlik yurt uchun oliy ne'matdir. Hayotining ma'nosini erkparvarlikda deb bilgan insonlar kelajak avlodlar uchun ideal bo'lib qoladilar. Tarixda xalq erki va ozodligiga erishish uchun o'z umrini bag'ishlagan xalq qahramonlari mangulikka daxldor shaxs sifatida e'tirof etilgan. Erkinlik o'zlikni anglashi, mustaqil fikrlashda namoyon bo'ladi. Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek, «fikir qaramligi, tafakkur qulligi har qanday iqtisodiy yoki siyosiy

qaramlikdan ko'ra dahshatlidir». Erkparvarlik poklikni, halollikni talab qiladigan yuksak axloqiy tamoyildir.

Tinchlikparvarlik – urush, qon to'kilishini inkor etish, tinch-totuv yashashga intilish, dushmanlik va tajovuzkorlikka qarshi kurashishdir. Tinchlikparvar insonlar Yer yuzida tinchlik o'rnatish uchun tinimsiz kurash olib borganlar, bahsli masalalarni tinch yo'l bilan hal qilishga chaqirganlar, fidoyiliklari uchun quvg'in qilinganlar, qamoqqa olinganlar, hattoki o'z Vatandan badarg'a qilinganlar.

Vatanparvarlik va millatparvarlik tamoyillari kishining eng yuksak tuyg'usi – ona Vatani, millati, xalqiga bo'lgan muhabbatini ifodalaydi. Bu tushunchalar ijtimoiy mohiyatga ega bo'lsa ham, konkret shaxs xatti-harakatida namoyon bo'ladi. Insonning adashib sodir etgan aybi, gunohini kechirish mumkin, lekin Vatanga xiyonat qilishdek gunoh kechirilmaydi. Vatanparvarlik – millatparvarlik tamoyilining o'ziga xos namoyon bo'lish shaklidir. O'z millati bilan ma'naviy-ruhiy birlikda bo'lganlar millatparvardir. Bu insonning o'zi mansub bo'lgan xalqning madaniyati, tili, an'ana va urf-odatlarini qadrlashida, ularga sodiqligida namoyon bo'ladi. Millatparvarlik millatchilik emas, o'z millatini seva olmagan odam boshqa millatni ham seva olmaydi, asl millatparvar o'zligini anglagan holda millati bilan faxrlanadi. Jadidchilik harakati namoyandalari Munavvar qori, Abdulhamid Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy – millat erki va ozodligi uchun jonini qurbon qilgan fidoyilardir.

Fidoyilik – boshqalar manfaati yo'lida o'z manfaati, hayotini qurbon qilish, Yuksak oliy maqsad sari intilish, boshqalarni xavfdan ozod qilish, beg'araz yordam berish, muhtaram Prezidentimiz I.Karimov iborasi bilan aytganda «elim deb, yurtim deb yonib yashashdir».

Ziyolilik – insonning ma'naviy-ma'rifiy yuksakligi, qalbidagi ichki nur, ziyosi bilan belgilanadigan xatti-harakat majmuidir. Ziyolilik har jihatdan namunaviylikdir. Ziyolisi ulug'langan jamiyat yuksak taraqqiyotga erishadi, ziyolilik yuksak ma'naviyatdan dalolatdir.

Mehnatsevarlik – aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyat turi bo'lib, mehnat jarayonida ehtiyoj qondiriladi, shaxsning ochilmagan qirralari kashf etiladi, o'zligi namoyon bo'ladi, o'zгалar bilan munosabatga kirishadi. Mehnatsevarlik halollik, intizom, tartib va ishtiyoq, intilishni talab etadi. Mehnatga pul topish nuqtai nazaridan yondashish insonni mehnatdan bezdiradi.

Jo'mardlik (altruizm) – o'z manfaatidan boshqalar manfaatini ustun qo'yish, muhtojlikning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashish, beminnat xayriya, odamiylikning eng yuqori cho'qqisi, ilohiylik sifatlariga ega

bo'lishdir. Jo'mardlik hammaga ham nasib etavermaydigan, nabiylar, oriflar va valiy zotlarga xos xususiyatdir.

O'zbekchilik – millatning eng yaxshi an'analariga sadoqat tuyg'usidan kelib chiqqan, o'zbeklarga xos bag'rikenglik, qo'ni-qo'shnichilik, murosasozlik, boshqalar xizmatiga qamishdan bel bog'lab xizmat qilish, maslakdosh, saxovatli, kechirimli bo'lishdir. Shuningdek, o'zbekchilikning salbiy jihati ham borki, katta qarz evaziga dovrug'i yetti mahallaga yetadigan to'ylar qilish, kim o'zarga osh tarqatish, inson qadrini pul bilan o'lchash me'yor buzilishi natijasida illatga aylangan. O'zbekona lutf, hol so'rash, bemor qo'shning ko'nglini olish kabi tamoyillarga boshqa xalqlar hamisha hayrat, ehtirom, havas bilan qaraydilar. G'arbda taklif qilinmagan kishi uyga kiritilmaydi, o'zbeklarda eshikdan kirib kelgan notanish kishi ham kishi "mehmon atoyi Xudo" deb hurmat bilan qarshi olinadi. Sharqda farzandlar yoshligidan kattalarga salom berishga o'rgatilgani holda, G'arbda tanimaganga salom berilmaydi va hakazo.

Axloqiy me'yorlar – bir xildagi ish-amallarga joriy qiladigan umumiy buyruq va taqiq orqali kishilar xatti-harakatini tartibga soluvchi axloq-odob talablarining muayyan shaklidir. Axloqiy me'yorlar ikki xil ko'rinishda a) axloqiy munosabatlarning tarkibiy qismi shaklida b) axloqiy ong shaklida mavjud bo'ladi. Axloqiy me'yorlarning birinchi shakli kishilarning bir xildagi xatti-harakatlari tufayli kelib chiqqan va barcha uchun bajarilishi shartli qonun-qoidalarga aylangan. Ikkinchi shaklida axloqiy me'yor inson ongida o'z aksini topgan muayyan qoida (buyruq sifatida namoyon bo'ladi, masalan, «qilma», «o'ldirma», «o'g'irlama») ko'zga tashlanadi.

Axloqiy me'yorlar – axloqiy qonun-qoidalarning kishi faoliyati (rostgo'ylik, halollik, insofilik, shirinsuxanlik, kamtarinlik, bosliqlik)ning ichki sababiga (motivi) aylanishining boshlang'ich talablaridir.

Rostgo'ylik – kishining haqiqatga bo'lgan axloqiy tanlovi bo'lib, rostgo'y odam haqni nohaq, nohaqni haq demaydi, hamisha yaxshilik, ezgulik yo'lini tutadi. Sho'rolar mafkurasi ta'sirida xalqimiz yolg'on, aldov, nopoklik, haromxo'rlik, munofiqlik inkanjasida qoldi. So'z bilan ish birligi yo'qolgan, qog'ozdagi jimjimador so'zlar o'z holicha qolgan paytda kishilar halollik, rostgo'ylik ustidan kulish darajasiga yetdi, rostgo'y odam rost so'zlagani uchun ishdan haydaldi, jinoiy javobgarlikka tortildi, halol inson munofiq, har qanday qing'ir ishni to'g'ri qilib yuboradigan kimsalar qurboni bo'ldi. Mustaqillik tufayli milliy-ma'naviy qadriyatlar tiklanib, «halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezoniga» aylandi.

Halollik – insonning o'z kuchi bilan mehnat qilishi, topgan mol-mulki, obro'si, jamiyatda tutgan o'rni, xulqining to'g'riligidir. Bir umr baxtli yashash istagida bo'lgan inson hayotini halollik asosiga quradi.

Xushmuomalalik – o‘zga kishilarga bo‘lgan ichki hurmatning tashqi ko‘rinishi bo‘lib, insof, aql, ilm, oliyjanoblik, ko‘rkam fe‘l, yaxshilik, sabr, shukr, muloyimlik kabi belgilari mavjud. Xushmuomalalik – ko‘ngildagi ardoqli fikr, eng noyob his-tuyg‘u, ezgu niyatlarni yaqinlar bilan baham ko‘rish, har qanday holatda osoyishtalik, vazminlik, xotirjamlik bilan ish tutishdir. Xushbichim libos insonni qanchalik chiroyli, go‘zal ko‘rsatsa, xushmuomalalik ham insonni shu qadar jozibador va latofatli qilib ko‘rsatadi. Mashoyixlar tan jarohati bitar, ko‘ngil jarohati bitmas deytilar. Shirinsuxanlik – toza ruh manbai, ko‘ngil malhami, asal kabi totli va rohat baxsh etguvchidir. Ko‘ngil xazinasining qulfi til bo‘lsa, xazina kaliti so‘zdir. Shirinsuxan inson ma‘rifatli, ochiq chehrali, go‘zal xulqli bo‘lishi bilan birga, eng yomon so‘zni ham «qog‘ozga o‘rab», ko‘ngilga tegmaydigan qilib aytadi, malomatga o‘rin qoldirmaydi.

Kamtarlik – kishining o‘zi va o‘zgalar qadrini anglashi va baholay bilishidir. Suv o‘tni o‘chirgani kabi, kamtarlik ham g‘ururni bezab turadi. Nokamtarlik aql yetishmasligidan dalolatdir. Ortiqcha kamtarlik shaxsning yashirin takabburligini ko‘rsatadi, ya‘ni soxta kamtarlik manmanlikdir. *Kamtarlikning ziddi takabburlik, xudparastlik bo‘lib, bunday kishilar o‘ziga bino qo‘yib, har bir qilgan ishi o‘ziga yaxshi ko‘rinadi, o‘zini boshqalardan ustun qo‘yadi. Hadisda takabburlik shayton ishidir deyilgan.* Kamtarlik insonni ulug‘laydi. Odam kasr jadvaliga o‘xshaydi: odamning o‘zi kasr surati bo‘lsa, mahraji uning fazilat va illatlaridir. Mahraj qancha kattalashsa, surat shuncha kichrayadi, ya‘ni inson qancha kamtarin bo‘lsa, shuncha ulug‘ sifat va salobatli ko‘rinadi.

Mardlik – qalbning buyuk fazilati bo‘lib, qo‘rquv nimaligini bilmay, o‘limga mardona tik borgan kishi chinakam mard sanaladi. Mard kulfat va xatar, qiyinchiliklarni xotirjam va vazminlik bilan qarshi oladi. O‘zgalarning noloyiq xatti-harakatlari, ozor va injiqliklarini sabr-toqat bilan kechirish ham mardlikdir. Mard odam o‘z so‘zida turadi.

Do‘stlik – muqaddas tushuncha, ilohiy tuyg‘u bo‘lib, xokisor odamlar o‘rtasida mustahkam qaror topadi va o‘zaro hurmat-ehtirom tufayli kuchayadi. *Do‘stlik inson hayotidagi eng noyob narsa, eng yuksak devor, mustahkam qo‘rg‘on, suv bilan ta‘minlangan ishonchli qal‘adir. Inson xarakteri va aqlini u tanlagan do‘st hamda o‘qiyotgan kitobidan bilish mumkin. Do‘stlik tufayli inson baxtiyor va do‘stlar quvonchi hamma narsadan ustundir. Yoshlikda tug‘ilgan do‘stlik mustahkam va lazzatlidir. Bitta ham haqiqiy do‘sti bo‘lmagan odamga yashashning hojati yo‘q.* Do‘stlik zamirida iroda, did va fikrlarning to‘la uyg‘unligi yotadi. Ishonch do‘stlikning birinchi sharti bo‘lib, hammaga do‘st bo‘lgan odam aslida hech kimga do‘st emas, lo‘t tiboz, shunchaki murosasozdir.

Odoblilik – yaxshi tarbiya ko‘rganlik, o‘zini tuta bilish, xulosa chiqarishda shoshilmaslik, o‘zgalar fikrini tinglash, shirinso‘zlikdir.

Hayolilik – o‘zini turli nojo‘ya xatti-harakatlardan tiyish, uyalish, xijolat tortish demakdir. Ibn Sino fikricha, «insonda doimo turadigan husn va latofat hayo bilan iffat bo‘lib, hayosiz yuz jonsiz jasad kabi», hayosiz inson iymonsizdir. Qo‘rqoq, pastkash, munofiq kishilar hayosini yo‘qotgani uchun har qanday tuban ishga qo‘l uradilar va bundan zarracha xijolatga tushmaydilar.


Iffat – halol va go‘zal bo‘lmagan narsadan o‘zini tiyish, o‘ta poklikdir. Iffat tufayli inson nafsini hayvoniy lazzatlardan tiyadi. Toki insonning qo‘li, tili, qulog‘i, ko‘zi iffatli bo‘lmaguncha, o‘zi ham iffatli bo‘la olmaydi. Sabr – qanoat qilish, hayot qiyinchiliklarini chidam bilan yengishdir. Insonning g‘azabini bosa bilishi, sababini bilmasdan noroziligini oshkor etmasligi, istaklarini jilovlay olishi, kuchli iroda sohibi bo‘lishi sabrdan dalolatdir.

Oddiylik – axloqiy barkamollikning oliy sharti, o‘zini ko‘z-ko‘z qilmaslik, boshqalardan ajralib turishga harakat qilmaslik, oliy maqsad yo‘lida kamtarona hayot kechirishdir. L.Tolstoy fikricha, «*kuchli odamlar hamisha oddiydirlar*». Oddiylik dunyodagi eng qiyin fazilat, oddiy bo‘lish – buyuk bo‘lishdir.

Axloqiy tamoyillar umumlashgan axloqiy tushunchalar bo‘lsa, axloqiy me‘yorlar ularni muayyanlashtirishga xizmat qiladi, ya‘ni axloqiy tamoyillarga rioya qilish uchun qanday axloqiy xislatlar zarurligi va iroda qay tarzda namoyon bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Inson hamma narsada, hatto kamtarlikda ham me‘yorni bilishi kerak. Bo‘lajak pedagog axloqida xushmuomalalik va odoblilik, oddiylik va kamtarlik, halollik va rostgo‘ylik, ochiqko‘ngillik va dangallik, saxiylik va muruvatlilik, o‘zaro hurmat va samimiylik, sipolik, bosiqlik va h.k. mujassam bo‘lishi lozim.

Axloqshunoslik inson xatti-harakatini fazilat va illat tushunchalari asosida tahlil etadi. Axloqiylik fazilat, axloqsizlik illatdir. Bu tushunchalar bir-birini inkor etgan holda, bir-birini taqozo qiladi. Adolat bilan zulm, saxiylik bilan xasislik, do‘stlik bilan dushmanlik, kamtarlik bilan takabburlik, xushmuomalalik bilan qo‘pollik o‘rtasidagi munosabat orqali fazilat va illat anglashiladi.

Axloqshunoslikning mezoniy tushunchalari nisbiy, qutbli (*muhabbat, nafrat, ezgulik, yovuzlik, yaxshilik, yomonlik, adolat, adolatsizlik, burch, mas‘uliyatsizlik, nomus, nomussizlik, vijdon, vijdonsizlik, baxt, baxtsizlik*) xarakterga ega bo‘lib, shaxs va jamiyat ma‘naviy hayotining mezoni vazifasini o‘taydi.



Muhabbat – keng qamrovli mezoniy tushuncha, oliy tuyg‘u bo‘lib, insonni ezgu ishlarga chorlaydigan, uni tanimaydigan darajada o‘zgartirib Yuboradigan, aql, xayol, qalb va vujudni egallab olgan barcha tuyg‘ular ichida eng qudratlisidir. Hamma narsaning chegarasi bor, faqat ishq-muhabbat chegara bilmaydi. Muhabbat me‘yor, an‘ana, qonunga bo‘ysunmagan holda, insonga ulkan mas‘uliyat yuklab, jasoratga chorlaydi.

Muhabbatning ob‘ekti manfaatsiz go‘zallikdir. Buyuk qalbli kishilar muhabbatni ulug‘lab, uning qadriga etadilar. Hamma dardning davosi bo‘lgani holda, ishq-muhabbatni dori-darmon bilan davolab bo‘lmaydi. *Muhabbat o‘limdek kuchli va shishadek mo‘rtidir. O‘zini yaxshi ko‘rgan odam boshqani sevishga salohiyati yo‘q. Kimnidir sevish uchun inson uning baxtida o‘z baxtini topishi lozim. Muhabbat insonni kamolotga chorlaydi, shunga ko‘ra, yoshlar uchun muhabbat axloqiy ideal hisoblanadi.* Muhabbatning Allohga, Vatanga, millatga, insoniyatga, ota-onaga, farzandga, go‘zallikka, kasb-korga muhabbat kabi turlari bor. Muhabbat tom ma‘noda insonning insoniyligini ko‘rsatuvchi fazilatdir. Bu haqida Alisher Navoiy shunday yozadi:

Bo‘lmasa ishq ikki jahon bo‘lmasin,

Ikki jahon demaki, jon bo‘lmasin.

Ishqsiz ul tanki, aning joni yo‘q,

Husnni netsin kishikim oni yo‘q.

Muhabbatning ziddi nafrat bo‘lib, uning asosida chuqur o‘ylab qilingan qaror yotadi. Adolatsiz, noinsof munosabat, xiyonat tufayli muhabbat ob‘ektidan begonalashish, yuz o‘girish, jirkanish, hazar nafratning kundalik hayotdagi tor ko‘rinishi bo‘lsa, uning keng ko‘lamdagi ko‘rinishi ijtimoiy-axloqiy hodisa sifatida mavjuddir.

Muhabbat qancha kuchli bo‘lsa, nafrat ham shu qadar kuchli bo‘lib, davomiylik tabiatiga egadir. Ba‘zilar muhabbat nafratga, nafrat esa muhabbatga aylanishi mumkin, deyishadi. Bu mutlaqo noto‘g‘ri. Bu nafrat emas, balki o‘tkinchi hodisa bo‘lgan g‘azabdir. G‘azab inson fe‘lining salbiy holati, badjahllik, nodonlik, oxirini o‘ylamasdan qilingan nojo‘ya xatti-harakat bo‘lib, ma‘lum vaqt o‘tgach, inson yana o‘z holiga qaytadi, g‘azabi bosiladi. *G‘azab zaiflik alomati, johillik manbai, oniy aqlsizlik, betayinlik, qisqasi, kulgili illatdir, chunki g‘azab ustida aytilgan bema‘ni gap-so‘z uchun osoyishta paytda uyalish, o‘z-o‘zidan nafratlanish, xatolarni anglash, o‘z-o‘zini ayblash sodir bo‘ladi.* Nafrat illat emas, balki axloqiy fazilat sifatida insonning vijdonliligi, botiniy jasorati, chinakam insonligini namoyon qiladi. Muhabbatning asl mohiyati ishonch bo‘lib, haqiqiy muhabbat egasi rashk qilmaydi, chunki rashk shaxsiyatparastlik, izzatlablik va soxta manmanlik, bo‘lmag‘ur g‘urur, o‘jizlik, qo‘rqoqlik,

ishonchsizlik, aqlsizlik mevasidir. Rashk muhabbatning me'yordan oshib ketishi oqibati, xudbinlik, «o'ta sevish»ning jirkanch mevasidir. Zero, me'yorini bilmaslik oqibatida eng yoqimli narsa ham behad yoqimsiz narsaga aylanadi. Rashk muhabbatdan ko'ra g'arazgo'ylikka yaqin turadi, ya'ni oshiq uchun azob-uqubat, ma'shuqa uchun ranj-iztirob manbaidir. Iztirobni yo'qotishga intilish muhabbatning zavol topishi, hatto fojiaga ham olib kelishi mumkin (*Shekspir «Otello»*).

Muhabbatning ob'ekti ezgulikdir, ezgulik muhabbatdan tug'iladi, kishi o'zgalarda mehr-muhabbat hissini tuymasdan ezgulikka qo'l urmaydi. Chinakam qalb egasi bo'lmagan inson ezgulik qilishga qodir emas. Tasavvur qiling: eng nozik nihol ham toshday qattiq yerni, qoyalardagi yoriqlarni yorib o'sib chiqadi. Ezgulik ham shunday.

Ezgulikda tarixiy shakllangan axloqiy ideal, ya'ni komil inson, mukammal (adolatli) jamiyat haqidagi tasavvur, qarashlar va unga yetishishga yoki ro'yobga chiqarishga bo'lgan sa'y-harakat ifodalanadi. Ezgulikka xizmat qilmaydigan har qanday bilim, nazariya hech bir qimmatga ega emas (*urush quollarining kashf etilishi, ularning takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot va boshqalar*).

Ezgulik oliy qadriyat bo'lib, uning mohiyati mutlaq mukammallik, haqiqat, go'zallik timsoli bo'lgan Alloh sifatlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun barcha dinlarda Xudo kishilarni ezgulikka chorlovchi zot sifatida talqin qilinadi («Avesto»da Axuramazda «ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» tamoyilini o'zida mujassamlashtirgan zot deb ta'riflangan).

Ezgulik insonning ulug'vorlik darajasida, ya'ni oddiy o'lchov doirasiga sig'maydigan faoliyatda namoyon bo'ladi. El-yurt manfaati, oliy maqsadni o'z manfaatidan ustun qo'yib, bunyodkorlik, yaratuvchilik, fidoyilik qilgan inson faoliyati ezgulik o'lchovi bilan baholanadi.

Ezgulikning muqobili yovuzlik bo'lib, shafqatsizlik, zaiflik, tubanlik, pastkash sa'y-harakatlar zahirida vujudga keladi va jamiyat, insoniyatga keltirgan kulfat, talofot miqyosi bilan o'lchanadi (*masalan, Gitler, Stalin, Gdlyan, Ivanov, bugungi kunda xalqaro terrorizm homiylarining jirkanch qilmishlari*). «Nima uchun kishilar yovuzlikka qo'l uradilar, yovuzlik kuchlimi yoki ezgulik» degan jumboq insoniyat yaratilgandan hozirga qadar mutafakkirlar diqqat markazida bo'lgan azaliy muammolardan biridir. Nemis faylasufi A.Shopengauer fikricha, «Olamda ezgulik ko'proqmi yoki yovuzlik, degan savol xususidagi bahs ortiqchadir. Chunki yovuzlikning mavjudligining o'zi yovuzlik hech qachon barham topmaydi, hech qachon u bilan birga va undan keyin ham yashovchi ezgulik bilan baqamti bo'lib baravarlashmaydi, deganidir. Zero, «ming bor huzurlanish bitta azobga arzimaydi». Yovuz, muttaham, kaltafahm, berahm, kekchi,

pastkash kimsalar birovlar baxtsizligi, kulfatidan shodlanib, qilgan yovuzliklari bilan faxrlanadilar, ayni paytda, boshqalar boshiga tushgan kun o'z boshlariga tushishini unutib, asl qiyofalarini ko'rsatadilar.

Yaxshilik va yomonlik tushunchalari konkret shaxsning kundalik odob-xulqiga taalluqli ijobiy va salbiy jihatlarni ifodalaydi. Yaxshilikning yomonlikka aylanishi va yomonlikning yaxshilikka aylanishi tabiiy. Ezgulik hech qachon yovuzlikka aylanmasa ham, yaxshilik ezgulikka, yomonlik yovuzlikka aylanishi muqarrar. *Yaxshilik ko'p bo'lsa ham zarar keltirmaydigan fazilat bo'lib, hamma narsaga qarshi turish mumkin, lekin yaxshilikka qarshi turib bo'lmaydi.* Birovga yaxshilik qilgan inson avvalo o'ziga yaxshilik qilgan bo'ladi, yaxshilikdan yaxshilik kutish emas, yaxshilik uchun yaxshilik qilish joizki, inson qilgan yaxshiligidan zavqlanadi, rohatlanadi, zero, boshqalarga shodlik ato etgan insonning ko'ksi tog'dek ko'tariladi. Yaxshilik qilmagan kishi yaxshilikning qadriga etmaydi. Ezgu ish, yaxshi amalni ortga surmaslik kerak. Vaqtida qilingan yaxshilikning hikmati ko'pdir. Buyruq, ko'rsatma bilan, majburan qilingan yaxshilikning qimmatini bo'lmaydi, aksincha, nafrat tug'diradi.

Yomonlik o'z nomi bilan yomonlikdir. Qur'onda ham «Yomonlikning jazosi xuddi o'ziga o'xshagan yomonlikdir» deyilgan (Sho'ro surasi, 40-oyat). Inson yaxshilar safiga qo'shilsa, go'zal xulq egasi bo'lishga intiladi, yomonlar suhbat qobiliyatli insonni ham nobud qiladi, qalbi yomonlik urug'lari maskaniga aylanadi. Hadisda «Yaxshilikni chehralari ochiq, xushro'y odamlardan kutinglar. Yaxshi odam bilan o'tirish go'yo mushku anbardek, yomon odam bilan birga bo'lish temirchining bosqoni kabidir» deyilgan. Demak, yaxshilik maqsad kaliti bo'lib, yaxshilik uchun insonga besh buyuk omil berilgan: dunyoga kelish, sog'-salomat yurish, insonparvarlik, oila qurish, el-yurt duosini olish. Yaxshilik go'zal fazilatki, uning chamanida faqat xushbo'y gullar ochiladi. Yaxshi niyat insonni murodiga yetkazsa, yomonlik tikanzorga o'xshaydi.

Adolat – barcha fazilatlar ichida eng oliy fazilat bo'lib, inson xatti-harakatining mezon, haqiqatning amalga oshirishidir. Arastu adolatni «qonunga muvofiq xulq» deb ta'riflagan. Adolat jamiyatni, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni axloqiy va huquqiy talablarga mos tarzda tartibga solish vazifasini o'taydi va barcha ijtimoiy xatti-harakatlar ana shu mezon bilan o'lchanadi. Insonni oliy qadriyat sifatida baholamaydigan va unga muvofiq tarzda amal qilmaydigan huquqiy me'yor, qonun-qoidalar adolatsizdir.

Adolat insonga non kabi kerakli, inson qadr-qimmatini ushlab turadigan, axloq-odob, aql-idrok qonunlari, omma hayotining o'zidan kelib chiqadigan, umrboqiy tushunchadir. Kuchga tayanmagan adolat ojizlik,

adolatsiz kuch esa zo'rvonlik bo'lib, adolat kuch bilan uyg'unlashsa, adolatning kuchli va kuchning adolatli bo'lishiga erishiladi.

Burch – muayyan axloqiy me'yor va tamoyillar bajarilishini talab etadigan vazifa, majburiyat bo'lib, unga nisbatan vijdonli munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Burch e'tiqod, mas'uliyat kabi tushunchalar bilan bog'liqdir. Insonning har bir xatti-harakati zamirida burchga sadoqat yoki xiyonat yotadi. Burch keng qamrovli mezoniy tushuncha sifatida insonlik burchi, musulmonlik burchi, fuqarolik burchi, otalik burchi, onalik burchi, farzandlik burchi, talabalik burchi, shuningdek, kasbiy odob doirasidagi olimlik burchi, shifokorlik burchi, harbiylik burchi, jurnalistlik burchi va h.k.ni qamrab olgan. O'z burchini sadoqat bilan sidqidildan ado etgan inson o'z quvonchi bilan o'zini mukofotlaydi, chunki hayotdagi eng zo'r xuzur-halovat ado etilgan burchdan zavqlanish bo'lib, insonni. baxtga erishtiradigan yo'ldir.

Vijdon – shaxsning o'z burchini anglashi, uning ado etilishini ixtiyor erkinligi, e'tiqod darajasida nazorat qilish qobiliyatidir. Vijdon axloqiy amr, majburiyatlarning axloqiy tanlov doirasida bajarilishiga bo'lgan ma'naviy-ruhiy mas'uliyatidir. Vijdon yuksak axloqiy hissiyot uyat tuyg'usi bilan bog'liq botiniy-ruhiy o'z-o'zini anglash, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatdir. Vijdonning buyuk qudrati shundaki, gunohsizni har qanday qo'rquvdan forig' etgani holda, gunohkorni muttasil qo'rquvga solib turadi, zero, vijdon minglarcha guvohlardir. Jazo berilmagan joyda vijdon azobi boshlanadi. Haqiqiy baxtsizlik vijdon azobidir. Shu bois vijdon azobidan qochib qutulib bo'lmaydi va u eng oliy jazodir. *O'z xatti-harakatini ma'naviy o'lchovda baholash va o'z gunohini xotirlab, ular ustidan hukm chiqarish vijdonlilik mezonidir.* Vijdon iymon tushunchasi bilan mushtarak bo'lib, iymonli odam dini va millatidan qat'iy nazar, vijdonli, rostgo'y, halol odamdir. Vijdon oliy hakam, uning hukmidan aldamchilik, bezbetlik, nomussizlik, munofiqlik libosini kiygan kimsalar qo'rqmaydi. Aybini his etish, qilmishidan uyalish ma'naviy pokizalik va diyonat sari intilish belgisi bo'lib, insonni hech narsa vijdonchalik bezovta qilmaydi. Hamma narsa vaqt o'tishi bilan unutilishi, esdan chiqarilishi mumkin, vijdon yarasi batamom bitib ketmaydi, ko'p hollarda odam gunohkorlik tuyg'usini u dunyoga olib ketishni istamay, o'limi oldidan hech kim bilmagan mudhish haqiqatni oshkor etadi va gunohkorlik hissi, vijdon azobidan xalos bo'ladi.

Nomus ham burch, ham qadr-qimmat tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy hodisadir. Inson uchun jon qanchalik aziz bo'lsa, nomus undan ham qimmatliroqdir. Nomus uchun inson jonidan kyechishga tayyor, ya'ni inson o'z nomusi, oilasi, millati, yurt nomusi uchun kurashadi. Oqillar or-nomussiz hayotdan o'limni afzal ko'radilar. *Nomus – asl go'zallik,*

aqlning poydevori, tashqi vijdon (vijdon ichdagi nomus) bo'lib, odobni nomusdan, nomusni odobdan ajratib bo'lmaydi.

Nomus tushunchasi or tushunchasidan farqlanadi. Oriyatlilik – o'z so'zining ustidan chiqadigan, g'ururli insonga xos xususiyat bo'lsa, beorlik o'z sha'ni, g'ururi uchun zarracha qiziqmaydigan, qanday qilib bo'lsa ham ish bitirish payida bo'lib, kerak bo'lsa, nomusini ham sotadigan, obro'sini saqlamay, bo'lar-bo'lmasga gap qo'shib, aytilmagan joyga ham andishasizlik qilib boraveradigan kimsalarga xosdir. Nomus tushunchasi obro' tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, obro' insonning o'zini o'zi hurmat qilishi, atrofdagilarning hurmatini yo'qotmaslik uchun o'z-o'zini nazorat qilish hissidan kelib chiqadi.

Ideal – o'zida go'zal axloqiy fazilatlarni uyg'unlashtirgan komil inson va mukammal (adolatli) jamiyat haqidagi tasavvur, orzu va unga yetishishga bo'lgan intilishdir. Idealda mavjud bo'lmagan, xayoldagi orzu-umid voqelikka qiyoslanadi, ya'ni *bor narsa yo'q narsa bilan o'lchanadi*. Zero, ideal hayotda bo'lmagan, lekin inson hayoti, maqsadi, intilishi uchun namunaviylik o'tmishdan andoza shaklida olinadi, payg'ambarlar, aziz-avliyolar, podshoh va vazirlar hayoti turli afsona va rivoyat bilan boyitilib, ideallashtiriladi. Barcha axloqiy sifatlar bilan bezangan mo'jizakor payg'ambar, odil podsho, saxovatpesha, dono vazir, nazari bilan tuproqni oltinga aylantiradigan valiylar, jo'mard insonlardir. *Xotami Toy – ideal saxovat egasi bo'lsa, Horun ar-Rashid yoki Iskandar ideal podsho, Nizom ul-mulk dono vazir, Amir Temur – buyuk jahongir, Spitamen, To'maris, Jaloliddin Manguberdi xalq qahramonlaridir. Inson hamisha idealga intiladi, o'z hayotini unga qiyoslaydi, unga taqlid qiladi. Idealga intilib yashash insonni komillikka yetaklaydi. Ideal ijobiy hodisa bo'lib, insoniyat idealda o'z baxtining yorqin ifodasini ko'radi va idealga yetishishni hayotining ma'nosi deb biladi.*

Inson uchun eng qadrli narsa nima, inson nima uchun yashaydi, yashashdan maqsad nima, inson hayotining ma'nosi nimada degan savollar hamma zamonlarda izohlashga harakat qilingan. Yashash – kurash, yaratish, yashnatish, bunyodkorlik, mehr-muravvat, ezgulik, fidoyilikdir. Lekin o'zi uchun yashash, o'zi uchun ishlash hayot emas. Inson boshqalarga qancha ko'p foyda keltirsa, hayotining ma'nosi shuncha go'zallashadi. Fidokor kishilar quyosh kabidir. Inson hayotining eng katta quvonchi o'zini boshqalarga yaqin va kerakli deb bilishdir.

Hayotning ma'nosi insonning kamolotga erishuvidadir. O'zidan qoniqmaslik oqil inson hayotining zaruriy shartidir. Hayotning qimmatini uni qanday yashay bilish bilan o'lchanadi. Inson dunyoga ikki marta kelmaydi, lekin bir marta ham yashashni, umrni mazmunli o'tkazishni bilmaydiganlar

bisyor. E'tibor bersak, aksariyat kishilar hayotining ko'p qismini bo'lmag'ur va foydasiz ishlarga, anchaginasini bekorchilikka, dangasalikka, bexuda xayol surishga, aziz umrini nokerak narsalarga sarflayotganlarining guvohi bo'lamiz. Aziz umrini mol-dunyo, boyluk uchun sarflab, yiqqanlarini tasarruf etishga umri etmagan qancha. Inson degan nomga sazovor bo'lish – inson hayotining asl maqsadidir. Hayotda o'z o'rnini topa olmagan insonning ahvoli og'irdir. Zero, umr o'lchovli, har daqiqa hisobli, vaqt insonning qimmatbaho boyligi, ulug' murabbiydir. Vaqtning qadriga etmagan inson umrining qadriga ham etmaydi. Har doim vaqtim yo'q deydigan kishi aslida hech narsa qilmaydi, chunki o'z vaqtidan oqilona foydalangan inson vaqtni to'g'ri taqsimlagani uchun hamma narsaga ulgurishi tayin. Dangasalik vaqtning eng katta dushmanidir. Behuda o'tkazilgan vaqt armonli xulosa yasaydi. Vaqtida qilinmagan ish behuda qilingan ish, ya'ni bugungi bir soat ertangi ikki soatdir, ya'ni «ertaga» «bugun»ni boplab aldaydi. Demak, hayotni o'yinchoq deb bilgan insonning o'zi o'yinchoqqa aylanishi muqarrar.

Axloqshunoslikdagi eng bahsli mavzu baxt bo'lib, har bir inson baxtga o'zicha yondashadi, birovg'a baxt bo'lib tuyulgan narsa boshqa uchun ahamiyatsiz bo'lishi mumkin va aksincha, zero, «hech kim baxt nimaligini aniq bilmaydi». Baxt – insonning hayotdan, turmushdan lazzatlanib, undan to'la mamnun bo'lib yashashidir.

Baxtga intilish tug'ma fazilat bo'lib, kishining baxti boshqalarga keltirgan baxtiga qarab o'lchanadi. Kim uchun yashamoqlik chinakam baxt bo'lsa, kimdir baxtni eng avvalo sog'likda deb biladi. Inson baxtsizlikni bilmasdan baxt nimaligini bilmaydi. Baxtsizlik kulfat, g'am-g'ussa, dard-alam, ro'shnosizlik, omadsizlik, tolesizlik bo'lib, tasodifiy hodisa emas, balki zaruriyatning namoyon bo'lishidir. Agar inson baxtsiz ekan, avvalo uning o'zi aybdordir.

Baxt tushunchasi omad bilan bog'liq. Omad o'tkinchi hodisa bo'lib, hamisha ham kulib boqavermaydi, chunki odam bir umr omadli bo'lolmaydi, omad tasodif natijasi, vaziyat muvozanati bo'lsa, baxt qonuniy hodisa, zaruriyat, bo'lishi lozim bo'lgan hodisadir. Hayot har bir kishiga ulkan va bebaho tuhfa in'om etadi, baxtli bo'lish insonning o'z qo'lida: orzu, ishonch, fidoyilik, jasorat, kamolot sari intilish baxt kalitidir.

3-mavzu. Shaxs axloqiy tarbiyasi

1. *Axloqiy tarbiya insonni shaxs sifatida kamolotga yetkazuvchi uzluksiz jarayon ekani*
2. *Pedagog shaxsi va uning axloqiy qiyofasi*
3. *Zamonaviy axloqiy tarbiyaning asosiy vositalari va yo'llari*
4. *Shaxs tarbiyasida san'at va ommaviy axborot vositalarining o'rni*

Fuqarolarning axloqiy madaniyati jamiyatdagi axloqiy yuksaklik darajasini belgilaydi. Axloqiy madaniyat shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi sifatida shaxsning ijtimoiy axloqiy tajribalarni egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarda foydalanishi, o'z-o'zini takomillashtirib borishini qamrab oladi.

Axloqiy madaniyat muomala odobi, etiket va kasbiy odobni tashkil etadi. Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri muomala odobi hisoblanadi. Insonning axloqiy-ma'naviy xislatlari eng avvalo muomala madaniyatida namoyon bo'ladi.

Muomala inson uchun ehtiyoj, zarurat, sog'lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi. *Bu borada buyuk ingliz yozuvchisi Daniel Defo qalamiga mansub mashhur «Robinson Kruzoning sarguzashtlari» asarini eslashning o'zi kifoya: Jumaboyni topib olgan Robinson quvonchining sababi ham shunda.*

Muomala odobi boshqalar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yish, an'anaviy me'yor talablarini bajarishni talab etadi. So'zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatini tashkil etadi. Shu bois muomala odobi shirinsuxanlik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe'llik singari axloqiy me'yordalarda namoyon bo'ladi. Axloqiy komillikka erishish muomala odobini egallashdan boshlanadi.

Ma'lumki, insonning yuz ifodasi, qo'l harakatlarida uning tiliga chiqmagan, so'zga aylanmagan hissiyoti, talab-istaklari aks etgan. *Masalan, suhbatdoshining so'zini oxirigacha eshitmay qo'l siltab ketish shaxsning madaniyatsizligini anglatadi. Ba'zan bir qarab qo'yishning o'zi inson ruhiyatiga so'zdan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkin.*

Etiket – kishilarning o'zaro munosabatiga tegishli umumiy tarzda qabul qilingan va rioya qilinishi talab etiladigan axloqiy qoidalar bo'lib, muomala odobining rasmiylashgan shaklidir. Etiket insonning tashqi madaniyati, o'zaro munosabatda o'zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi.

Muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondashadi, bir holatda bir necha muomala qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, etiket esa

muayyan holat uchun faqat qoidalashtirib qo'yilgan xatti-harakatni taqozo etadi.

Etiket keng qamrovli tushunchadir. Etiket insonni muayyan tartib, qoidaga, qanday ichki ruhiy sharoitda bo'lsin, bosiqlik, muloyimlik va sabr-toqatga o'rgatadi. Etiket xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini ham o'z ichiga oladi. *Masalan, siyosiy arbob etiketi, mehmondorchilik etiketi va hokazo. Etiketga rioya qilishning mumtoz namunasini Prezidentimiz I.Karimovga xorijiy mamlakatlar elchilari ishonch yorliqlarini topshirish marosimida ko'rish mumkin. Unda faqat bir xil holat – xalqaro miqyosda o'rnatilgan qoida hukmron. Uni Prezident ham, elchilar ham buzishga haqqi yo'q.*

Yoki ovqatlanish paytida pichoqni o'ng qo'lda ushlab zamonaviy mehmondorchilik etiketining qat'iy qoidalaridan biri sanaladi, uni buzish atrofdegilarda hayrat va istehzo uyg'otadi.

Etiketni odat tusiga aylantirilgan, takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishini ko'zini quvontiradigan muomala odobi deyish mumkin. Shu bilan birga etiket axloqiy asosini yo'qotgan majburiy mulozamat tarzida ham namoyon bo'ladi: *etiket qoidalarini bajarayotgan kishi aslida o'z xohish-ixtiyoriga qarshi ish ko'rayotgan bo'lishi ham mumkin.*

Bugungi globallashuv, dunyo xalqlari madaniy aloqalarining kengayib borishida yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarda milliy etiket ko'nikmalarini shakllantirish bugungi tarbiya tizimining muhim vazifasi bo'lib, oila buni amalga oshiruvchi asosiy sub'ekt sanaladi. Odob ko'nikmalari yoshlikdan ota-onaning namunaviy xatti-harakati ta'sirida shakllanadi. «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan hikmatda ana shu oddiy haqiqat mujassamdir.

Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham namoyon bo'ladi. Kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng kichik shakllaridan biridir. Inson o'z kasbi doirasida boshqalar bilan munosabatga kirishadi. Kasbiy odob shu qadar ahamiyatliki, jamiyat a'zolarining hayot-mamoti, salomatligi, ma'naviy sog'lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo'lishi kabi omillar imtiyozli kasb egalarining o'z kasbiy burchi mas'uliyatini qay darajada his etishlari, halollik va vijdon yuzasidan ish ko'rishlariga bog'liq. *Shifokor har kuni bir necha kishini hayotga qaytaradi, yuzlab odamlar uning yordamiga muhtoj, unga umid va ishonch ilinji bilan qaraydilar. Bordiyu, jarroh o'z shaxsiy manfaati yo'lida bemoriga xiyonat qilsa, ya'ni uni qasddan halok etsa? Kim uni shunday qilmasligiga kafolat beradi? Yoki jurnalist o'z manfaati yo'lida kasbiy imtiyozidan foydalanib, begunoh kishilarni ma'naviy azobga qo'yishi, buning evaziga moddiy manfaatdor*

bo'lishi mumkin va hakazo. Shu bois boshqalar qo'lidan kelmaydigan ishlarni bajara oladigan kasb egalari faoliyatida manfaatparastlik, o'zboshimchalik, xudbinlik, o'z kasbini suiste'mol qilish kabi illatga yo'l qo'ymaslik, kasbiy axloq darajasini yuksak bosqichda turishini ta'minlash maqsadida axloqiy qoidalar majmui yaratilgan. Bu qoidalar majmui, qasamyod yoki me'yorlar bo'lib, ularni buzish o'ta odobsizlik va axloqsizlik, jamiyatga xiyonat tarzida baholanadi.

Muhtaram Prezidentimiz I.Karimovning «Adolat – qonun ustuvorligida» nomli ma'ruzasida: “Huquq-tartibot idoralarining ayrim nopok xodimlari uchun fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish birinchi navbatdagi vazifa bo'lmay, balki qo'rqitish, o'z vakolati va hukmdorligini ko'rsatib qo'yishga intilish, o'zini go'yo jinoyatchilikka qarshi kurashayotgandek qilib ko'rsatish kabi noxush odat hamon yashab kelmoqda. Shundaylar ham borki, ular qonunchiligimizdagi ayrim nomukammalliklar, odamlarning xato va baxtsizliklari hisobiga o'zlarining g'arazli, ta'magirlik maqsadlariga erishishga urinadi” deya aytilgan so'zlar ayni haqiqatdir.

Har bir kasbning o'z axloqiy me'yorlari mavjud. Zero, mas'ul shaxs o'z vazifasini ijro etayotganda, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarda yuksak axloqiy me'yorlar asosida o'z shaxsiy majburiyatlarini bajarishi lozim. Pedagog shaxsiga qo'yilgan axloqiy talablar quyidagicha:

– insonga eng oliy qadriyat deb qapash, xalqaro va davlat huquqiy me'yorlari va umuminsoniy axloq prinsiplariga mos ravishda inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish va himoya qilish;

– o'z kasbining va yuqori professionalizmning ijtimoiy ahamiyatini, mutaxassis sifatida o'zining jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatini tushunish, chunki ular faoliyatidan ijtimoiy xavfsizlik, kishilar hayoti, sog'ligi, huquqiy muhofazalanganligi belgilaydi;

– ijtimoiy adolat, fuqarolik burchi, kasbiy va axloqiy burch prinsiplariga qat'iy amal qilgan holda qonunda belgilangan huquqlardan oqilona va insonparvarlik yo'lida foydalanish;

– qaror qabul qilishda prinsiplilik, xodimlar bilan bilan munosabatda xolislik, hurmat, talabchanlik, o'z navbatida mehribonlik;

– xizmatda va turmushda shaxsiy xulq-atvorning tozaligi, halollik, kasbiy sha'ni, obro'si haqida qayg'urish;

– ongli intizom, tashabbuskorlik, professional birdamlik, o'zaro yordam, murakkab vaziyatlarda xatti-harakatlarga axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, qiyin vaziyatlar (kasallik, inqiroz, aldov, o'lim)da to'g'ri xulosa chiqarish;

– kasb etikasi sohasida bilimi va kasbiy malakasini takomillashtirish va hakazo.

Axloqiy tarbiya bir qator vositalar (oila, mahalla, bog‘cha, maktab, litsey, kollej, oliy o‘quv yurtlari, mehnat, san‘at, ommaviy axborot vositalari) orqali amalga oshiriladi.

Shaxs axloqiy tarbiyasi avvalo oilada, ona qornidan boshlanadi. Ota-ona o‘zining axloqiy fazilatlari bilan farzandiga namuna bo‘lishi kerak. Shuning uchun ular zimmasiga katta ma’suliyat yuklangan.

Oila ilk axloqiy tarbiya o‘chog‘i, maskani sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Komil farzandlar tarbiyasi oilaning mustahkam va jamiyatning kichik hujayrasi sifatidagi mavqeini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Shunga ko‘ra, farzand tarbiyasi jamiyat kelajagini belgilaydi.

Oila muhitida paydo bo‘ladigan ota-onaga hurmat, ular oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har bir insonga xos odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlar negizi, oilaning ma’naviy olamini tashkil etadi.

Oila jamiyatning asosi, ma’naviy-ijtimoiy muhit bo‘lib, jamiyat boshlang‘ich axloqiy asosi vazifasini o‘taydi. Ota-ona farzandlariga yuksak va oliyanob axloqiy fazilatlari orqali namuna bo‘la olishlari bilan tarbiyani amalga oshiradilar. Ota-ona farzandlar tarbiyasi uchun ham huquqiy, ham axloqiy jihatdan birdek javobgarlar.

Oila mustaqkam, tinch, farovon, sog‘lom, baxtli bo‘lsa, jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. Mamlakatimizda oilani mustahkamlashga alohida e’tibor berilayotgani ham bejiz emas, chunki «insonning sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari oilada shakllanadi. Farzandning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oliyanoblik va mehr-oqibat, ornomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi muqarrar». Yoshlarni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviyat qo‘rg‘oni – oilani mustahkamlash bugunning dolzarb vazifasi bo‘lish bilan birga, insoniylik burchimiz hamdir.

Mehnat shaxsni axloqiy tarbiyalovchi muhim vosita sifatida halollik va poklikka o‘rgatadi. Mehnatga o‘rganmagan shaxs dangasa, loqayd, be‘mani, adolatsiz, mol-dunyoga beriluvchan, tayyorga ayyor, xasis, pastkash, takabbur kabi illatlar egasiga aylanadi. *Mehnat insonni ulug‘laydi. Ijodiy mehnat insonni chin ma‘nodagi inson qilib tarbiyalaydi, komillikka eltadi, sabr-toqatli, bardoshli qiladi. Oila va maktabda bolalarni mehnatga o‘rgatish – mehnat tarbiyasini amalga oshirish muhim dolzarb vazifa hisoblanadi.*

Har qanday tarbiyaning amaliy ko'rinishi, uning maqsad, vazifalarining qay darajada reallashishi shaxs axloqiy tarbiyasi darajasi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, axloq ma'naviyat negizi hisoblanadi. Insonning nechog'li ma'naviyatli ekanligi uning madaniyati darajasi bilan belgilanadi.

Shaxs axloqiy tarbiyasi inson mohiyati bilan bog'liq azaliy falsafiy muamolardan biridir. Axloqiy tarbiya Konfutsiy, Aflotun, Arastu, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Ahmad Yuknakiy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlar diqqat e'tiborida bo'lgan. Arastu fikricha, «tarbiya faqat azaldan insonga berilgan fazilatlarini shakllantiradi, Yuzaga chiqaradi, xolos. Bordi-yu tarbiya noto'g'ri berilsa, u holda insondagi azaliy fazilatlar o'zgarishi yoki o'chishi mumkin».

San'at axloqiy tarbiya vositalari tizimida alohida o'rin egallaydi. Chunki san'atda axloqiy mezoniy tushunchalar, tamoyillar mazmun-mohiyati badiiy obrazlarda mujassamlashadi. Shunga ko'ra, shaxsda san'at asarlarini estetik idrok etish, undan ma'naviy-ruhiy ozuqa olish qobiliyatini shakllantirish axloqiy tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi. Va xuddi mana shu vazifani amalga oshirishda axloqiy va badiiy-estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari o'zaro mushtaraklashadi.

Badiiy adabiyotda axloqiy estetik ideallar konkret qahramonlar obrazida aks etadi va kitobxon yashashning ma'nosi, maqsadi haqida mushohada qiladi. Ertakdan romangacha barchasi shaxs axloqiy tarbiyasida kuchli ta'sir vositasi bo'lib xizmat qiladi. Kitob o'qish jarayonida o'quvchi ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik nimaligini idrok etadi, kitob qahramonlari uning idealiga aylanadi.

Shaxs axloqiy tarbiyasida «Kalila va Dimna», «Qobusnoma», «Guliston», «Zarbulmasal», «Mahbub ul-qulub» kabi mumtoz asarlar, qissa va rivoyatlar, pandnomalarning alohida o'rni bo'lib, ular insonni kamolotga yetaklaydi.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining shaxs axloqiy tarbiyasidagi o'rni katta. Hozirgi kunda internet klublar, televizor, radio, telefon, gazeta va jumallar yoshlar tarbiyasiga bevosita daxldor bo'lib, kimga nimani qay yo'sinda namoyish etish yoki eshittirishi yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bachkana radioeshittirishlar, mantiqsiz teleko'rsatuvlar, behayo internet ma'lumotlari, zerikarli teatr tomoshalari, boshi-uchi yo'q teleseriallar, jimjimador bezakli mazmunsiz jumallar, oldi-qochdi bilan to'la gazetalarda yoshlar tarbiyasiga kuchli ta'sir etadi, deya olmaymiz.

Ayniqsa, farzandlarimiz tomosha qilayotgan ko'rsatuvlar ular yoshiga mosmi yoki mos emasmi, jiddiy o'ylash vaqti keldi. Tasavvur qiling,

musulmon odob-axloqidan bexabar qizchamiz Bibi Mar'yamga qarab cho'qinayotgan serial qahramoniga taqlid qilib cho'qinayotgan bo'lsa, oqibat nima bo'ladi. Yoki sof muhabbatni tarannum etayotgan koreys teleserialidan ilhomlangan bo'yiga etgan farzandimiz serial qahramonidan ibrat olsa va maqsadiga shu yo'sinda yetish uchun harakat qilsa, nima degan gap? Qani lafzi halol, mard, qahramon o'zbek yigitlari, ibo va hayoni o'ziga ziynat deb bilgan go'zal qizlari?

Hali o'zini to'la-to'kis anglamagan, yirtiq-yamoq kiyib, jazavaga tushayotgan ashulachi nimani kuylayotganiga aqli yetarmikin? Vafo haqida kuylab, noo'rin qiliq qilsa, vafoning hurmat-e'tibori qayerda qoladi? Yoki xiyonat qurboni bo'lib kuylayotgan xonandamiz sun'iy jilmayib tursa?

Televidenie faqat dorilar va ichimliklarni reklama qilishini inobatga olsak, Yurtimizda yoki hamma kasal, yoki hamma chanqoq, boshqasining bo'lishi mumkin emas degan xulosaga kelish mumkin.

Axloq hamma yerda, hattoki hojatxonada ham kerak, shu jumladan, san'at koshonasida ham. Afsuski, o'zini madaniyatli deb hisoblagan ma'naviyatsiz san'at arboblari «sahnada hamma narsa qilish mumkin» degan tamoyilga asoslanib, ko'ngilni behuzur qiladigan, besharm, behayo va beibo so'zlarni dangal gapirmoqdalar.

San'atning buyuk tarbiyaviy kuchini e'tiborga olsak, sahna tarbiya o'chog'i emas, tarbiyasizlik maskaniga aylanmoqda. E'tiborli san'at arbobidan «kino, teatr, multfilm, seriallar faqat komediya va masxara shaklida bo'lishi kerakmi» deb so'ralganda, «hozir odamlarga shu ma'qul kelyapti, hech kim o'ylashni, tafakkur qilishni xohlamaydi» deb javob bergan edi.

Demak, illatlarning sababi o'zimizda, tafakkur darajamizda, bemulohaza xatti-harakatimizda ekan. Agar tomoshabin saviyasi past bo'lsa, san'atkor aybdor emas, aksincha, uning ildizi tomoshabinning ma'naviyatsizligi va fahm-farosatsizligiga borib taqaladi.

Xalqimizda «salomiga yarasha alik» degan purma'no maqol bor. Agar quloqlar yengil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o'rganib qolsa, uning didi, musiqa madaniyati o'miga soxta tushunchalar bilan cheklanish hech gap emas. *Mukammal musiqiy bilimga ega bo'lmagan kishi «Shoshmaqom»ni qanday hazm qilishi mumkin?*

«Ommaviy madaniyat»ning zararli ta'siri haqida to'xtalmaslik mumkin emas. Lekin o'zbeklarga yot va begona bo'lgan madaniyatni tanqid qilish bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi. Fikrimizcha, buning uchun yoshlarning qiziqishini hisobga olgan holda, sof insoniy g'oyalar ilgari surilgan asarlar yaratish, boshqacha aytganda, «jahon maydonida yuz

berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'lishimiz kerak».

Axloqiy tarbiyaning vositalari va yo'llari obdon tahlil etilmas ekan, evrilish, taloto'p va bemazagarchiliklar davom etaveradi. Muhtaram Prezidentimizning «farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, qudratli va albatta baxtli bo'lishlari kerak» degan purma'no so'zlaridan anglashiladiki, san'at, madaniyat hamda matbuot tom ma'noda ma'naviy yuksalishga xizmat qilishi va o'zining ijtimoiy vazifasini to'la-to'kis ado etishi lozim.

Axloqiy tarbiya shaxs ma'naviy-ruhiy kamolotining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Axloqiy tarbiya murakkab uzluksiz jarayon bo'lib, «*tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir*».

Axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi ma'naviy-axloqiy barkamol shaxsni shakllantirish bo'lib, bu jarayon axloqiy tamoyil va me'yorlarni har bir kishining faoliyati, xatti-harakatining mazmuni, turmush tarziga aylantirish vazifasi orqali amalga oshiriladi. Shu ma'noda axloqiy tarbiya shaxs axloqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan uzluksiz, tizimli jarayondir.

Axloqiy tarbiya quyidagi tamoyillar orqali amalga oshiriladi:

- a) namunaviylik;
- b) o'z-o'zini tarbiyalash;
- v) uzluksizlik.

Namunaviylik – tarbiyalanuvchiga axloqiy me'yorlarning konkret shaxs faoliyatida qay darajada reallashganligini ibrat qilib ko'rsatishdir. Zero, tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak.

Namunaviylik tamoyili oila va maktabda odob, xulq ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki farzandlar tabiatan taqlidchi bo'ladilar va bunday ko'nikmalarni birinchi galda o'z ota-onalari, ustozlaridan oladilar. Shuning uchun har bir ota-ona, pedagog yoshlarni faqat o'g'it, nasihat berish bilan emas, balki namunaviy xatti-harakat, o'rnak ko'rsatish orqali tarbiyalashini taqozo etadi.

O'z-o'zini tarbiyalash axloqiy tarbiya jarayoni faoliyat sifatida amal qilishning o'ziga xos shakli hisoblanadi. O'z-o'zini tarbiyalash shaxsning o'z-o'zini anglashi, jamiyat ehtiyoji, maqsadi mezonidan turib o'z-o'ziga baho berishi, insonni o'z-o'zini nazorat qilishi asosida kechadigan faoliyat bo'lib, o'zini shaxs sifatida shakllantirishga imkon yaratadi. Shaxsda bunday qobiliyat maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonida shakllanadi.

O'z-o'zini tarbiyalash ijobiy sifatlarni takomillashtirish va salbiy nuqsonlarni tuzatishga qaratilgan ongli va muntazam faoliyatdir. Lekin shaxsda o'zining salbiy xislatlarini idrok etish, anglash, tushunish, illatlarni

yo'q qilishga intilish, yaxshi fazilatlarni rivojlantirish uchun harakat qilish faoliyati o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Buning uchun tarbiyachi yoshlarni talabchanlik va qunt bilan o'z ustilarida ishlashga da'vat etishi, ularning kimga o'xshashi va kimdan ibrat olishiga ko'maklashish zarur. Ammo bu ish buyruq yoki ko'rsatma shaklida emas, fikr-xohish bildirish yoki maslahat tarzida amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tanqid o'z-o'zini tarbiyalash yo'lidir. Boshqalardagi kamchiliklarni tanqid qilish kifoya qilmaydi. O'ziga nisbatan talabchan bo'lmaslik, o'z nuqsonlarini tan olmaslik xudbinlik va axloqiy tubanlikka olib boradi.

O'z-o'zini tarbiyalash yo'lida ijobiy natijaga erishish uchun yoshlarda o'z xulq-atvorini to'g'ri baholash qobiliyatini rivojlantirish, o'zi uchun ma'qul axloqiy ideal tanlash istagini vujudga keltirish lozim. Bu oqilona tarbiya jarayoni va murabbiylarning shaxsiy ta'siri orqali vujudga keladi. Insonda o'z-o'zini tarbiyalash xususiyatlari kichik yoshda boshlanib, yoshi ulg'aygan sari takomillashib boradi. Xususan, o'smirlik davrida taqlidchanlik ancha rivoj topadi. Ijobiy shaxslardan ibrat olgan o'smir o'zidagi manmanlik, ikki yuzlamachilik, bag'ritoshlik, ichkilikbozlik, hattoki o'g'rilik kabi yomon sifatlarni yo'qotishga urinadi.

Salbiy shaxslarga qo'shilib, ularning nojo'ya yo'llaridan borgan o'smir o'zidagi salbiy xatti-harakatni ijobiy faraz qilib, har qanday pastkashlikni mardlik deb, yolg'on va firibgarlikni fazilat deb o'ylaydi, ko'zga ko'rinmaydigan kamchilik oxir-oqibat jinoyat saltanati sari yetaklashini anglamaydi.

O'z-o'zini tarbiyalash jarayoni murakkab bo'lib, *yoshlar hayotiy tajriba va huquqiy bilimdonlik yetishmasligi, shaxsiyatdagi o'jarlik, hech kimning maslahatiga zor emaslik, «aqlsiz donolik» tufayli qiyin holatlarga tushib qoladilar.* Bunday holda ota-ona, pedagog, ustozlar beminnat yordam berishi lozim.

Uzluksizlik axloqiy tarbiyaning muhim tamoyili bo'lib, oila-ijtimoiy muhit-shaxs mushtarakligi ijobiy natijalar beradi. Oilada yaxshi tarbiya ko'rgan, jamiyatda o'z o'rni, hurmat-e'tiborga sazovor bo'lgan, shaxs sifatida o'zida barcha ezgu axloqiy fazilatlarni mujassam etgan inson chinakam baxtiyor insondir.

4-mavzu. Estetika fani predmeti va ahamiyati. Estetik tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari

1. *Estetika – nafosatning mohiyatini o‘rganuvchi fan*
2. *Estetik tafakkurning paydo bo‘lishi, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini o‘rganish – estetika tarixining asosiy maqsadi*
3. *Qadimgi Yunon faylasuflari Suqrot va Aflotunning estetik qarashlari. Arastuning estetik ta‘limoti*
4. *O‘rta asrlar musulmon Sharqi estetikasi*
5. *Amir Temur va temuriylar davri – O‘rta asrlar musulmon Sharqi san‘ati taraqqiyotining oltin davri sifatida*
6. *Evropa ma‘rifatparvarlari estetikasi. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi olmon mumtoz estetikasi*
7. *Eng yangi davr estetikasi*

Inson ma‘naviy olamini aql, ixtiyor, hissiyot tashkil etib, aqlni mantiq, ixtiyorni axloqshunoslik, hissiyotni estetika fani o‘rganadi. Estetika hissiy idrok etish nazariyasi bo‘lib, uni «go‘zallik falsafasi» yoki «san‘at falsafasi» deb ataladi. «Estetika» atamasi buyuk olmon faylasufi Aleksandr Baumgarten (1714-1762) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lsa ham, uning tamal toshlari qadimgi Misr, Yunon va Rim mutafakkirlari tomonidan qo‘yilgan.

Estetikaning asosiy tadqiqot ob‘ekti go‘zallik bo‘lib, bugungi kunda inson o‘zini o‘rab turgan barcha narsa-hodisalarning go‘zal bo‘lishini, har qadamda nafosatni his etishni istaydi. Nafosat, go‘zallikning inson hayotida tutgan o‘rni beqiyosdir. Estetika fani talabalarda go‘zallikdan bahra ola bilish va san‘atni chuqur tushunish ko‘nikmasini shakllantiradi.

San‘at ham estetikaning ob‘ekti sifatida o‘ziga xos olam bo‘lib, hayotni aks ettirar ekan, insonning o‘zini o‘ziga ko‘rsatuvchi ulkan ko‘zgu vazifasini o‘taydi, insonni go‘zallikni sevishga o‘rgatadi, go‘zallikni ardoqlashga da‘vat etadi, inson axloqini go‘zallashtiradi.

Insonning xatti-harakati va o‘y-niyati ko‘pincha ham axloqiylikka, ham nafosatga aloqador bo‘lib, qadimgi faylasuflar axloqiylikni *ichki go‘zallik*, nafosatni esa *tashqi go‘zallik* tarzida talqin etganlar. Arastu fikricha, *ezgulik faqat harakatda, go‘zallik harakatsiz ham namoyon bo‘laveradi, ya‘ni axloqiylik faqat insonning xatti-harakati orqali yuzaga keladi, lekin u harakatsiz ekan, uning yaxshiligini ham, yomonligini ham bilib bo‘lmaydi. Muayayn xatti-harakat sodir qilinganidan keyingina uni baholash mumkin.* Go‘zallik o‘zini harakatsiz ham namoyon etaveradi.

Tarixiy obidalar hech qachon harakat qilmaydi, lekin go'zallik sifatida mavjud, harakatsizligidan uning go'zalligiga putur etmaydi.

Estetika tarixi. Davlatchilik tizimi paydo bo'lishi insonning badiiy-estetik taraqqiyotida yangi davrni boshlab bergan. Uning ibtidosini Mesopotamiya-Qo'sh daryo (Dajla va Frot daryolari) mintaqasida, xususan, Somir davlatida ko'rish mumkin. Somir insoniyat tarixidagi hozirgacha bizga ma'lum bo'lgan ilk qudratli davlat bo'lgan. Mil. av. IV asrda bu davlatning qudrati uning madaniyati, fuqarolarning badiiy estetik ongi hamda badiiy-estetik faoliyatida yaqqol namoyon bo'lgan. Somirliklar birinchi bo'lib yozuvni kashf etganlar va gil taxtachalarga qamish qalamlar bilan ilk qissa va rivoyatlar, pand-nasihatlarni yozib qoldirganlar.

Qadimgi Somir tasviriy san'ati asosan muhrlar, idish-tovoqlardagi rasmlar va rel'eflardagi tasvirlardan iborat. Somirda tosh o'ymakorligining badiiy-estetik tamoyillari ishlab chiqilgan va mustahkamlangan, toshga sayqal berish texnikasi mukammallashgan. Somir muhrlarida qanotli ajdaho ustida turgan erkak va ayol, yetti boshli ajdahoni o'ldirayotgan pahlavon, xayoliy mavjudotlar – qush-odam va odam-arslon ustidan olib borilayotgan sud va boshqa tasvirlar aks etgan. Somir adabiyotining asosiy qismini ohangga, she'riy usullarga boy, bahsga o'xshash, dialog tarzida yaratilgan dostonlar tashkil etadi. Ularda go'zallik tushunchasi foydalilik bilan bog'lashgan: *nimaiki foydali bo'lsa, o'sha go'zaldir.*

Estetik tafakkurning kelib chiqishi asotirlarga (mif) borib taqaladi. Asotirlardagi badiiy ong o'zi haqida, o'zining mavjud borliq go'zalligi bilan bog'liqligi haqida fikr yuritishga intiladi, ya'ni asotir qadimgi tarixda birinchi bor olamni badiiy borliq sifatida taqdim etadi. Somir san'ati va adabiyoti insoniyat tarixidagi dastlabki estetik g'oya va qarashlardan xabardor etadi, ba'zi adabiy janrlarning kelib chiqishi bilan tanishish imkonini beradi.

Misrdagi eng qadimgi badiiy ijod yodgorliklari – qo'lda ishlangan, shakllari va yuzasi notekis sopol idishlar V-IV ming yilliklarga borib taqaladi. Ularning ba'zilar oddiy handasaviy naqsh bilan bezatilgan bo'lsa, ba'zilar murakkab surat va chizmalar bilan bezalgan. *Qadimgi Misr san'ati manfaatli go'zallik asosida vujudga kelgan, ma'budlar uchun qurilgan ibodatxonalar, ma'budlar va o'limidan keyin ma'budga aylangan fir'avn haykallari ulardan shafqat, mo'l hosil, rizq-ro'z so'rash maqsadida bunyod etilgan bo'lsa, xalq amaliy san'ati buYumlari hayotni go'zallashtirish uchun xizmat qilgan.* Qadimgi Misrda me'morlik yuksak taraqqiyotga erishgan. *Masalan, Xufu ehromi o'zining mahobati bilan ajralib turgan. Uning balandligi 146,6 metr, to'rttala tomoni enining uzunligi (asosi) 233 metr. Ehrom deyarli yaxlit tosh inshoot sifatida shunday aniq hisob-*

kitoblar bilan qurilganki, bu qadimgi Misrda matematika fanining yuksak darajadagi rivojidan dalolat beradi. Qadimgi Misr haykaltaroshlik san'ati ham badiiy ijodning durdonasi hisoblanadi. Buning yorqin misoli Sfinks haykalidir. Qadimgi Misr so'z san'ati badiiy puxta va qiziqarli syujetga ega bo'lgan «*Sinuxe qissasi*», «*Shirinsuxan dehqon haqida ertak*», «*Kema halokatiga uchragan kishi haqida ertak*», «*Nefertitining karomati*», «*Aka-uka haqida ertak*» kabi qissa va ertaklarda aks etgan.

Sharq xalqlari estetik tafakkur taraqqiyoti tarixida qadimgi Eronzamin va Turonzamin xalqlari madaniyati katta o'rin tutadi. Ayritom, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Shahrinav, Balx hududida topilgan san'at namunalari bo'lgan haykallar, me'moriy obida qoldiqlari, shuningdek, Persopoldagi Doro saroyi, Choshtepa, Oqtepa, Varaxsha, Afrosiyob yodgorliklari, devoriy suratlar – bularning barchasi Eron va Turonda san'atning qay darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Akademik L.I.Rempel qadimgi Turon xalqlari san'ati haqida: «*O'rta Osiyoning axmoniylargacha bo'lgan va axmoniylik hukmronlik qilgan davrdagi qadimiy madaniyat va san'at o'chog'i sifatidagi o'rni va ahamiyati aniq. Biroq Qadimgi O'rta Osiyo mahalliy madaniyatining eng yuksalgan payti qadimgi davrga to'g'ri keladi. Ellinizm O'rta Osiyo san'atida yangi davrni boshlab berdi... u san'atkorni plastik chizgilar va shakllar musaffoligi dunyosiga yetakladi. Ellinizm ana shu dunyoga tabiatdan olingan uyg'unlikni ato qildi, san'atkorga inson tanasi chiroyini ifodalash uchun vosita baxsh etdi, uni go'zallikni bilish mezoniga aylantirdi*» deb e'tirof etgan.

Qadimgi hind nafosatshunosligi ilk bora «*Veda*» (muqaddas bilim), «*Rigveda*» (alqovlar vedasi)larda aks etgan. «*Rigveda*»da 1028 Sharqiy-alqovlar mavjud. Hozirga qadar Sharqiylarni hind diyorida musiqa jo'rligida ijro etish odat saqlanib qolgan. «*Rigveda*»da nur nafosati alohida o'rin tutadi. Sharqiy-alqovlar muqaddas olov ma'budi Agniga bag'ishlangan. Qadimiy yodgorlikning birinchi alqovi-sharqiysida Agni «*shoirona zakiy, haqiqiy charaqlagan sharaf sohibi*», «*go'zal qiyofali*», «*charaqlagan*» deb ta'riflanadi va go'zallik haqidagi tasavvurlar nur bilan bog'liq tarzda namoyon bo'ladi.

Qadimgi hind falsafiy-estetik tafakkurida upanishada («ustoz atrofida davra olish», «yashirin bilim»)larning ahamiyati beqiyos. Upanishadlar aslida «*Braxman haqidagi ta'limot*» degan ma'noni anglatadi. Braxman so'zining o'zi ko'p ma'noli bo'lib, upanishadlar Braxmanni universum, mavjudlikning yagona ibtidosi, o'z-o'ziga asoslangan, olamdagi bor narsaga va olamning o'ziga tayanch bo'luvchi ilohiy ulug'lik tarzida tushuntiradi. Donishmand uchun Braxman «*intilish ob'ekti*», ma'naviy ideal, har qanday go'zallikdan go'zalroq go'zallikdir. Oliy va pok

Braxmanga yetishish buyuk quvonch, baxt-saodat, hushnudlik bag'ishlaydi, insonni porlab turgan haqiqatni ko'rishga undaydi. Braxmanni bilish insondagi «nur»ni bevosita mushohada etishdir. Bu eng go'zal, eng sirli va eng ilohiy mushohadadir. Upanishadalarda haqiqat nur – ezgulik va oliy go'zallik ramzi tarzida talqin etiladi.

Qadimgi Xitoyda nafosatga doir dastlabki tasavvurlar, g'oya va tushunchalar «*Shu tszin*» («*Tarixlar kitobi*» mil. av. XII asr), «*Shi tzin*» («*Qo'shiqlar kitobi*» mil. av. XI-YI asr), «*I tszi*» («*O'zgarishlar kitobi*» mil. av. VIII-YII asr) kabi asotir-mif va she'riy eposlarda uchraydi. 305 she'riy asarni o'z ichiga olgan xalq og'zaki ijodi mahsuli «*Shi tzin*» («*Qo'shiqlar kitobi*») qadimgi xitoy xalqlari tarixiy, etnografik va boshqa yodgorliklarini yorqin aks ettirgan. Unda san'at turlarining mushtarakligini – so'z san'ati, musiqa san'ati, raqs san'ati ruhi, unsurlarida ko'rish mumkin. «*She'riyat – so'zga aylangan intilish*», qo'shiq uni tovush orqali ifodalaydi, raqs obrazni harakat orqali yetkazadi. Har uchchala tur yurakda ildiz otadi, keyin ularga musiqiy asboblarga ergashadi». Bular so'z san'ati kuy va raqs talablariga bo'ysundirilganini anglatadi.

Qadimgi Xitoy nafosatshunosligida daochilik va konfutsiychilik yo'nalishi alohida ajralib turadi. Daochilik yo'nalishining muhim belgisi fazo (kosmos) va tabiatning azaliy va abadiy go'zalligi jamiyat va inson go'zalligi darajasi esa ana shu borliq go'zalligiga qanchalik o'xshash va yaqin ekanligi bilan belgilanadi. Konfutsiychilik xulqiy go'zallik muammosini o'rta tashlaydi, axloqiy-estetik ideal uning eng muhim belgisi sanaladi. Lao Tzi (mil. av. VI-V asr.) «*uyg'unlik*»ni «*tinchlik*», «*kelishuv*», «*yumshoqlik*», «*kelishtirish*» ma'nosida, «*me'yor*»ni yetarlilik ma'nosida qo'llaydi. Chjuan Tzu (mil. av. IY-III asr) uyg'unlikning ta'sir doirasini kengaytiradi, uyg'unlik nafaqat ibtidoni vujudga keltiruvchi hodisa, balki butun kosmosning asosi, olamning bir butun yaxlitligini tashkil etgan unsur va qismlarning uyg'unlashuvi tarzida tushuntiradi.

Chjuan Tzu fikricha, anglash badiiy shaklda ro'y beradi, ya'ni koinot – har bir parchasi alohida ohang chiqaruvchi va birgalikda hamroz kuyni tashkil etuvchi musiqa asbobi – nay kabidir. Chjuan Tzu go'zallikni tabiatga uyg'un va mukammal yaxlitlik tarzidagi munosabat bilan bog'lagan holda, asl go'zallik bo'lib tuyulgan hodisalarni farqlaydi: «*Osmon va Yer buyuk go'zallikka ega*».

Konfutsiy (mil. av. 551-479 y.) qo'shiq va musiqadagi ezgu fikrni qadrlaydi. Konfutsiy «go'zal» tushunchasini «ezgu» so'zining sinonimi tarzida qo'llagan. Uning fikricha, «eng go'zal va ezgu musiqa – mo'tadil musiqadir». Konfutsiy hamma narsada, xususan, musiqa va qo'shiqda ham mo'tadillikni yoqlaydi.

Qadimgi yunon mumtoz nafosatshunosligi uch buyuk siymo Suqrot, Aflotun va Arastuning estetik qarashlari bilan ahamiyatlidir. Suqrot (mil. av. 469-399 y.) jahon falsafasida birinchi bo'lib antropologik yondoshuvga asos solgan. *Suqrot axloqshunoslik va estetikaning, axloq va go'zallikning uzviy aloqasini e'tirof etgan. Uning ideali ma'nan va jisman go'zal insondir. Suqrot insonni san'atning asosiy obekti sifatida olib qaragan, san'atning estetik va axloqiy me'zonlari masalasini o'rtaga tashlagan hamda ular orqali ijodiy jarayonni ochib berishga uringan.* Suqrot fikricha, san'at taqlid orqali hayotni aks ettirishdir. Lekin taqlid aslo nusxa ko'chirish emas. San'atkor inson, tabiat, voqelikni umumlashtirish orqali qaytadan jonlantirishi, ya'ni haykal ham «qalb holati», inson ruhiy-ma'naviy qiyofasini aks ettirishi kerak.

Aflotunning (mil. av. 427-347 y.) nafosat borasidagi fikr-mulohazalari asosan «*Ion*», «*Fedr*», «*Bazm*», «*Qonunlar*», «*Davlat*» kabi asarlarida o'z ifodasini topgan. Aflotun haqiqiy go'zallik sifatida Xudoni nazarda tutgan. Aflotunning fikricha, *asl go'zallik his etilguvchi narsalar dunyosida bo'lmaydi, u g'oyalar olamiga, haqiqiy borliqqa taalluqli. Unga hissiyotlar yordamida yetish mumkin emas, faqat aql orqaligina uni anglash mumkin, u o'zgarmas, zamon va makondan tashqarida.* Aflotun san'atkorni o'ziga xos nusxa ko'chiruvchi taqlidchi sifatida talqin etadi, ya'ni san'atkor his etiladigan narsalar olamini aks ettiradi, bu olam g'oyalar nusxasidir. Demak, san'at asari nusxadan olingan nusxa, taqlidga taqlid, soyaning soyasi. Shu bois, in'ikosning in'ikosi sifatida san'at *birinchidan, bilish quoli bo'la olmaydi, aksincha, u aldamchi, ro'yo, asl olamning mohiyatiga yetib borish yo'lidagi to'siq. Ikkinchidan, san'at axloqqa nisbatan betaraf turadi, hatto axloqning buzilishiga sabab bo'lishi ham mumkin. Uchinchidan, tomoshabinni ma'naviy Yuksaklikka emas, balki ruhiy kasallikka olib keladi. Chunki u his etiluvchi narsalar olamini turli vositalar orqali aks ettirar ekan, ko'p hollarda go'zallikka taalluqli bo'lmagan, xunuklik, sharmandalik va behayolikni ham tasvirlaydi. Shu sababli ideal davlatdan san'atning o'rin olishi shart emas. Lekin ma'budlarga alqovlar, mardlik, vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otadigan go'shiqlar bundan mustasno. Aflotun fikricha, san'atning asl manbai bilimda emas, ilhomdadir.*

Arastu (mil. av. 384-322 y.) «*Xitob*» («*Ritorika*»), «*Siyosat*» («*Politika*»), «*She'riyat san'ati*» («*Poetika*») asarlarida go'zallik muammosini tadqiq etgan. Arastu go'zallikni tartib, mutanosiblik va aniqlikda, miqdorning cheklanganligida ko'radi. «*Jonsiz narsalar kabi jonli mavjudotlar ham hajman oson ilg'ab olinadigan bo'lishlari kerak. Shunga o'xshash fabula (voqeaning izchil bayoni) ham oson esda qoladigan*

cho'ziqlikka ega bo'lishi shart». Arastu go'zallikning eng muhim belgisini uzviy yaxlitlik deb ataydi. Yaxlitlik ibtido, markaz va intihodan iborat bo'ladi. Arastu go'zallik va ezgulik tushunchalarini farqlab, ezgulik faqat harakat orqali, go'zallik harakatsiz ham voqe bo'ladi, degan fikrni o'rtaga tashlaydi. San'at asari tabiat asari kabi shakl va materiya (modda) birligidan iborat. San'atkor ongida Oliy Aqlda mavjud bo'lgan narsalardan boshqa biror narsaning mavjud bo'lishi mumkin emas. Zero, tabiat va inson faoliyatining manbai Oliy Aqldagi g'oyalar yig'indisidir. Ular yoki «tabiatdagi» jarayon, yoki «san'at» orqali o'zligini namoyon qiladi. San'at – tabiat o'z maqsadini amalga oshiradigan shakllardan biri, lekin eng etuk, mukammal shakli. San'at tabiat oxiriga yetkaza olmagan narsani oxiriga yetkazadi. Chunki bunda unga insoniy tafakkur, aql-idrok ko'maklashadi. Arastu fikricha, san'at tabiatga taqlid qiladi, ya'ni san'at tabiatning faoliyat usulini aks ettiradi. Taqlid natijasida, san'at tabiatga o'xshab organizm yaratadi. Mazkur organizm yaratgan san'atkor faoliyati san'at qonun-qoidalariga bo'ysunadi, u haqiqiy aql-idrokka e'tiqod qiluvchi «ijodiy odatdir». San'atning taqlid obekti kishilarning xatti-harakati, axloqiy tabiati (fazilat va illatlar) aks etadigan qilmishlaridir.

Qadimgi yunon faylasufi va matematigi Pifagor birinchi bo'lib «forig'lanish» («katarsis») tushunchasini mohiyatan diniy ma'noda qo'llagan bo'lsa, Arastu uni san'atga nisbatan ishlatadi. Arastu talqiniga ko'ra, forig'lanish – san'at o'z oldiga qo'ygan maqsad, xususan, fojining (tragediyaning) maqsadi. U mohiyatan qo'rquv yoki achinish tufayli inson qalbini salbiy hissiyotlardan forig'lantiradi. Natijada inson, bir tomondan, taqdir ko'rguliklarini xotirjamlik bilan qarshi olsa, ikkinchi tomondan, inson qalbida baxtsizlik girdobiga tushgan kishilarga hamdardlik, achinish hissi paydo bo'ladi. San'at insonni oliyjanob qiladi, forig'lanish vositasida san'at insonni ma'naviy-axloqiy yuksaltiradi.

Qadimgi dunyo mumtoz nafosatshunosligida qadimgi Rim mutafakkirlarining alohida o'rni bor. Jumladan, Tit Lukretsiy Kar (mil. av. 99-55 y.), Kvint Goratsiy (mil. av. 165-8 y.)ning estetik qarashlari diqqatga sazovordir. Tit Lukretsiy Kar «Narsalarning tabiati» asarida san'atning kelib chiqishini tabiatga taqlid deb izohlaydi, ya'ni san'at kishilarning real ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Uning fikricha, san'at faqat lazzat, zavq-shavq, orom berish bilan cheklanmay, foydalilik xususiyatiga ham ega bo'lib, narsalar tabiati haqida bilim beradi.

Qadimgi Rim shoiri Goratsiy fikricha, *shoir uchun eng muhimi izchillik, yaxlitlik, birlik, keng qamrovlilikdir. Asarda mazmun hal qiluvchi ahamiyatga egadir.* Goratsiy shoirdan, avvalo, falsafiy tafakkur egasi bo'lishni, ikkinchidan samimiyatni talab qiladi. Goratsiy she'riyatga ta'rif

berib, asosiy diqqatni fojiaga (tragediya) qaratadi. Rangtasvirning she'riyat bilan o'xshashligini alohida ta'kidlab, har qanday nomutanosiblik, uyg'unlikning buzilishi, soxtalikni qoralaydi.

O'rta asrlar Sharq nafasatshunosligi umumjahon dinlarining vujudga kelishi va mustahkamlanishi bilan muhim o'rin egallaydi. Insoniyatning nisbatan afkor qismi bu davrda tavhidni anglab etdi. Natijada dunyoning juda katta qismida – Osiyo, Evropa va Afrika qit'asidada uch din hukmronlik mavqeini egalladi. Arabiston, Eron va Turon mintaqalarida musulmonlik, hindi-xitoy mintaqasida buddaviylik, Evropada nasroniylik jahon dinlari sifatida maydonga chiqdi. *Jahon dinlari san'at bilan hamkorlik qildi va ana shu hamkorlik mahsuli bo'lgan asarlar – diniy-badiiy asar deb ataldi.* Diniy-badiiy asarlarda qo'llanilgan ramzlar o'z mazmuniga emas, butunlay boshqa mazmunni anglatadigan shakl, o'z mohiyatini emas, butunlay boshqa mohiyatni ifodalaydigan hodisa, qisqasi, butunlay boshqa botinni ifodalovchi zohirdir. Shu bois ham u sirli, yashirin hodisa. Uni muayyan bilimga ega bo'lmay turib anglash mumkin emas. *Jumladan, nur, olov – Allohning mohiyati, doimiy yorug'lik sochuvchi va shu bilan mavjudotga jon baxsh etuvchi abadiy hamda mutlaq ziyoning ramzi. Yoki xristian havoriylari boshidagi nurli gardish (nimba) ularning avliyoligi, Allohga yaqinligini anglatadi. Yoki musulmon me'morchiligidagi gumbaz - Alloh jamoli, go'zalligi, minora Alloh kuch-qudrati, peshtoqdagi oyatlar – Alloh sifatlarining ramzi hisoblanadi. Buddachilikda g'ildirak yoki olovli doira Budda ta'limotining, ba'zan Buddaning o'zini anglatadi. Ma'lumki, diniy marosim va ibodatlarda inson qalbida forig'lanish, poklanish ro'y beradi. Inson kundalik tashvish, g'azab, gina kabi maydakashliklardan forig' bo'ladi, ular o'rnini ezgu orzular va yaxshi amal qilish fikri egallaydi.* Diniy-badiiy asarni estetik idrok etish jarayonida ham shunday holat ro'y beradi. Lekin bu forig'lanish ibodatga nisbatan uzoq davom etadi, hatto diniy-badiiy asar ta'siri bir necha kungacha cho'zilishi mumkin. Diniy forig'lanishni qalbda tutib turish uchun ibodatlar (namoz, zikr, tasbeh) takrorlanadi.

Abu Nasr al-Forobiy (873-950)ning qarashlarida ezgulik va go'zallik ma'lum ma'noda aynanlashtirilib, biri ikkinchisidan yashovchi hodisalar sifatida talqin etilgan. Mutafakkir *go'zallikka yetishish falsafa tufayli ro'y beradi,* deb hisoblaydi. Har bir narsa-hodisaning go'zalligi uning o'z borlig'ini to'la namoyon etishi va mukammalligidadir. Forobiy insondagi ichki va tashqi go'zallikni farqlaydi va ichki go'zallikni tashqi go'zallikdan Yuqori qo'yadi. Ichki go'zallikni «*boyning boyligini bezab, kambag'alning kambag'alligini yashiradigan*» «*adab*» deb ataydi. Bunday go'zallik Yuksak axloqiy xatti-harakatlar va insoniy komillikda namoyon bo'ladi.

Tashqi go'zallikka kelganda, faylasuf tabiiy go'zallikni har qanday bezanish, yasanishlardan Yuqori qo'yadi. *Forobiy qobiliyat tug'ma bo'lishini alohida ta'kidlaydi: «... shoirlar chindan tug'ma qobiliyatli va she'r bitishga tayyor tabiatli kishilar bo'ladi...» Ayni paytda faylasuf birgina iste'dod bilan etuk shoir bo'lish mumkin emasligini ta'kidlaydi. Forobiy fikricha, «shoirlarning she'r ijod qilish borasidagi ahvoli kamolotga yetishgani va yetishmaganidan turlicha bo'ladi».*

Ibn Sino (980-1037) musiqadan olinadigan lazzat musiqiy uyg'unlikning makonda yoyilishidan, pardalarning navbatma-navbat kelishidan, deb hisoblagan. Uning fikricha, musiqada gap tovushning o'zida emas, balki uni qanday chiqarish muhim ekanida, ya'ni bizda yoqimli yoki yoqimsiz sezgini tovushning o'zi emas, balki uni paydo qilish usuli uyg'otadi. *Ibn Sino musiqaning kelib chiqishini inson nutqining boyligi bilan bog'laydi: xushomad qilayotganda ovoz pasayadi, mag'rur so'zlayotganda qat'iy jaranglaydi. Musiqa inson kayfiyatiga taqliddir. Alloma go'zallik borasida Forobiy izidan borib, jismoniy go'zallik bevosita qalb go'zalligi bilan belgilanishi, muhabbat asosida go'zallik yotishi, «aslida muhabbat go'zallikni ma'qullash ekanini» e'tirof etgan.*

O'rta asrlar Sharq nafosatshunosligi tarixida tasavvuf falsafasining asoschisi, ilohiyotchi olim Abu Homid G'azzoliy (1058-1111)ning o'ziga xos o'rni bor. Imom G'azzoliy nafosat borasidagi qarashlarida o'simlik, hayvon hamda insonning tashqi muhitga munosabati, ularda did, nafosat hissining bor-yo'qligi muammolariga, shaxsning go'zallikka munosabati, uning komil insonga aylanishi, nisbiy va mutlaq go'zallik, ibodat bilan san'atning farqi kabi masalalarni tahlil etgan. G'azzoliy ibodat bilan san'atning farqini izohlab, zikr va raqsning mohiyati, farqli va o'xshash jihatlarini tahlil etgan. Uning fikricha, musiqani, o'yin-kulgini Qur'on tilovatiga aralastirmaslik, qiroatni qo'shiq yoki she'r bilan chalkastirmaslik lozim. *G'azzoliy inson fitratida san'atga intilish borligi, san'atsiz inson hayoti mukammal bo'lishi mumkin emasligini qayd etgan.*

Temuriylar davri ilm-fan va san'at taraqqiyotining oltin davri hisoblanadi. Bu davr nafosatshunosligida buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning o'rni o'ziga xos. Navoiy ichki va tashqi go'zallik g'oyasini ilgari suradi. «Xamsa»dagi bosh qahramonlar ana shunday komil go'zallik egalari. Navoiy insondagi go'zallikni uning ichki go'zalligi –axloqida ko'radi. *Navoiy so'zga alohida e'tibor beradi, so'zni «ko'ngil qutisi ichidagini gavhar, falak jismining joni» deb ulug'laydi. Navoiy badiiy asarning faqat go'zallikni kuylash bilan cheklanmasdan, o'zi ham shaklan go'zal bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.*

Temuriylar davri musulmon Sharqida musiqa amaliyoti va musiqa nazariyasiga katta e'tibor berilgan. Hirotida «Nigoriston» miniatyura maktabi faoliyat olib borgan. Uning yetakchi rassomi Kamoliddin Behzod Sharq Rafaeli nomini olgan.

Tasavvuf buuk romantik olam bo'lib, unda butun Borliq Allohning ijodi deb qaraladi. Dunyoni Allohning ko'zgusi, barcha go'zallik, qudrat Allohdan deb hisoblanadi. Borliq romantik ranglarda, shoirona xayoliy surat-timsollar tarzida, ilohiy nurning porlashidan doimiy harakatda va ijodda deb tasavvur etiladi, ya'ni jami go'zalliklar, yaxshiliklar, ezguliklar manbai Mutlaq, Iloh. Qudrat va kuch, harakat va faoliyat ham Undan. Dunyodagi jami husnu jamol – Uning jamolining aksi. Inson go'zalligi Uning jamolining jilvasi, bu Jamol olamda qancha ko'p jilo etgan bo'lsa, u shuncha go'zal bo'la oladi. *Inson ruhining go'zallikka, nafasatga tashnaligi Alloh go'zalligiga tashnalik oqibatidir. Bular orasida moddiy go'zallik va ma'naviy go'zallik, g'oya va fikr go'zalligi ham alohida e'tiborga olinadi.*

G'azzoliyning manfaatsiz, oltinchi sezgi vositasida his etiladigan go'zallik haqidagi qarashlari o'ziga xos bo'lib, uning fikricha, go'zallik go'zallikni anglab etgan odam uchungina muhabbat obektidir. Go'zallikni anglashning o'zi yoqimli. Inson uchun o'simlik, daraxt, Sharqirab oqayotgan suv ularni faqat eyish va ichish mumkinligi uchun emas, balki, bor-yo'g'i ularni ko'rib, zavqlanishi sababli muhabbat obektidir. Faqat o'z kamolotining barcha qirralariga to'liq ega bo'lgan narsa oliy darajadagi go'zallikdir. Bunday komillik faqat Allohga xosdir. Alloh go'zaldir va U go'zallikni sevadi. Go'zallik ideali, qudrat ideali, poklik ideali, abadiylik ideali – jami ideallar ideali Uning O'zi. Hayrat ham Undan, g'ayrat va shijoat ham, hayot nafasati ham Undan, go'zallik ham Undandir.

Yangi davr nafasatshunosligi. O'rta asrlarda cherkov hukmronligi tafakkur erkinligini bo'g'ib tashlagach, Evropa zulmat uyqusiga cho'mdi. XI-XIII asrlarda musulmon olami erishgan ma'naviy yuksaklik arab va suryoniy tillarga tarjima qilingan qadimgi yunon mutafakkirlarining asarlari Evropaga kirib keldi va Evropada Uyg'onish davri boshlandi.

Olmon mumtoz nafasatshunosligi ibtidosida buyuk faylasuf Immanuel Kant (1724-1804) «Go'zallik va ulug'vorlik tuyg'ulari ustidan kuzatishlar» (1764), «Sof aqlning tanqidi» (1781), «Amaliy aqlning tanqidi» (1788), «Muhokama qobiliyatining tanqidi» (1796) kabi asarlarida estetika muammolarini tahlil etgan.

Kant fikricha, estetik hissiyot manfaatsiz, beg'araz, narsa-hodisaga bevosita maftunlikka borib taqaladi. Maftunlikning, muhabbatning ob'ekti esa shakldan boshqa narsa emas. Go'zallik hammaga hech bir manfaatsiz,

shundayligicha, o'zining sof shakli bilan yoqishi zarur bo'lmagan narsa-hodisadir.

Mutafakkir ulug'vorlikni matematik va dinamik ulug'vorlikka ajratadi. Go'zallikdan olinadigan lazzat sifatning, ulug'vorlikdan olinadigan lazzat miqdorning namoyon bo'lishi bilan bog'liq. Haqiqiy ulug'vorlik – aql, insonning axloqiy tabiati, hissiy anglash chegarasidan narigi tomondagi nimagadir intilishi. Kant fikricha, haqiqiy ulug'vorlik muhokama qilinayotgan kishining qalbida yashiringandir.

Olmon shoiri va dramaturgi Shiller (1759-1805) shakl va mazmun masalasini o'ziga xos talqin etadi. Uning fikricha, *«hissiy go'zallik ma'naviylikka, ma'naviylik esa moddiylikka olib boradi. Go'zallik zo'riqqan insonda uyg'unlikni tiklaydi, bo'shshagan odamda esa faollik uyg'otadi. Shakl insonga bog'lanishiga, mazmun uning muayyan qilishiga ta'sir o'tkazadi. Go'zallik insonning oqillashuvi yo'lidagi zaruriy shartdir. Faoliyatning boshqa barcha turlari insonning alohida-alohida kuchlarini rivojlantiradi, faqat go'zallik uni bir butun yaxlitlik sifatida shakllantiradi».*

Fridrix Shelling (1775-1857) *«Tasviriy san'atning tabiatga munosabati»*, *«San'at falsafasi»* asarlarida estetika muammolarini tahlil etgan. Uning fikricha, san'at asarining o'ziga xos belgisi *«anglanmaganlikning cheksizligi»*dir. San'atkor o'z tabiatidan kelib chiqib ijod etar ekan, badiiy asar u aytishni xohlagandan ortiq narsani o'z ichiga oladi. San'atkor o'z asariga asar g'oyasiga kirmagan yana *«qandaydir cheksizlik»*ni ixtiyorsiz ravishda singdiradi. Bu cheksizlikni *«cheklangan aql»* qamrab ololmaydi. Ana shu anglanmaganlikning cheksizligidan Shelling go'zallik tushunchasini keltirib chiqaradi: *go'zallik cheksizlikning cheklanganlikdagi ifodasidir. Go'zallik san'atning asosiy xususiyati bo'lib, go'zalliksiz san'atning mavjud bo'lishi mumkin emas.* San'atkor a'lo hissiy go'zallik g'oyasini anglashni shu g'oyani sezilarli qiluvchi narsa bilan biriktiradi. Dahoning vazifasi olam uyg'unligida Allohda oliy go'zallikni ko'ra bilishdir.

Shelling san'atni real va idealga ajratadi. Real san'atga musiqa, me'morchilik, rangtasvir, haykaltaroshlik, ideal san'atga adabiyot kiradi. So'z san'ati – ideal san'at. She'riyat san'at mohiyatini ifodalovchi san'at turidir. Lirikada cheksizlik cheklanganlikda, eposda cheklanganlik cheksizlikda yuzaga chiqsa, drama cheklanganlik va cheksizlik, reallik va ideallikning sintezidir.

Gegel (1770-1831) fikricha, *o'zini to'liq erkinlikda mushohada qiluvchi ruh san'at bo'lib, o'zini ixlos sifatida namoyon qiluvchi ruh dindir, o'z mohiyatini tushunchalar orqali fikrlab, uni biluvchi ruh falsafadir.*

San'at, din va falsafaning mazmuni bitta, ular o'rtasidagi farq faqat o'sha mazmunni ochish va anglab yetishda. G'oyaning o'z-o'zini ochishning birinchi va eng nomukammal shakli estetik bilish yoxud san'atdir. Uning maqsadi mutlaq ruhning hissiy tasvirini berish. San'at, axloq, davlat tuzumi, boshqarish shakli kabilarning hammasi bitta umumiy ildizga borib taqaladi. Gegel uni zamon ruhi deb ataydi.

Shopengauer (1788-1860) «*Olam ixtiyor va tasavvur sifatida*» asarida san'at bilan fanni bir-biriga solishtirib, san'atni *narsalarni asoslanish qonunidan mustaqil tarzda «mushohada qilish turi»* deb ataydi. Estetik mushohada ob'ekti alohida narsa emas, balki asoslanish qonuni harakati ostidan olingan g'oya afltuncha ma'nodagi g'oya. Uni aql bilan emas, fahm (intuitsiya) yordamida payqash mumkin. San'atning fandan ustunligi ham ana shunda. Shopengauer fikricha, «*har qanday san'atning asl maqsadi go'zallik, to bizga taalluqli emas ekan, hamma narsa go'zal... Hayot hech qachon go'zal bo'lmaydi, faqat san'at ko'zgusi tozalagan hayot manzaralarigina go'zal*». Qaysi san'at turi «hayot haqiqati», ya'ni ixtiyor mohiyatini ochib bersa, o'shanning darajasi yuksak.

San'at turlari ichida musiqa yuksak turadi, chunki hamma san'at turlari g'oyani ixtiyorning ob'ektivlashgan holatini aks ettirsa, musiqa ixtiyorning o'zini ifodalaydi. Musiqa g'oyalardan mustasno, hodisalar dunyosini butkul inkor etgan holda, hatto, dunyo umuman mavjud bo'lmasa ham, qay darajada yashashi mumkin.

Fridrix Nits'she (1844-1900) «*Fojianing urug'lanishi*» risolasida Suqrot dan to Shopengauergacha bo'lgan estetikani «qayta baholab» chiqadi. Nits'she «*go'zallik Allohning haqiqati*» degan fikrni rad etib, go'zallikni Alloh-san'atkor tomonidan yaratilgan illyuziya-xayolot deb ataydi. Haqiqat (aql) bilan go'zallik, uning nazdida, tenglashtirib va sig'ishtirib bo'lmaydigan bir-biriga zid tushunchalardir.

Inson estetik mushohada paytida begona hayajon, begona iztirob va quvonchni xuddi o'zinikidek qabul qiladi, biror roman yoki fojia qahramoniga hamdardlik hissini tuyadi, chunki u har bir individda ro'y beradigan iztirob va quvonch, bir xil mohiyat, olamiy hayotning yagona manbaini ko'radi.

Fojia insonga beradigan lazzatning siri ana shunda. Fojia qahramonning o'limi bilan tugasa ham, inson undan ko'nikish va yupanchning quvonchli hissini tuyadi, nimaiki qahramonda o'lgan bo'lsa, o'zida yashashda davom etayotganini anglaydi, o'lim ustidan tinimsiz g'alaba qilayotgan, bir individ halokatidan so'ng boshqasida yangilanadigan, qayta tug'iladigan abadiy hayotni his etadi. Fojia insonni

shaxsiyatdan, barcha o'tkinchi va cheklangan narsalardan Yuksaklikka ko'taradi, o'lim qo'rquvini yengishga kuch-quvvat beradi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rus mumtoz falsafiy tafakkuriga V.Solovyov (1853-1900) katta hissa qo'shdi. U go'zallikni o'zining ziddidan, ya'ni xunuklikdan (go'zal insoniy vujud xunuk embriondan vujudga kelganidek) bir-biriga qarama-qarshi ikki ibtido – modda va nurning o'zaro biriktiruvidan tug'iladi deydi. Qayerda modda nurafshon bo'lsa, o'sha yerda go'zallik hodisasi uchraydi. Uning fikricha, modda va nurning uzviy omuxtaligi – hayotdir. Qayerda hayotning ichki to'laqonligiga erishilsa, o'sha yerda tabiat o'zining bor go'zalligi bilan namoyon bo'ladi.

Nur va hayot – tabiatdagi estetik mazmuni baholashning ikki asosiy mezonidir. Lev Tolstoy ham «*san'at inson qudratining eng oliy darajadagi in'ikosidir. U kamdan-kam, sara olamga bir ato etiladi va odamni shunday yuksaklikka ko'taradiki, unda bosh aylanib, sog'lom holatni saqlab turishi mahol bo'lib qoladi*» deb ta'kidlagan.

San'at komil go'zallikdan bevosita va bilvosita ogoh etadi. Bevosita ogoh etish musiqa va lirik she'riyat orqali ifodalansa, bilvosita ogoh etish tabiiy go'zallikni kuchaytirish, ideallashtirish (me'morlik, rangtasvirli manzaralar) hamda ideal va voqelikning mos kelmasligi (qahramonlik eposi, fojia, kulgi orqali ifodalanadi).

Rus nafasatshunosligi rivojiga F.Dostoevskiy, L.N.Tolstoy, I.S.Turgenev, A.Fet, A.P.Chexov kabi buyuk yozuvchi va shoirlar salmoqli hissa qo'shganlar. Jumladan, Lev Tolstoy san'atda g'oyasizlikni inkor etadi, shakl va mazmun yaxlitligini tan oladi, mazmuni asosiy hodisa sifatida talqin etgan holda, badiiy shaklsiz san'at asarining bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlaydi.

XX asr nafasatshunosligidagi o'ziga xos yo'nalishlardan biri ekzistensiyachilikdir. Jan Pol Sartr nafasatshunosligi amaliy tabiatga ega. Sartr fikricha, asl san'at asari ijodkor va san'atni idrok etuvchi kishining harakati bilan yuzaga keladi, o'zgalar uchun yaratiladi, o'zgalar uchun mavjud bo'lish imkoniga ega.

XX asr falsafiy-estetik tafakkuri benihoya boy va rang-barang. Yaspers, Xaydegger, Kamyu, Marsel, Mariten, Ortega Gasset Xuyzinga, Dyufren, Jilson kabi buyuk mutafakkirlar o'z qarashlarini ilmiy asoslab berganlar.

5-mavzu. Estetikaning asosiy tushunchalari

1. *Nafosat – estetikaning mezoniy tushunchasi*
2. *Go‘zallik tushunchasi. Go‘zallik va xunuklik*
3. *Ulug‘vorlik tushunchasi. Ulug‘vorlik va tubanlik*
4. *Fojiaviylik tushunchasi. Fojiaviylikning san’atda namoyon bo‘lishi. Fojiaviy ziddiyat va fojiaviy qahramon*
5. *Kulgililik mezoniy tushunchasi. Kulgining inson hayotidagi o‘rni*

Nafosat estetikaning keng qamrovli mushtarak mezoniy tushunchasidir. Muayyan shart-sharoitda har qanday narsa, voqea-hodisa nafosatli tabiatga ega bo‘lib, nafosatli munosabat va nafosatli baho ob‘ekti hisoblanadi. Buning uchun u birinchidan, aniq his-tuyg‘u, sezgi-idrok qobiliyati va imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, u yoki bu voqea-hodisa insoniy aloqalar va munosabatlarga kirishib, ijtimoiy ahamiyat kasb etib, nafosatli munosabat ob‘ektiga aylanadi, ya‘ni o‘z qadrini topadi.

Nafosatli baholash voqea-hodisa qadri yoki ijtimoiy ahamiyatini anglash bo‘lib, insonning voqelikka nafosatli munosabati voqelikka baho berishning alohida turi, voqea-hodisalarni nafosatli qadrlash usuli hisoblanadi. Nafosatli munosabat – sub‘ekt bilan ob‘ekt o‘rtasidagi o‘ziga xos aloqalar turi bilan tavsiflanadi. Nafosatli munosabatning natijasi nafosatli baholash mohiyati, narsa-buyumlarda ifodalanadi. *Masalan, kursi yoki xontaxtani nafosatli baholash – uning shakli bo‘lgan material, uni qayta ishlash, taraf va qismlari mutanosibligini uning amaliy o‘rni, ya‘ni nimaga mo‘ljallanganligiga qiyos qilishdir. Ovqatga nafosatli munosabat uning shakl va mazmuni mutanosibligida o‘z ifodasini topadi. Yoki insonga nafosatli munosabatda bo‘lish ham inson shaxsi ma‘naviy mazmunining inson xatti-harakatlari va xulq-atvori shakliga mutanosiblikda ifodalanadi.*

Nafosat – ma‘naviy-ruhiy hodisalar majmui bo‘lib, ijtimoiy hayot zaminida vujudga keladigan nafosatli his, did, fikr, orzu, qarash, nazariya tizimini anglatadi. Nafosatli ong ijtimoiy hayot zaminida o‘zgarib, rivojlanib, takomillashib boradi. Nafosatli anglash ijtimoiy hayot in‘ikosi bo‘lib, jamiyat hayotiga har tomonlama ta’sir o‘tkazadi. Nafosatli anglash nafosatli faoliyat bilan uzviy bog‘liq holda nafosatli faoliyat jarayonida shakllanadi va qaror topadi. Nafosatli ong bevosita nafosatli faoliyat mahsulidir. Nafosatli ong badiiy ong bilan chambarchas bog‘liq. Nafosatli ong voqelikni butun borlig‘icha idrok etib, qayta ishlash jarayonida vujudga kelsa, badiiy ong san’atni yaratish va idrok etish jarayonida namoyon bo‘ladi. Badiiy ong badiiy asarlar tizimida ifodalansa, nafosatli ongning aks etish ko‘lami ancha keng bo‘lib, mehnat, ijodiy faoliyat, moddiy va

ma'naviy qadriyatlarda ifodasini topadi. Nafosatli ongning turg'un va uyg'un qismlari – nafosatli his, orzu, qarash va nazariyalardir.

His-tuyg'u inson ongining ajralmas qismi bo'lib, nafosatli ongning asosiy qatlami, poydevori hisoblanadi. Nafosatli his-tuyg'u murakkab ijtimoiy hodisa sifatida nafosat, kuy, ohang, shakl, uyg'unlik, moslik, mutanosiblik, kabi tushunchalar bilan birga shodlik, hayratlanish, ajablanish, rohatlanish, lazzatlanish, ehtirom, shavq-zavq, nafrat kabi tushunchalarni ham qamrab oladi. Nafosatli his-tuyg'u shakli, namoyon bo'lishi va amal qilish jihatidan sub'ektiv tabiatga ega.

Nafosatli his-tuyg'u nafosatli didni tarbiyalaydi. Nafosatli did orqali insonning fikr-mulohazalari, xulq-atvori, xatti-harakatlari moddiy va ma'naviy ijodkorligi namoyon bo'ladi. Nafosatli did kishilar dunyoqarashi, ayniqsa, nafosatli qarashi orqali namoyon bo'ladi. Uning zaminida go'zallikni xunuklikdan ajratish, beg'araz shodlanish, lazzatlanish qobiliyati yotadi. Nafosatli did his-tuyg'u bilan bog'liq, ya'ni hayot go'zalliklari va fojialarini his eta bilish, fojiali to'qnashuvlarni farqlay olish qobiliyati orqali namoyon bo'ladi. Nafosatli ong tarkibidan joy olgan estetik orzu (ideal) voqelik bag'rida yotgan imkoniyatlarning ma'naviy-ruhiy in'ikosidir. Nafosatli orzu har bir insonga xos bo'lib, shaxs ma'naviy dunyosining tarkibiy qismidir. Nafosatli orzu insonning ichki e'tiqodiga aylansa, uning xatti-harakati, badiiy faoliyatida ifodasini topadi.

Nafosatli qarash va nazariya nafosatli his-tuyg'u hamda nafosatli diddan keyingi o'rinda turib, voqelikning nafosatli tomonlarini his-tuyg'u yordamida idrok etish, ularni anglashdan oldin sodir bo'ladi. *Nafosat, olijanoblik, fojia, kulgi, san'atning mohiyati va boshqa masalalarni qamrab olgan nafosatli qarashlar va nazariyalar nafosatli ongning barcha jihatlariga ta'sir o'tkazadi.* Nafosatli his-tuyg'u, did, orzu nafosatli qarash va nazariyaga bog'liq bo'ladi. Nafosatli ehtiyojlar insonning eng oliy talab-ehtiyojlari bo'lib, barcha moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qamrab olgan. *Zero, dunyoda mavjudotlarning eng aqllisi inson ekan, go'zalliklarni teran anglash ham insonga xosdir. Shu bois inson hamisha go'zallikka tashna bo'lib yashaydi. Nafosatli ehtiyoj mohiyati ana shular bilan izohlanadi.*

Nafosatli faoliyat inson moddiy yoki ma'naviy faoliyatining o'zagi, mag'zi bo'lib, uning barcha shakllari inson kuch-qudrati mohiyatining erkin ifodasi bo'lib, nafosatli mazmun kasb etadi. Nafosatli faoliyat nisbatan badiiy faoliyatda, ya'ni san'atda eng «toza» holda ko'rinadi. Nafosatli faoliyat moddiy ishlab chiqarishning barcha sohalarini mehnat sharoitlarini ham, mehnat samaralarini ham qamrab oladi. Dizayn moddiy ishlab chiqarish muhitini nafosatli qayta qurishga, uni insonning manfaatlari va ehtiyojariga mos keltirishga xizmat qiladi. Dizayn san'atdan bahra oladi.

Faraz, fahm-farosat, ehtiros-ilhom nafosatli tavsifga ega bo'lib, ular eng «toza» va rivojlangan ko'rinishda san'atga taalluqlidir. Ayni vaqtda ular inson ijodiy faoliyatining zarur qismlari sifatida aks etadi.

Ilmiy ijodning nafosatli mazmuni quvonch, shodlik, qoniqish hissini qondirish bilan birga ilmiy izlanishlar natijasi va ularga erishish usullarida ifodalanadi. *Eng yaxshi san'at asarlari insonda xayol-farazni vujudga keltiradi va yaxlit nafosat tuyg'usini uyg'unlashtiradi, g'ayritabiiy tafakkur qilish qobiliyatini oshiradi, erkin dunyoqarash baxsh etadi, yuksak muloqot madaniyatini shakllantiradi, hozirgi fan ravnaqi uchun muhim ahamiyat kasb etadigan qobiliyat va imkoniyatlarni safarbar qilishga undaydi.*

Nafosat olamining mag'zi, bosh xossasi, mohiyati, asosini tashkil qilurchi go'zallik – estetikaning asosiy mezoniy tushunchasi bo'lib, estetika fani go'zallik falsafasi tarzida ham talqin etiladi. Go'zal bo'lgan, inson ongida ijobiy his-tuyg'u qo'zg'atgan narsani ko'rsatish oson, lekin nima uchun o'sha narsa go'zal ekanligini tushuntirish qiyin.

Go'zallik – voqelik (tabiat, jamiyat, san'at) hodisasi bo'lib, aniq hissiy ta'sir o'tkazish orqali insonda jismoniy va ma'naviy kuchlar oqimining ko'payishi, shodlik, zavqlanish, to'la ma'naviy qoniqish holati vujudga kelishiga imkon yaratadi. Go'zallik doimo foydalidir, lekin bu foydalilik jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishga mo'ljallangan bo'ladi. Boshqacha aytganda, go'zallik inson ozodligining ramzi sifatida ifodalanadi. Go'zallik xilma-xillikka ega bo'lib, masalan, tabiatdagi go'zallik ijtimoiy hayot go'zalligidan, foydali amaliy faoliyatdagi go'zallik badiiy ijoddagi go'zallikdan farq qiladi.

Inson hamma yerda va har qanday holatda mavjud tabiiy hamohanglik bilan to'qnashadi va albatta tabiat go'zalligidan zavqlanadi, faraxbaxsh orzulardan to'lqinlanadi, kuchli hayrat va orziqishdan ko'ngli zavq-shavqqa to'ladi. Inson tabiatdagi u yoki bu davr, u yoki bu ijtimoiy guruh ijtimoiy orzusiga muvofiq keladigan hodisalarni go'zallik sifatida baholaydi. Hamma vaqt tabiatga estetik munosabat va tabiatni estetik o'zlashtirish uni «insoniylashtirish», tabiat hodisalariga insoniy talab-ehtiyoji, maqsad-orzularini tadbiq etish bilan bog'lanib ketgan. *Masalan, yozuvchilar tabiat manzaralari tasvirini turli bo'yoqlarda inson qiyofasi, orzu-umidlari, intilishlari bilan badiiy bog'lab ifodalaydilar (Oybekning «Navoiy» romanining muqaddimasi, Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanidagi Otabekning Marg'ilonga borishi badiiy tasviri).*

Go'zallik yuksak darajadagi foydalilik tarzida idrok etiladi. San'atdagi go'zallik hayotdagi go'zallikning in'ikosi bo'lib, uning manbai – voqelikdir. Ijodkorning boshqalardan farqi shundaki, u boshqalar fahmlamagan go'zallikni hamma yerda ko'ra olish qobiliyatiga egadir.

San'atdagi go'zallik ko'p qirrali, ko'p o'lchovli bo'lib, ular orasida *estetik orzu* belgilovchi ahamiyat kasb etadi. San'at go'zal va xunuk hodisalarni aks ettirsa ham, o'zi hamma vaqt ham go'zaldir, chunki u o'z tarkibiga ajralmas qism sifatida estetik orzu, ya'ni go'zallikning zaruriy xossasini singdirgan tasavvurni anglatadi. San'at hamisha estetik orzuning o'zgaruvchanligi, ijtimoiy va milliy jihatlariga bog'liqligini teran ifodalagan. San'atda qaror topgan estetik orzuning asosiy mazmuni inson go'zalligi haqidagi turli davr mutafakkirlari, millatlar, ijtimoiy guruhlar tushunchalari bo'yicha uni qanday qiyofada ko'rish istaklari mavjudligi to'g'risidagi tasavvurlarda aks etgan. San'at estetik orzuni ijobiy qahramon timsolini yaratish orqali ro'yobga chiqargan. *Ijobiy qahramon – ijodkor estetik orzusidir. Ilg'or orzularni ularga qarama-qarshi hayot hodisalarini tasvirlash orqali qaror toptirishning samarali yo'li estetik ahamiyatga ega bo'lib, san'at orzu (ideal)dagi kishilarni emas, balki ijodkorning o'zida orzu bo'lishini taqozo etadi. Shunday orzu bo'lgan taqdirda eng mudhish, xunuk, pastkash hayot hodisalarini tasvirlash ham san'at asarlarining ijobiy estetik qiymatini tushirmaydi.* San'atda badiiy haqiqatsiz go'zallikning bo'lishi mumkin emas. Haqiqat va go'zallik birligi san'at taraqqiyotining qonuniyatlaridan biridir. *Shekspir «Go'zallik qimmatli haqiqat bilan yakunlanib, yuz chandon go'zallik kashf etadi» deb yozgan edi. Go'zallikni hayot haqiqatidan ajratib tashlashga urinish san'atga halokatli ta'sir qilib, uning faol, o'zgaruvchan ahamiyatini pasaytiradi.*

Ulug'vorlik – estetik va axloqiy mezonlar bilan bog'langan estetik mezoniy tushuncha bo'lib, go'zallik ko'lamidek cheksiz va nihoyasizdir. Ulug'vorlik tabiatda, jamiyatda, inson tomonidan bunyod etilgan barcha narsalarda mujassam bo'lib, inson uchun alohida ahamiyatli hodisalar sirasiga kiradi. Uning ko'lami shu qadar kengki, ulug'vorlik ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida to'ia o'zlashtirilishi mumkin bo'lmaydi va insonni doimo faol harakatga, o'zidagi ijodiy imkoniyatlarni ishga solishga da'vat etadi, rag'batlantiradi. *Tabiatda ulug'vorlik baland viqorli tog'lar, qudratli va maftunkor sharsharalar, mavj urayotgan dengiz, moviy osmon, osmono'par yaaraxtlar va h. k. timsolida namoyon bo'ladi. Bu yerdagi umumiylik ulardagi keng ko'lamlilik, ulkanlik, buyuklik, tuganmaslikdir. Tabiatdagi ulug'vorlik insonda tabiat bilan qo'shilib ketishga intilish hissini uyg'otadi.*

Ulug'vorlik hissi o'z-o'zidan estetik mazmunga ega bo'lmagan quvonch, hayratlanish, ehtirom, tan berish tuyg'ularini qamrab oladi. Bularga ba'zida qo'rquv qo'shilsa ham, bu insonni kamsitmaydi, balki to'siqlarni yengishga turtki beradi. Ulug'vorlik umuminsoniy, umumiy belgilari bilan birga ijtimoiy shartlangan, tarixiylik xususiyatga ega.

Ijtimoiy hayotda ulug'vorlik bilan qahramonlik va mardlik qorishib ketadi. Qahramonlikda ulug'vorlikka xos estetik va axloqiy birlik to'la va bevosita namoyon bo'ladi. *Xalq fidoyilari, el-yurt jonkuyarlarining qiyofalari bir vaqtning o'zida ham ulug'vorvorlik, ham mardlik hissini uyg'otadi. Qahramonlik oddiy kishilar tushunchasida odatdan tashqari noyob, nodir, kam uchraydigan hodisa hisoblansa ham, kundalik hayotda, oddiy sharoitda eng sodda, hamma amal qiladigan axloqiy qoidalar doirasida ham sodir bo'lishi mumkin. Bu kishilarning kundalik halol mehnati, axloqiy qoidalarga amal qilishi, urf-odat va an'analarga sodiqlikda o'z qadrini topadi.*

Ulug'vorlikning ijodiy ifodasi san'atda yaqqol aks etadi va uning asosiy tasvir ob'ektlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. San'atning ayrim turlari – qahramonlik dostonlari, lirik dostonlar, fojia, qahramonlik musiqa asarlari (simfoniya, opera), me'morchilik va yodgorlik san'ati ko'rinishlari ulug'vorlik mavzusini badiiy o'zlashtirish jarayonida vujudga kelgan.

Ulug'vorlik me'morchilikda alohida ahamiyat kasb etadi. *Misr piramidalari, Eyfel minorasi, Tojmahal maqbarasi, Sfinks haykali, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi me'morlik obidalari o'zining salobati va ulug'vorligi bilan asrlar osha hayrat va bemisl qudrat timsoli bo'lib kelgan. Ulug'vorlik tuyg'usiga miqyos o'lchovi bilan erishib bo'lmaydi. Agar ayrim obidalar (Bobil minorasi, Minorai Kalon, Misr piramidalari va sh. k.) o'zining miqyosi va ko'lami bilan kishini hayron qoldirsa, boshqasi o'zining nafisligi, ramziy ifodasi, hamohangligi, yuksak tuyg'ularni ruhlantirishi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Me'moriy obidalar (Go'ri Amir, Shohizinda, Ichan Qal'a, Registon maydoni, Ismoil Somoniy maqbarasi, Chor Minor, Labi Hovuz va b.) idrok etilganda o'zgacha ulug'vorlik tuyg'usi vujudga keladi.*

Ulug'vorlik san'atda fojiaiylik bilan namoyon bo'ladi, ular o'rtasida o'ziga xos aloqadorlik mavjud. *Navoiy va Shekspir asarlari, Shoshmaqom go'zal va ta'sirchan kuy-ohanglarga boy bo'lib, bir vaqtning o'zida ham ulug'vorlik, ham fojiaiylik ruhi bilan sug'orilgan. Lekin bundan fojiaiylik-ulug'vorlik, ulug'vorlik-fojiaiylikdir degan xulosa chiqmaydi. Masalan, Samarqandning Registon maydonidagi madrasalar ulug'vor bo'lishi bilan birga hech qanday fojiali his qo'zg'atmaydi.*

San'atdagi ulug'vorlik badiiy mazmun va shaklning barcha imkoniyatlari vositasida ifodalansa ham, g'oya asosiy hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Muhim ahamiyatli g'oya yuksak ruhlangan, mukammal shaklning zarurligini yuzaga keltirib, san'at asarining buyuklik darajasini belgilaydi. Fojiaiylik falsafiy va estetik ahamiyatga ega bo'lib, unda hayotning eng muhim, chuqur ziddiyatlari va to'qnashuvlari bo'lgan hayot

va o'lim, ozodlik va zarurat, aql va tuyg'u, qonun va burch kabi shaxsiy va ijtimoiy jihatlar namoyon bo'ladi.

San'atda fojiali ohang alohida ahamiyat kasb etadi. Qariyb barcha buyuk ijodkorlarlar yaratgan musiqiy asarlarda fojiali ohanglar mavjud. *Bunga Maqsud Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi», «Mirzo Ulug'bek» asarlaridagi fojiali ohanglar misol bo'ladi. Bu dramalar maxsus fojia asari sifatida yaratilmagan bo'lsa ham, ularda fojiali ohanglar ustuvor darajada ifodalangan. Har qanday fojia zaminida alohida fojiali to'qnashuv yotadi va uning eng muhim tomoni sifatida ko'lamlilik, ijtimoiy ahamiyatlilik xizmat qiladi. Gegel fikricha, fojialilik mohiyatli kuchlar to'qnashuvi natijasidir, to'qnashuvlar kurashning qanday tugallanishi bilan insoniyat istiqboli, taqdiri bog'lanib ketadi. Bu esa fojiani san'atning falsafiy jihatdan eng hajmli turiga aylantiradi, unda ijodkorga insoniyatni butun tarixi davomida hayajonlantiradigan hayotning tub masalalarini hal qilish imkoniyatini beradi.*

Fojia qahramoni ijobiy tasvirlanadi, o'z davrining ijobiy orzu-umidlari, u yoki bu ijobiy qirralarini o'zida mujassamlashtirgan kuchli, yorqin, ulug'vor shaxs namoyon bo'ladi. Lekin fojia to'qimasida boshqa turdagi qahramonlar kam aks ettirilgan bo'lib, qahramonlar o'z taqdirleri bilan tomoshabinda o'ta ziddiyatli his-tuyg'ular qo'zg'aydi. Ular sodir qilayotgan mudhish kirdikorlari qat'iy norozilik, ayrim vaqtlarda achinish, hattoki nafrat va dahshatni vujudga keltiradi, chunki qabih, jirkanch sharoit ta'siriga tushgan inson o'zidagi go'zal insoniy xislat-fazilatlaridan ham begunalashadi.

Fojia qahramonning faolligi, o'z orzu-irodasi, hattoki o'zini qurbon qilish evaziga boshqalarga baxt ato etishga intilishi uning mohiyatli belgisini tashkil etadi. O'z irodasini o'rnatishga intilishida u tarixiy imkoniyatsizlik bilan to'qnashib, xuddi mana shu to'qnashuv, mazkur tarixiy sharoitlarda yechimsiz qolib, fojiani yuzaga keltiradi. *Yuksak fojia qahramonning mashaqqatli azob-uqubatlari bilan bog'lanib, uning halokati bilan tugallansa ham, inson qalbida yashash va kurash istagi tug'iladi. Insonning ulug'vorligini tarannum etish ham san'atning fojia turida yorqinroq ifodalanadi.*

Fojiaviylik san'atda rang-barang uslublarda talqin etilib, fojia uslubining umumiy belgilari qatoriga keng umumlashtirishlarga intilish, aqliy mazmun boyligi, soddalik va yaxlitlik, hayajon va ehtirolarning Yuksakligi kabilar kiradi. Fojia tarixiy davrning burilish paytlarida, eski ijtimoiy aloqalar va munosabatlar barbod bo'lib, eski siyosiy qarashlar, estetik va axloqiy aqida-qoidalar mashaqqatli qayta bahoianayotgan sharoitlarda ravnaq topadi. Fojianing tarixiy shakli-qadimgi dunyo fojiasi

(*Esxil, Sofokl, Evripid*) eski patriarxal tartibotlar emirilib, tarixda birinchi sinfий jamiyat o'rnatilishi jarayonida vujudga keldi. Unga xos bo'lgan «qismat ohangi» tabiiy va ijtimoiy qonunlar haqidagi tasavurlarni aks ettirdi.

Yunonlar insonning azob-uqubatlari uchun ma'suliyatni uning o'ziga Yuklab, katta mardlikka jur'at etdilar. Azob-uqubatning tub sababi insonning irodasi va imkoniyati chegarasidan tashqarida ekanligi, qismat bilan taqdir insondan kuchli deb, u bilan kurashishga chaqirdilar.

O'rta asrlarda G'arb xristian mafkurasi fojia ruhiga butunlay qarshi kurashgan bo'lib, bu davrdagi odamlarning mashaqqatlari va azob-uqubatlari avvalgidan kam emas edi. Azob-uqubatlarni gunohlar uchun jazo va insoniyatning abadiy nasibasi deb e'lon qilgan xristianlik aslida fojiani ham «taqiqlagan». *Fojianing ravnaqi Uyg'onish davrida boshlangan, bu vaqtda abadiy va qulamaydigan ko'ringan feodal munosabatlar zamini emirila boshlagan, insonga, his-tuyg'uli voqealarga mensimay qarash o'rniga insonni ulug'lash, uning cheksiz imkoniyatlarini kuylash insonparvarlik falsafasi qaror topayotgan edi.*

Uyg'onish davri fojiasi yangi tarixiy vaziyatni, qadimgiga nisbatan boshqa shaxs mavqeini ifodalaydi. Agar qadimgi fojiada shaxs hali o'zini jamiyatdan ajratmagan va shuning uchun u yoki bu axloqiy g'oya namoyandasi sifatida amal qilgan bo'lsa, Uyg'onish davri fojiasida shaxsiy ehtiros va iroda bosh ohang sifatida jaranglaydi. Tarki dunyo azobidan, o'rta asr tabaqaviy cheklanganligidan ozod bo'lgan inson o'z irodasini, o'zligini o'rnatishga, unga hali ham qarshi turgan voqelik bilan to'qnashadi, boshqa odamlarning orzu va intilishlari bilan kurashga kirishadi. Bu yerda qismat va taqdirga o'rin qolmaydi, fojia manbai – insonning o'zi, uning Yer kurrasidagi hayoti, o'z maqsadi sari intilayotgan kishilar to'qnashuvi, boshqalarga va o'zlariga nisbatan sodir etadigan yovuzliklaridir. Uyg'onish davrining fojiasi Shekspir ijodida eng to'la va badiiy ifodasini topdi.

Shekspir asarlarida kuchli, jasoratli, g'ururli, erkin inson timsoli aks etgan. Shekspir qahramonlari o'zligini saqlashga, o'z ozodligini inson ruhini sindirib halokatga sudrayotgan tuzum sharoitida o'rnatishga intilishni namoyon etadi. *Shekspirning «Gamlet» fojiasida qarama-qarshi kuchlar to'qnashuvi tashqi muhitdan qahramonning ichki dunyosiga o'tkazilgan. Bu yerda Shekspir sahnada bir necha asr keyin keng o'rin egallagan aqliy-ruhiy dramaga yo'l ochgan. «Gamlet»ning abadiy, mangu sir-ahamiyati, so'nmas kuchi va ta'sirchanligi undagi ma'naviy-ruhiy hamda falsafiy boylikning voqelikning ijodiy-yaxlit idrok qilish bilan qaytarilmas darajada qo'shib ketganligidadir. Gamlet – insonparvar, ayni vaqtda dadil hamda qo'rqmas jangchi ham. U fikr-mulohazalarga ko'p vaqt sarflaydi va*

sustkashlik qiladi. Lekin bu uning yumshoq tabiatligidan emas, balki Klavdiyning o'ldirilishi bilan o'sha vaqtda yechimi topilmaydigan «mayib asrni to'g'rilash» vazifasini bajarolmasligiga aqli etganligidan vujudga keladi. Uning axloqiy g'alabasi – qo'rqmas inson tafakkurining g'alabasidir, garchand bu qahramonning o'limi evaziga erishilgan bo'lsa ham, buYuk saboq va kelajak avlodlarga vasiyat sifatida idrok qilinadi.

Ch.Aytmatovning «Kunda» romani badiiy ohangi, ehtirosli to'qnashuvlar ruhi, ulkan hissiy ta'sir kuchi, qahramonlari taqdiri jihatidan o'ta fojiali asardir. Unda sho'rolar davrida keng tomir yoygan ijtimoiy, axloqiy, ekologik muammolar fojiasi ogohlantiruvchi qudratli bong ovoziday jaranglaydi. Chin fojia asari fojia ijodkoridan falsafiy chuqur va ko'lami keng tafakkurni, o'zidan «asrning barcha holati»ni (Gegel) chig'irig'idan o'tkazishga qobil shaxs ehtirosining yuksakligi bilan chambarchas bog'lashni talab etadi.

Kulgililik – insonning dunyo voqea-hodisalariga o'ziga xos munosabatlaridan biri, dunyoga kulgili nigoz bilan qarashdir. Kulgililik murakkab kategoriya bo'lib, kulgi qo'zg'aydigan hodisalarning benihoyaligi, eng muhimi, kulgililik ko'lami hamda chegarasining o'ta harakatchan, qo'nimsiz, o'zgaruvchan bo'lishi natijasida nima, qachon, qayerda, qanday sharoitda kulgi qo'zg'aydi, nima, qachon, qayerda, qanday sharoitda kulgini to'xtatadi yoki umuman kulgiga olib kelmaydi, degan savolga bir mazmunda javob topib bo'lmaydi.

Kulgililik boshqa estetik hodisalar kabi faqat ob'ektiv tomonga ega bo'lmay, sub'ektiv tomonlarni ham o'zida birlashtiradi. Kulgililikning sub'ektiv tomoni – keng ma'nodagi hazil (yumor) tuyg'usidir (*Jumladan, Molyer hazil tuyg'usini insonni hayvondan ajratib turadigan xususiyati deb atagan edi*). Hazil tuyg'usi shaxsning tabiiy va erkin, bevosita idrok etish natijasida turli kulgili beo'xshovliklarni ko'rib, ularga kulgi bilan javob berish qobiliyatining ifodasidir. *Hazil juda murakkab aqliy tuyg'u bo'lib, unda shaxs o'zining butun borlig'i bilan namoyon bo'ladi, uning his-tuyg'u va aql madaniyati, orzu-umidlari bus-butun namoyon bo'ladi, ya'ni insonning nima haqda kulayotganiga qarab, uning kimligini aytish mumkin bo'ladi*. Insonning turli sabablarga ko'ra kulgisi qistaydi. *Masalan, to'yimli va mazali ovqatlanishdan rohatlanib kuladigan odamlar ham uchraydi: chunki bunday odamlar uchun kulgi hayotni sof fiziologik-jismoniy idrok etish ifodasi bo'lib xizmat qiladi.*

Bevosita kulgililik bilan bog'liq bo'lgan kulgi masalasiga shuni aytish kerakki, u biror bir hodisa, avvalo, insonning tashqi ko'rinishi bilan uning asl mohiyati o'rtasidagi nomuvofiqlik ziddiyati, boshqacha aytganda, amaldagi voqelik bilan yuksak estetik orzularga mos kelishi kerak bo'lgan

voqelik o'rtasidagi muhim tafovutlar, beo'xshovliklar, kelishmovchiliklarni tabiiy anglash natijasida vujudga keladi.

Qo'rquv va kulgi bir-biriga qarama-qarshi tushunchalar bo'lib, inson yaramas va xunuk hodisalar ustidan kula olsa, o'sha illatlardan qo'rquvni tark etadi, ular bilan kurashishga bel bog'laydi. Kulgi kishilarni qovushtirib, baravarlashtiradi, kulishayotgan odamlar o'zaro tenglashadilar. Kulgi eskilik bilan kurashning omilkor vositasi, shuningdek, insonning kuch-qudrati va ozodligi timsoli hamdir. Kulgi beqiyos rang-baranglik, xilma-xil qirralarga ega bo'lib, mayin, rag'batlantiruvchi, xushfe'l hazil tuyg'usidan tortib, to ayovsiz achchiq istehzogacha bo'lgan keng doirada amal qiladi. Kulgililik o'zining estetik ifodasini komediyada topadi. Komediya bilan kulgi egizaklar tushunchalardir. Kulgi komediyada tasvirlanayotgan voqea-hodisalar mohiyatini ochib berishning hal qiluvchi vositasi, tasvirlanayotgan ob'ektga nisbatan estetik baholashning va muallif munosabati ifodasining asosiy shakli hisoblanadi.

Komediya badiiy tanqid va o'z-o'zini tanqid qilishning o'ziga xos shakli bo'lib, yomon xulq, yomon odam, yomon hodisalarni to'g'ridan-to'g'ri, bevosita tuzatishga, yaxshilashga olib keladi, deb aytish mumkin. Komediya axloq-odobdan saboq berib qolmay, hayotdagi kulgililikni ilg'ab olish qobiliyatini o'stiradi, odamlarda hazil tuyg'usi kabi qimmatbaho fazilatni rivojlantiradi. Kulgililikning badiiy shakllari orasida masxara (satira) alohida o'ringa ega. Masxara markazida doimo hayotning salbiy voqea-hodisalari aks etgan bo'lib, butun fosh qilish kuchi ularga qarshi qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun komediya san'atiga xos tanqidiylik yo'nalganlik masxarada eng to'la va eng aniq ifoda topadi. Gogol, Saltikov-Shedrin, Bulgakov, Gulxaniy, Chingiz Aytmatov, Said Ahmad kabi yozuvchilar asarlarida masxara umumbashariy muammolarni ko'tarish darajasiga chiqqan. Masxara o'z maqsadiga erishish yo'lida voqelikni anglashning barcha estetik shakllaridan foydalanadi va birinchi navbatda, kulgililikning barcha turlari – zardali hazil tuyg'usi, achchiq kinoya, nozik hazil tuyg'usi bilan ishga solinadi. Masxara yengillik, o'tkir fikrlilik va hazil bilan qo'shilib, ayrim illatlarni fosh qilish vazifasini amalga oshiradi.

Hozirgi davrda umuminsoniy maqsad-manfaatlarning ustuvorligi umuminsoniy qadriyatlar vositasida jahon xalqlari hayotida tobora mustahkam o'rin egallab borayotgan ekan, insoniyatning mana shu bosh taraqqiyot yo'lini to'sadigan barcha chirik, eskirib qolgan, qotib qolgan jarayon, voqea-hodisalar kishilarning o'tkir va hayotchan masxara ob'ekti bo'lib qolaveradi.

6-mavzu. Badiiy asarni estetik idrok etish va estetik tarbiya

1. *Badiiy asarni estetik idrok etishning hissiy va aqliy asoslari. Estetik mushohada. Estetik hukm. Estetik qobiliyat*
2. *San'at asarini estetik idrok etishning ijodiylik tabiati*
3. *Estetik tarbiya va uning zamonaviy yo'nalishlari va vositalari*
4. *San'at – estetik tarbiyaning asosiy vositasi sifatida. Xalq estetik ehtiyoji va badiiy didini yuksaltirishning dolzarbligi*

Estetik idrok mazmuni keng qamrovli tushuncha bo'lib, narsalarning o'ziga xos xususiyatlarini tafakkur orqali talqin etishda hamda turli xil munosabatlarni o'rganishda ko'maklashadi. Idrok jarayonining to'g'ri shakllanishi aqliy taraqqiyotning asosiy omilidir, ya'ni idrok predmet va hodisalarning yaxlit qiyofasini aks ettirib, voqelikni inson sezgi a'zolarining ta'siri orqali belgilovchilik va boshqaruvchilik imkoniyatlarini namoyon etadi. Moddiy buyumlarni idrok etishdan farqli ravishda, badiiy idrok jarayonlari o'ta talabchanligi bilan ajralib turadi, ya'ni badiiy idrok ijodiy jarayon bilan bog'liq tarzda namoyon bo'ladi.

Kitobxon badiiy asarni o'qib tugallagandan so'ng uning o'qiganlarini idrok etishga bo'lgan keyingi holati ham tugallanadi. Kitobxon endi boshqa bir badiiy jarayonni idrok etishga «tayyorgarlik» ko'radi. Avvalgi asarda olgan taassurotlarini yangi asardagi mavjud voqealar tafsilotiga qo'llamaydi. Zero, «*O'tgan kunlar*» romanidagi voqealar tafsiloti «*Shaytanat*» romanidagi voqealar tafsilotiga mutlaqo mos kelmaydi.

Badiiy ijodni idrok etish shu jihati bilan moddiy narsalarni idrok etishdan farqlanadi. Ijod jarayoni to'xtasa, badiiy idrok ham yakun topadi. Badiiy asarni badiiy tarzda idrok etish natijasida inson voqelikka teran ko'z bilan nazar tashlashga, mavjud muammolarni tafakkur bilan nozik tuyg'ular yordamida hal etishga harakat qiladi. Badiiy idrok favqulodda o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lib, u hech qachon bir joyda to'xtab qolmaydi. Bunday holatni badiiy asarni qayta o'qish jarayonida kuzatish mumkin. Masalan, Tohir Malikning «*Shaytanat*» qissasini oladigan bo'lsak, undagi Asadbek obrazi kishilar tasavvurida ham ijobiy ham salbiy qahramon sifatida gavdalanadi. Shunga ko'ra, ayrim kitobxon Asadbekning qilmishini qoralasa, boshqa kitobxon uning «marhamatini» yaxshilikka yo'yadi. Eng ajablanarlisi shundaki, kitobxonning asar qahramonlarini salbiy yoki ijobiylikka ajratishiga hech kim to'sqinlik qilmaydi, ular kitobxon badiiy idroki qobiliyatiga ko'ra farqlanadi.

Badiiy idrok ijod jarayonini baholash mezonidir. Ijodkor badiiy asarni yaratishdan avval o'z oldiga asar voqealarining tafsilotini «miyasi»da

pishitib boradi va muayyan rejaga soladi. Shundan so'ng ijodkor iste'dodini ishga solib, asar qahramonlariga «jon» kirgizadi. *Shaxsning ruhiy olamiga ta'sir etish, uni badiiy-nafosatli jihatdan yuksak pog'onalarga olib chiqish nafosatli idrokning muammosi bo'lib, insonning voqelikka hissiy-aqliy munosabati hamda uning nafosatli idrok etish qobiliyatiga, asar qahramonlarining kechinmalarini his qilish layoqatiga hamda ularni ongli tarzda mushohada etish madaniyatiga ega bo'lishini ta'minlaydi. Badiiy idrokning mazmuniga daxldor bo'lgan badiiy qadriyatlar yaratish jarayoniga zamonaviy-tarixiy bosqichlardan kelib chiqqan holda nafosatli nazariyalar asosida munosabat bildirish maqsadga muvofiq, ya'ni badiiy asar millat ravnaqi uchun qanday hissa qo'shadi, u millat badiiy tafakkurini o'stirishda qanday ahamiyat kasb etishini to'g'ri anglash uchun nafosatli nazariyalarga murojaat etish o'rinlidir. Badiiy idrok insonning hayotga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi va shu asosda rivojlanadi.*

Nafosatli idrokni tadqiq etmay turib, badiiy ijod nazariyasini to'laqonli anglash va san'atning ijtimoiy tabiatini ochib berish mumkin emas. Nafosatli idrokning o'ziga xos xususiyati badiiy ijodning tabiati hamda san'atning ijtimoiylik mohiyatiga ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq. Ikkinchidan, nafosatli idrok qonuniyatlarini tadqiq qilish san'at va badiiy ijod mazmuni va mohiyatini to'la namoyon qilishga imkon yaratadi, ya'ni nafosatli idrok mohiyatan insonni voqelikni badiiy obraz orqali o'zlashtirishida namoyon bo'ladi. *Ma'lumki, san'at turlarining barchasi ijodkor va tomoshabin nigohidan o'tgach, qadriyatga aylanadi. Tomoshabin badiiy asar bilan yaqindan aloqa qilib borishi natijasida badiiy jarayonga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsata olishi mumkin. Shunday ekan, ijodkor xohlaydimi-yo'qmi tomoshabinning didi bilan hisoblashishga majbur. Ana shunday talablarni his qilgan ijodkor, masalan, agar u dramaturg bo'lsa, sahna bezaklaridan tortib, aktyorlarning barcha xatti-harakatini sinchiklab kuzatadi, o'z fikrini bildiradi...*

San'at asarlarida rangni idrok etish murakkab jarayon hisoblanadi. Bu esa insondan san'at asariga ongli munosabatda bo'lishni, hattoki, rangning milliylik xususiyatlariga e'tibor berishni talab etadi. *Rassom muayyan mavzudagi asarni istagan hajmda chizishi mumkin, masalan, tabiat manzarasining tasviri katta yoki kichik ishlanishidan qat'iy nazar, tomoshabin uni tabiat go'zalligi (yoki hunukligi) tarzida idrok qiladi. Tomoshabin uni uzoqdan tomosha qilib, bir ma'no uqsa, o'sha asarni yaqindan tomosha qilishga mo'ljallangan haykaltaroshlik asarida boshqa ma'noni anglaydi. Qiziqarli tomoni shundaki, mazkur san'at turiga xos shunday asarlar borki, uni faqat uzoq masofadan tomosha qilish bilan uning mazmuni va mohiyatini to'laqonli tarzda idrok etish mumkin.*

Poytaxtning «Markaziy hiyobon»idagi Sohibqiron Amir Temur haykali oqshom paytida uzoqdan tomosha qilinsa, buyuk jahongir Temurning salobati, ulug'vor siyosi gavdalanadi. Aksincha, uni yaqindan tomosha qilinsa, avvalgi holat ro'y bermasligi mumkin.

Nafosatli idrok shakllanishi tadrijiylik asosida rivojlanib, ma'lum kuzatuvlardan so'ng namoyon bo'ladi. Inson san'at asarini nafosatli idrok etishi bilan birga o'zining ma'naviy ehtiyojini ham qondiradi. Ana shu ehtiyoj pirovardida uning turmush tashvishlarini yengillashtirishga, hayotning murakkab so'qmoqlaridan matonat bilan o'tishga ko'maklashadi va bunyodkorlik va yaratuvchanlikka chorlaydi.

Nafosatli idroki tarbiyalangan inson Navoiyning «Xamsa»sidan ezgulik, ma'naviy kamolot va bunyodkorlik, Qodiriyning «O'tgan kunlar»idan vafodorlik, Cho'lpon she'riyatidan vatanga muhabbat, Abdulla Qahhor hikoyalaridan tubanlik, pastkashlik, tilyog'lamachilikka qarshi nafrat tuyg'ulari, Chustiy she'riyatidan bahoriy kayfiyatni his etadi.

Ilmiy asarni tushunish uchun inson mazkur sohaga doir bilimlardan xabardor bo'lishi kerak. Aks holda asar o'quvchiga qiziqarsiz va tushunarsiz bo'ladi. Badiiy asarning mohiyatini bilish yoki uning mazmunini o'zlashtirish uchun mazkur jarayonni maxsus o'rganishga ehtiyoj sezilmaydi. *Ijodkor badiiy asarni yaratar ekan, avvalo, idrok qiluvchida asar qanday taassurot qoldirishi, asar qay tariqa kitobxonida tug'yoniqlik kayfiyatini uyg'otsh haqida o'ylaydi. Asarni idrok qilish natijasida yuzaga kelgan qayg'urish, achinish, junbushga kelish, zavqlanish singari botiniy holatlar o'z navbatida shaxsiy «men»ning Yuzaga kelishiga sababchi bo'ladi.*

Nafosatli idrok jarayonida idrok qiluvchi (tomoshabin, o'quvchi, kitobxon) voqelikda kechayotgan jarayonlar haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Bu esa san'at asarini hissiy-aqliy idrok etish uchun zamin yaratadi. Badiiy asarni hissiy-aqliy idrok qilish orqali inson yuksak a'mollar (ideallar) sari intiladi, ezgulik va haqiqatning g'alaba qilishiga ishonch hissi hamda qalbida junbushga kelgan go'zal hissiyotlarni namoyon qilish imkoniga ega bo'ladi.

Ijodkor asarni ikki ko'rinishda – murakkab yoki sodda ifodalashga harakat qiladi. Ayrimlar asardagi murakkab jarayonlarni o'zining aqliy-hissiy idrok etish qobiliyati bilan tezda tushunib yetadi. Shuning uchun bu toifa kitobxonlar ko'proq falsafiy mazmundagi kitoblarni mutolaa qilishni xush ko'radilar. Boshqalar esa sodda, jo'n yozilgan asarlarni o'qishga moyildir. Asar o'zida mafkuraviy g'oyalarning muayyan jihatlarini mujassam etishini hisobga olsak, bunday holatlarni anglash uchun idrok

qiluvchining bu xususda yetarlicha bilimga ega bo'lishi hamda aqliy-hissiy idroki kamol topgan bo'lishi talab etiladi.

Bugungi kun kitobxonining oldiga qo'yiladigan talab ham aynan ana shulardan iborat. *Zero, ekstremistik ruhdagi kitoblar, millat ravnaqiga rahna soluvchi kinofilmlar, yovuzlikka boshlovchi rang-barang adabiyotlar zamidagi mafkuraviy va g'oyaviy maqsadlarni faqat aqliy-hissiy idrok tarbiyasi orqali fosh etish mumkin. Badiiy idrok ham, nafosatli idrok ham mohiyatan inson hissiyotini tarbiyalashda, hayot quvonchlaridan bahramand bo'lishda, ijtimoiy munosabatlarda namunali faoliyat olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

XX asr buyuk kashfiyotlar asri sifatida tarixda muhim iz qoldirdi. Inson avvalgi davrlarga qaraganda o'zining yuksak salohiyatini namoyon qilishga muayyan ma'noda erishdi: zamonaviy shaharlar bunyod etildi, ko'rkam, salobatli, osmono'par binolar barpo qilindi, ehtiyoj uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar ishlab chiqildi. Ularning barchasi inson tafakkurining mahsuli sanaladi. Tafakkurni to'g'ri yo'naltirish bevosita tarbiya masalalari bilan bog'liq jarayon bo'lib, nafosatli tarbiya ana shu jarayonda tafakkurni go'zallashtirishga xizmat qiladi.

Tarbiyaning bosh vazifasi inson borlig'ini kamol toptirishdir. Huquqiy, axloqiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa tarbiya shakllarining barchasida inson masalasi yotadi. Ularning har biri o'z tadqiqot doirasidan kelib chiqib, u yoki bu tarzda inson tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Bu borada nafosatli tarbiya shaxsning didi, his-tuyg'ulari, tasavvurlarini turli vositalar orqali tarbiyalashni zimmasiga oladi.

Nafosatli tarbiya nazariyasi tabiat va inson o'rtasidagi nafosatli mohiyat orqali izohlanadi va shaxsning hayot faoliyatiga chuqurroq nazar tashlashga undaydi. *Nafosatli tarbiya – shaxsning didi, tuyg'ulari, tasavvurlarini zarur vositalar orqali tarbiyalab, ijtimoiy taraqqiyotning barcha jabhalarida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan faoliyat sifatida ish olib boradi.*

Nafosatli tarbiya o'z-o'zidan paydo bo'lib, rivojlanadigan «mikroorganizm» ham, ayni paytda birdan to'xtab qoladigan «mexanizm» ham emas. U sekin-asta inson tomonidan orttirilgan hayotiy tajriba, ko'nikma, bilim orqali shakllanib boradi. Nafosatli tarbiya mohiyatiga ko'ra, insoniy a'mol (ideal) bilan bog'liq bo'lib, mazkur a'mol egasi bo'lgan shaxs boshqalar orasida nafis didga, pokiza tuyg'ularga egaligi bilan ajralib turadi. Nafosatli tarbiya badiiy tarbiya bilan mushtarakdir. Nafosatli tarbiyaning badiiy tarbiyadan farqi bor. Nafosatli tarbiya badiiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lib, badiiy tarbiya ijod jarayonidagi rang-barangliklar olamini inson tomonidan nafosatli tarzda anglash va

o'zlashtirishning bir qismini ifodalasa, nafosatli tarbiya jamiyatda ma'naviy muhitni paydo qilishga ko'mak beruvchi, inson didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir. Nafosatli tarbiyaning pirovard maqsadi inson ma'naviy olamini boyitishga qaratilgan bo'ladi. *Nafosatli tarbiya insonni bunyodkorlikka undash bilan birga, ularni nafosat tamoyillari, go'zallik talablari asosida rivojlantirishga o'rgatadi. Inson dunyoga nafosatli qarashi boy, his-tuyg'u va didi tarbiyalangan holda kelmaydi. Bu ko'nikmalar voqelikni kuzatish, o'rganish va ulardan tegishli xulosalar olish natijasida yuzaga keladi. Pirovardida, inson ana shu tuyg'ular ta'sirida o'zi uchun mutlaqo yangi bo'lgan olamni kashf etadi. Nafosatli tarbiya nafosatli tuyg'u va nafosatli didning inson hayoti va faoliyatida ustuvor bo'lishini ta'minlaydi.*

Nafosatli tarbiyaning vazifalari quyidagilar:

– *insonda san'at asarlari, badiiy ijod namunalarini nafaqat faol o'zlashtirish, balki ularning nafosatli mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish;*

– *jamiyat a'zolarining ijodiy imkoniyatlarini namoyon qildirish va ulardan foydalanishga ishonch tuyg'usini uyg'otish;*

– *tabiat, jamiyatdagi jarayonlarga sof tuyg'u bilan munosabatda bo'lish va ularni ravnaq toptirish yo'lida astoydil faoliyat olib borish ko'nikmasini hosil qilish;*

– *o'tmish ma'naviy merosiga chuqur hurmat hissini uyg'otish, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish uchun zamin yaratish;*

– *ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirib, jahonga yuz tutish va ularni millat manfaatlari uchun naf keltiradigan tomonlarini targ'ib qilishga undash.*

San'at mohiyatan insonning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim jarayon sifatida ahamiyatini yo'qotmagan. San'at insonning ehtiros va tuyg'ular olamiga singib, ularni yig'latadi, kuldiradi, o'ylashga, fikrlashga majbur qiladi. Shuning uchun san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lgan. Ma'lumki, ehtiros, tuyg'u, kechinmalar insonning tirik mavjudot ekanidan dalolat beradi. Mazkur jarayonni boshqarish asosi insonning voqelikni kuzatishi va baholay olishi bilan belgilanadi. San'atni «bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir» deb bilgan taniqli jadid mutafakkiri Abdurauf Fitratning san'at va uning insonga ko'rsatadigan ta'siri to'g'risida mulohazalari diqqatga sazovordir:

«Buyuk bir shodlik ko'rgan kishi o'zining shod tuyg'ularini boshqalarga bildirib, shodligini orttiradir. Ulug' bir qayg'uga uchragan esa, o'z dardini boshqalarg'a o'tkarib, o'zini ovuntirgan bo'ladir. Miyasi

yuksalmagan bolalar san'atdan xabarsiz kishilar shodli-qayg'uli tuyg'ularini sakrab, o'ynab, kulib, yig'lab, talpinib jonlantiradilar, ochiqqa chiqarib boshqalarg'a anglatadilar, shu yo'l bilan ovuntirilgan bo'ladilar, san'at egalari esa turli tovar (material)lar yordami bilan o'zlarining tuyg'ularini jonlantirib maydonga chiqaradir. Shu yo'lda boshqalarni o'z tuyg'ulari bilan tuyg'ulantirishga tirishadir».

Ijobiy fazilatlar, badiiy-nafosatli a'mollar (ideallar) inson hayoti mazmuniga ko'rk bag'ishlaydi. Axloqiy va nafosatli tarbiyada hayotning mazmuni va maqsadi muhim ahamiyat kasb etadi. Gohida maqsad mavhum tushunchaga aylanib, shaxs tabiatiga mutlaqo zid bo'lgan holatni keltirib chiqarishi natijasida ko'zlangan maqsad amalga oshmasligi mumkin. YAshashdan maqsadi o'z shaxsiy manfaatlarini qondirishga qaratilgan, xudbin, payti kelganda bironing nomini sotib bo'lsa ham ehtiyojini qondirishga zo'r beruvchi uddaburonlar ana shunday holatga tushib qoladilar va nafaqat o'zlariga balki yon-atrofdagilarga, hatto jamiyatga katta zarar keltiradilar. Hayotiy munosabatlarni ijobiy xulq-atvor bilan yo'g'rilmaganligi bu kabi holatlarni Yuzaga keltiradigan asosiy sababidir.

Bugungi kun insondan maqsad, tuyg'u, faoliyat va fikr uyg'unligiga erishish hamda olamning go'zalligini anglash bilan birga uning murakkabliklarini engib o'tishni talab qilmoqdaki, bu milliy mafkurani shakllantirishdek dolzarb vazifani teran his etishda katta ahamiyatga ega. Chunki *«mafkurani shakllantirish jarayonida mamlakatni bugungi hayoti, o'tmishi, kelajagi, butun taqdiri uchun qayg'uradigan, Vatan qismatini o'z qismati deb biladigan keng jamoatchilikning ilg'or dunyoqarash va tafakkuriga asoslanishi lozim»* (Islom Karimov) ligi bejiz ta'kidlanmagan. Ana shunday jarayonlarni amalga oshirishda san'at asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. San'at nafaqat go'zallikni, balki jamiyatdagi va insoniy munosabatlardagi jamiki ikir-chikirlargacha badiiy qiyofalar orqali aks ettirishga harakat qiladi. Bir so'z bilan aytganda, san'at insonga eng yaqin va ayni paytda undan ajralmaydigan hodisadir.

Zamonaviy insonni nafosatli tarbiyalashda san'atning muhim o'rni bor. Agar inson o'zining nafosatli tuyg'ularini maqsadli, ijobiy tomonga yo'naltirsa, kelajakda buyuk ishlarni amalga oshirishiga ko'mak beradi. Tuyg'ulari hali shakllanmagan, nafosatli didi risoladagidek tarbiya ko'rmagan odam mavjud hayotiy qiyinchilik va tashvishlar qarshisida o'zlik qiladi va natijada yot g'oyalar ta'siriga tushadi. Chinakam san'at insonni ana shunday salbiy holatlarga tushib qolmasligini kafolatlaydi.

Shaxs nafosatli tarbiyasini san'at vositasida amalga oshirishning afzal tomoni ikki xususiyatda aks etadi: birinchidan, san'at ijtimoiy anglashning boshqa shakllariga qaraganda insonga birmuncha yaqinroq hamda tezroq

ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga egadir. Ikkinchidan, san'at insonni nafosatli kamolotga yetkazish jarayoniga muayyan mafkuraviy mazmun bag'ishlashi bilan birga inson ma'naviy qadriyatlarini ro'yobga chiqarishda yaqindan yordam ko'rsatadi. Inson tafakkurini go'zallashtirish nafosatshunoslikning tadqiqot obekti hisoblansa, nafosatdor tarbiyaning predmeti olamni nafosatli anglash va nafosatli mushohada qilish bilan belgilanadi. Insonning nafosatli didi uning go'zallikdan xunuklikni, ulug'vorlikdan tubanlikni, fojiaiylikdan kulgililikni ajrata olish qobiliyatiga qarab belgilanadi.

Did insonda yuksak yoki past darajada mavjud bo'ladigan hodisadir. Did yordamida inson hayotiy faoliyatini shakllantirishga harakat qiladi. Insonning qay darajada didga ega bo'lishi nafosatni tushunishi bilan belgilanadi. Shubhasiz, didsizlik fojia emas, aksincha, biror shaxsning past darajadagi didi boshqa bir yuksak didli shaxsning didiga hukmronlik qilsa va uni o'z izmiga bo'ysundirishga harakat qilsa, didsizlik fojiaga aylanishi mumkin. Bunday holat o'z navbatida hayot go'zalliklaridan bahramand bo'lishga monelik ko'rsatadi. San'at ana shunday fojialarning oldini olishda insonga ko'mak beradi.

Insonni nafosatli hamda badiiy jihatdan tarbiyalash favqulodda murakkab va serqirra jarayondir. Bugungi kunda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarning barchasi ana shu maqsadni to'g'ri yo'naltirishga qaratilgan. San'at insonning estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. San'at voqelikni badiiy qiyofalar yordamida aks ettiradi, o'zida moddiylik va ma'naviylikni estetik mazmunini namoyon qiladi, ijtimoiy hayotga yangicha ko'rk bag'ishlaydi, ularni qaytadan tashkil etadi va o'zgartiradi. Demak, san'at voqelikka estetik munosabatning keng qamrovli jabhasi bo'lib, insonni nafosat olami va badiiy didini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

San'atning tarbiyaviy-g'oyaviy vazifasi hayot haqiqatlarini qaytadan tiklash orqali namoyon bo'ladi. Estetik haqiqatning o'zi hayotni badiiy ijod qonunlari bilan aks ettirishi natijasida vujudga keladi. San'atning insonga ko'rsatadigan yana bir muhim ahamiyati shundaki, badiiy ijod nafaqat hayot haqiqatlarini ochib berishga ko'maklashadi, balki millionlab odamlarni mazkur haqiqatdan xabardor qiladi. Bu bilan san'at inson tafakkurida har qanday bo'shliqning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. *«Bugungi hayotimizning kechagi kunimizdan asosiy farqini topmoqchi bo'lsak, bu avvalo odamlar tafakkuri o'zgarib, aniqrog'i Yuksalib borayotgani bilan belgilanadi»* deb ta'kidlagan edilar yurtboshimiz. Darhaqiqat, zamonlar o'zgarishi insonning jamiyatga, tabiatga bo'lgan munosabatini ham o'zgartiradi. Mazkur jarayonlarda nafosatshunoslik amaliy jihatdan o'zini nafosatli tarbiya orqali namoyon etadi.

Nafosatli tarbiya insonda hayot va san'atdagi go'zalliklardan bahramand bo'lish, ularni baholash hamda o'zi ham go'zalliklar yaratish tuyg'ularini shakllantirishga ko'mak berar ekan, bu jarayon bir qator omillar va vositalar ishtirokida amalga oshiriladi. Oila, mahalla, maktabdan tashqari muassasalar (bog'cha, bog'cha-gimnaziyalar), maktab (akademik litsey, kasb-hunar kollejlari) badiiy-havaskorlik to'garaklari, oliy o'quv Yurtlari nafosatli tarbiyani shakllantiruvchi asosiy omillar sanaladi.

Mahallaning muhim omil sifatida shaxs nafosatli tarbiyasiga ta'siri katta bo'lib, mahalla o'ziga qarashli xududning tozaligi, obodligi hamda fuqarolarning hamjihatligini ta'minlashi, turmush nafosati va muomala madaniyatini shakllantirib, inson qalbida ijobiy tuyg'ular, umidbaxsh orzularni namoyon ettirishi, mahalliychilik va millatchilik singari salbiy holatlarga yo'l qo'ymasligi hamda qo'ni-qo'shnicilik munosabatlarini Yuksak darajaga ko'tarishi, san'at, adabiyot, madaniyat, ma'rifat arboblari, ilm ahllari ishtirokida bo'ladigan rang-barang mavzulardagi ma'ruzalarni, suhbatlarni uyushtira olishi bilan inson nafosatli tafakkurini shakllantirishda birlamchi maskan bo'lib hisoblanadi.

Inson o'zining ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida azaldan tabiat bilan hamkorlik qilib kelgan. Insonning tabiat bilan nafosatli tafakkuri to'g'ri tarbiyalanmaganligi hamda nafosatli «no'noqligi» bois, ular o'rtasida katta bo'shliq yuzaga kelib, ekologik muammolarni keltirib chiqardi. «Biz tabiatdan in'om-ehson kutib o'tirmaymiz, balki undan o'zlashtirish bizning burchimizdir» shiori ostida olib borilgan qabih siyosat ekologik inqirozni vujudga keltirdi. Jumladan, suv zahiralarning (yer osti va yer usti) keskin taqchilligi, Orol dengizining qurishi kabi xavfli holatlarni tilga olish o'rinli. Bu muammolarni ijobiy hal qilish esa inson ehtiyoji uchun zarur bo'lgan ko'plab tabiiy-moddiy boyliklarni tejab qolishga, atrof-muhit musaffoligini ta'minlashga, o'simlik va hayvonot olamini asrab qolishga va eng asosiysi, inson genofondining yo'q bo'lib ketishi xavfining oldini olishga imkoniyat yaratadi.

Nafosatli tarbiyaning barcha vositalari shaxsning voqelikka nafosatdor munosabatini ravnaq toptirishga xizmat qiladigan faoliyat bo'lib, o'ziga xos ta'sirchanlik, tug'yoniylik kuchiga ega. San'at, tabiat, urf-odatlar, mehnat, ommaviy axborot vositalari, sport nafosatli tarbiyani shakllantiruvchi va uning rivojlanishiga ko'mak beruvchi asosiy vositalardir. Tarbiyaning estetik shakli insonni go'zallik haqidagi tuyg'ulari, tabiatga bo'lgan munosabati, badiiy adabiyotga qiziqishi, jamiyatga bo'lgan qarashlarini go'zallik va ulug'vorlik asosida tarbiyalash vazifasini ado etadi.

7-mavzu. Mantiq ilmi predmeti va ahamiyati. Mantiq fani rivojining asosiy bosqichlari

1. *Mantiq – tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan*
2. *Tafakkur – mantiq ilmining o'rganish ob'ekti sifatida*
3. *Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari haqida tushuncha*
4. *Qadimgi Hindiston, Xitoy, Yunoniston va Rimda mantiqqa oid bilimlarning vujudga kelishi va taraqqiyoti. Yaqin, O'rta Sharq va Markaziy Osiyoda mantiqqa oid bilimlarning taraqqiy etishi*
5. *XX asrda mantiq ilmi rivoji*

Mantiq tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan bo'lib, Yunoncha «logika» atamasiga to'g'ri keladi. Mantiq arabcha so'z bo'lib, fikr, so'z, aql, farosat, qonuniyat kabi ma'nolarga ega. Tafakkur mantiq ilmini o'rganish ob'ektini tashkil etadi. Tafakkur arabcha so'z bo'lib, fikrlash, aqliy bilish degan ma'noni anglatadi. Tafakkur bilishning Yuqori bosqichidir. Tafakkurning mohiyatini yaxshiroq bilish uchun uning bilish jarayonida tutgan o'rni, bilishning boshqa shakllari bilan bilan munosabatini aniqlaymiz.

Bilish – voqelikning inson miyasida sub'ektiv, ideal obrazlar shaklida aks etishidan iboratdir. Bilish murakkab, ziddiyatli, turli daraja va shakllarda amalga oshadigan jarayon bo'lib, kishilar unda o'z oldilariga ma'lum bir maqsadlarni qo'yadilar. Bilishning dastlabki bosqichi – hissiy bilish bo'lib, unda narsa va hodisalarning tashqi xususiyatlari va munosabatlari, ularning tashqi tomonida bevosita namoyon bo'ladigan va shuning uchun ham inson bevosita seza oladigan belgilari haqida ma'lumotlar olinadi. Hissiy bilish sezgi, idrok, tasavvur shaklida amalga oshadi. Hissiy bilish tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'lib, nazariy bilimlarning chinligi oxir oqibatda empirik talqin qilish yo'li bilan asoslanadi va aql tomonidan boshqariladi. Hissiy bilish narsa-hodisalar haqida yetarli ma'lumot bera olmaydi, ba'zan hissiyot aldab qo'yadi. Narsa va hodisalarning mohiyati tafakkur yordamida anglashiladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichi bo'lib, unda narsa va hodisalarning umumiy va muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqa va bog'lanishlar aks ettiriladi.

Tafakkur «tushuncha», «hukm», «xulosa chiqarish» shaklida mavjud bo'ladi. **Tushuncha** – olamdagi narsa va hodisalarning umumiy muhim belgi va xususiyatlarining inson miyasida fikriy aks etishi natijasida paydo bo'ladi. **Hukmlarda** narsa va uning xossasi, narsalar o'rtasidagi munosabatlar, narsaning mavjud bo'lish yoki bo'lmaslik fakti haqidagi

fikrlar tasdiq yoki inkor shaklda ifoda etiladi. **Xulosa chiqarish** bir yoki bir necha fikrdan yangi fikr hosil qiladigan tafakkur shaklidir. Muhokama yuritishda ishonchli natijalarga erishishning zaruriy sharti fikrning chin bo'lishi va shaklan to'g'ri qurilishidir. Chin fikr – o'zi ifoda qilayotgan narsaga muvofiq keladigan fikrdir. (*temir – metall*). Xato fikr narsaga mos kelmaydigan fikrdir (*temir – metall emas*). Fikrning chin yoki xato bo'lishi uning mazmuniga bog'liqdir.

Formal mantiq to'g'ri tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi falsafiy fan bo'lib, muhokamani to'g'ri qurish bilan bog'liq qoida va mantiqiy amallarni tadqiq etadi. Dialektik mantiq tafakkurni uning mazmuni va shakli birligi hamda taraqqiyotida olib o'rganadi. Matematik mantiq tafakkurni matematik usulda tadqiq etadi.

Formal mantiqning asosiy qonunlari – tafakkur qonunlari fikrlash elementlari o'rtasidagi ichki, muhim, zaruriy aloqadorlikni ifodalaydi. Mantiqiy tafakkur dialektik va formallashgan mantiq qonunlariga bo'ysunadi. Dialektika qonunlari – ob'ektiv olam va bilishga xos bo'lgan eng umumiy qonunlardir. Formallashgan mantiq qonunlari tafakkurdagina amal qiladi. Tafakkur qonunlari fikrlashning to'g'ri amalga oshishini ta'minlaydi va tafakkur shakllari (*tushuncha, hukm, xulosa chiqarish*)ning o'zaro aloqasini ifodalaydi. Tafakkur qonunlari ob'ektiv mazmunga ega bo'lib, unga amal qilish to'g'ri, tushunarli, aniq, izchil, ziddiyatsiz, asoslangan fikr yuritishga imkon beradi. Fikrning aniqligi – narsa va hodisalarni bir-biridan farqlash, o'ziga xos tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Fikr aniq bo'lsa, har bir so'z, mulohaza ravshan ifodalanadi. Fikrda muayyan tartib, izchillik, ketma-ketlik mavjuddir. Bu ketma-ketlik tartib buzilsa fikr ham o'zgarib ketadi.

Ayniyat qonuniga ko'ra, ma'lum bir narsa yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda o'z-o'ziga tengdir.

A – A dir. *O'zbekiston kelajagi buyuk davlatdir. Bu yerda:*

a – har qanday fikrni ifodalovchi belgi;

a → a → implikatsiya;

a ↔ a → ekvivalentlik.

Sifat so'zi falsafada falsafiy kategoriya, mahsulot ishlab chiqarishda mahsulot sertifikat, ona tilida so'z turkumi bo'lib, turli holatda turli mazmunda ishlatiladi. Bu ayniyat qonunining noto'g'ri muhokama qilinishiga olib keladi. Buning uchun omonim va sinonimlarni puxta o'rganish kerak bo'ladi. Sofistlar ayniyat qonunini shu tarzda qo'llaganlari uchun Arastu ularni «soxta donishmandlik muallimlari» deb atagan.

Soʻzlar koʻp maʼnolarda qoʻllaniladi. Masalan, *ot – hayvon, ot – insonning ismi, ot – biror narsani tashlash, uloqtirish.*

Askiya, soʻz oʻyini, qiziqchilik sanʼatida ayniyat qonuni buziladi va tushunchalarning maʼnolari koʻchma maʼnolarda ishlatiladi. Bu esa mantiqiy xatolik boʻlib, kulgi, masxaraga sabab boʻladi. Ayniyat qonunining mohiyati tafakkurga xos boʻlgan aniqlik xususiyatidir. Ayniyat qonuni mantiqiy qonun boʻlib, uning talablari tafakkurning har bir shakliga xos boʻlgan konkret qoidalarda aniq ifodalanadi.

Nozidlik qonuni maʼlum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki oʻzaro bir-birini istisno qiluvchi qarama qarshi fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga toʻgʻri boʻlishi mumkin emasligini, hech boʻlmaganda ulardan biri albatta xato boʻlishini ifodalaydi. Bu qonun A ham B, ham B emas formulasi orqali ifodalanadi.

A → B ham emas, boʻla olmaydi.

Nozidlik qonuni qarama-qarshi va zid mulohazalarga nisbatan qoʻllaniladi. Qarama-qarshi mulohazalarning har ikkalasi ham bir vaqtning oʻzida xato boʻlishi mumkin. Qarama-qarshi mulohazalarda ulardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi kelib chiqmaydi. Oʻzaro zid mulohazalar bir vaqtda xato boʻlmaydi. Ulardan biri xato boʻlsa, ikkinchisi albatta chin boʻladi.

Yer oʻz oʻqi atrofida aylanadi. Chin fikr.

Quyosh Sharqdan chiqib, Sharqqa botadi. Xato fikr.

Bu shirin dori. Xato fikr.

Bu achchiq dori. Xato fikr, dori bemaza yoki nordon boʻlishi mumkin.

Fikrlash jarayonida vaqt, munosabat, obʼekt birligining saqlanishi nozidlik qonunining amal qilinishi uchun zaruriy shart-sharoit hisoblanadi. Nozidlik qonuni toʻgʻri fikr yuritish jarayonida amal qiladi. Nozidlik qonunini bilish va unga amal qilish raqib yoki suhbatdosh fikridagi notoʻgʻri mulohazalarni aniqlash va toʻgʻri tahlil qilish imkonini beradi.

Uchinchisi istisno (mustasno) qonuni fikrning toʻliq mazmunini qamrab bayon qilingan ikki zid fikrdan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga oʻrin yoʻq ekanligini ifodalaydi. Bu qonun tushunchalar oʻrtasidagi zid munosabatlarni aks ettiradi. Bu qonun A → B yoki B emasdir formulasi bilan belgilanadi.

Hasan imtihonda aʼlo baho oldi.

Hasan imtihonda aʼlo baho olmadi.

Bu yerda bir fikr chin, boshqasi xato, uchinchisiga oʻrin yoʻq. Bu qonun quyidagi holatlarda qoʻllaniladi.

a) alohida olingan yakka buyumga nisbatan bir xil vaqt va munosabat doirasida oʻzaro zid fikr bildirilganda.

Hasan – odobli bola. Hasan – odobli bola emas.

(Bu yerda fikrlarning biri chin, ikkinchisi xato)

b) son va sifatga ko'ra, o'zaro zid mulohazalar bayon qilinganda, narsa va hodisalar sinfi haqida tasdiqlangan mulohaza bilan shu sinf narsa va hodisalarning bir qismi haqida inkor etilgan mulohazalardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchisiga o'rin yo'q.

Hamma faylasuflar tabiatshunoslardir.

Ba'zi faylasuflar tabiatshunos emas.

Uchinchisi istisno qonuni quyidagi holatlarda qo'llaniladi:

a) *ikki zid yakka mulohazalarga nisbatan;*

b) *umumiy tasdiq va juz'iy tasdiq mulohazalarga nisbatan;*

v) *umumiy inkor va juz'iy tasdiq mulohazalarga nisbatan.*

Uchinchisi istisno qonunida ham nozidlik qonunidagi kabi vaqt, munosabat, ob'ekt aynanligiga rioya etishi shart, aks holda fikr izchilligiga zarar yetib, mantiqsizlikka yo'l qo'yiladi va qonun o'z kuchini yo'qotadi. Inson o'z fikrlariga asoslangan holda o'zaro zid mulohazalardan qay biri chin yoki xato ekanligini aniqlaydi. Bu qonun o'zaro zid mulohazalar bir vaqtda chin bo'lmasligini tasdiqlaydi. Uchinchisi istisno qonunini bilish orqali fikr yuritishda o'zaro zid fikrlarni aralashtirib yuborishga yo'l qo'yilmaydi.

Yetarli asos qonunini nemis matematigi va faylasufi G.Leybnits ta'riflab bergan. Uni fikricha, barcha mavjud narsalar o'zining mavjudligi uchun yetarli asosiga ega. Har bir buyum va hodisaning real asosi bo'lgani kabi ularning in'ikosi bo'lgan fikr-mulohazalari ham asoslangan bo'lishi kerak. Yetarli asos qonunida to'g'ri tafakkurning eng muhim xususiyatidan biri bo'lgan fikrlarning izchillik bilan muayyan tartibda bog'lanib kelish xususiyati ifodalanadi. Agar B mavjud bo'lsa, uning asosi sifatida A ham mavjud. *Masalan, Hasan kasal, u shifoxonada davolanyapti, bu yerda sabab (kasal) oqibat (davolanyapti).*

Fikr-mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jarayon bo'lib, shu mulohazaning chinligini tasdiqlovchi ishonchli va yetarli amallarning mavjudligi aniqlaydi. Ishonchli va yetarli dalillar ikki guruh – empirik va nazariy asoslarga bo'linadi. Empirik asoslar hissiy bilish va tajribaga asoslansa, nazariy asoslar aqliy bilish va tafakkurga asoslanadi. Tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganish fikrlash madaniyatini o'stiradi, mulohazalardagi xatolarni anglashga, bahs yuritishda o'zining va boshqalarning fikriga tanqidiy munosabatda bo'lishga, shuningdek, rost va yolg'onni farqlashga yordam beradi.

Intuitsiya (*lotincha – diqqat bilan tikilib qarayman*) – asoslashning sub'ektiv xarakterga bo'lgan usuli bo'lib, hech qanday muhokama va

isbotlarsiz to'g'ridan-to'g'ri haqiqatga erishish qobiliyatini ifodalaydi. Inson intuitsiya orqali murakkab hodisalarning mohiyatini uning turli qismlariga e'tibor bermagan holda, fikran yaxlit anglaydi. Intuitsiya har bir shaxsda o'ziga xos bo'lib, bu orqali erishilgan haqiqatga boshqalarni ishon tirish uchun yetarli hisoblanmaydi. E'tiqod inson hayot faoliyatida xatti-harakatlarini belgilab beradigan va uning dasturi bo'lib xizmat qiladigan qarashlar majmuidir. Kishilarning e'tiqodi turlicha bo'lishi mumkin. Diniy e'tiqod, axloqiy e'tiqod kabilar. E'tiqod chin mulohazalarga asoslangan bo'lsa, qalbda mustahkam o'rinishadi. **Avtoritet** (*hokimiyat, ta'sir*) biror mulohazaning chinligini asoslash uchun obro'li, e'tiborli, nufuzli manbalarga murojaat qilishdir. Unda nufuzli manba sifatida alohida shaxslarning fikr va mulohazalari, muqaddas kitoblarda yozilgan ilohiy so'zlar, xalq maqollari va matallari, qissa va rivoyatlari, donishmandlarning hikmatli so'zlaridan foydalaniladi. Masalan, Qur'on, hadis, buyuk mutafakkirlarning ibratli so'zlari, axloqiy qadriyatlar, xalq maqollari shular jumlasidandir: «*Beshikdan to qabrgacha ilm izla*», «*Yetti o'lchab, bir kes*», «*O'zingni bilsang, olamni bilasan*» va boshqalar.

Mantiq fani o'zining shakllanish va rivojlanish tarixiga ega bo'lib, ilk mantiqiy qarashlar Hindiston, Xitoyda vujudga kelgan. Uning shakllanishiga aniq va tabiiy fanlar, notiqlik san'ati, falsafiy bilimlar katta ta'sir ko'rsatgan. Qadimgi Hindistondagi mantiq ilmi rivoji uch davrni o'z ichiga oladi. Bular ilk Budda mantig'i, turli falsafiy maktablarning mantiqiy ta'limotlari va Budda mantig'ining rivojlangan davridir. Hind mantiqshunoslari «*bahs-munozarada nima isbotlanyapti va qanday isbotlanyapti*» degan masalani qo'yib, 5 qismdan iborat sillogizm nazariyasini yaratganlar:

Tezis (tepalikda olov bor)

Asos (tepalikdan tutun chiqayapti)

Misol (qayerda tutun bo'lsa, o'sha yerda olov bor)

Qo'llash (bu tepalikda tutun bor)

Xulosa (demak, tepalikda olov bor).

Budda mantig'i (*Budda – oydinlashgan, tiniqlashgan*) inson ruhiyatining ozod etilishi va xalos bo'lishiga qaratilgan bo'lib, uning qoidalari to'rt oliy haqiqatda aks etgan: a) *azob haqidagi haqiqat (dunyo azob-uqubatlari iborat, tug'ilish azob, qarilik azob, kasallik azob, o'lim azob, yomon ko'radigan kishing bilan uchrashish azob, sevimli kishingdan judo bo'lish azob)*. b) *azoblarning sababi to'g'risidagi haqiqat (ehtiros, xohish, istak azob bilan tugasa-da, inson ularni xohlayveradi)*. v) *azoblarning to'xtatilishi haqidagi haqiqat (xohish bartaraf etilsagina, xohish-ehtiros o'ladi va barcha azoblar to'xtaydi)*. g) *azoblarning*

sababidan xalos bo'lishning saxovatli yo'li haqidagi haqiqat (bunga erishish uchun to'g'ri tushunish, to'g'ri tafakkur, to'g'ri fe'l-atvor, to'g'ri turmush tarzi, fikrning to'g'ri yo'nalishi, diqqat-e'tiborni to'g'ri qaratish lozim).

Qadimgi Xitoy axloqshunosligida «*Buyuk ustoz*» nomi bilan mashhur bo'lgan Konfutsiy ta'limoti diqqatga sazovordir. Hind falsafasida asosiy fikr dunyodan qochish bo'lsa, Konfutsiy dunyoga moslashishni targ'ib qiladi: «*o'z-o'zingga ravo ko'rmaydigan narsani boshqalarga ravo ko'rma*». Konfutsiy fikricha, inson an'analarni astoydil o'rganish yordamida o'z vazifasini to'g'ri anglab yetishi mumkin.

Qadimgi Yunonistonda mantiq masalalari Fales, Parmenid, Zenon, Geraklit, Demokrit, Suqrot, Aflotun va Arastu tomonidan o'rganilgan. **Geraklit** (mil. av. 544-483 y.) bilishda hissiy bilish va kuzatishga tayangan. Uning fikricha, «*hamma narsa uzluksiz o'zgarish holatida bo'ladi, bir vaqtning o'zida oqayotgan daryoga ikki marta oyoq tiqib bo'lmaydi*». Geraklit olamni bilishda aqliy bilishni hissiy bilishga qarshi qo'yan: *borliq cheksizdir, faqat uch o'lchovli borliq mavjud, biroq borliqdan alohida uch o'lchovga ega bo'lgan makon yo'q.*

Qadimgi yunon faylasufi Zenon (mil. av. 336-264 y.) fikricha, *jism borliq, hajm va ko'lamga ega bo'lishi zarur, borliqdan tashqari biron bir bo'shliq mavjud emas.* Zenon harakatning mavjud emasligi haqida «*Dixotomiya*», «*Axilles*», «*Yoy*», «*Stadion*» nomli to'rtta aporiya yaratgan. Zenon o'z aporiyalarida «*jism borlig'i cheksiz bo'lsa-yu, vaqt cheklangan bo'lsa, u holda harakat boshlanmaydi, vaqt cheksiz davomiylikka ega bo'lsa, jism cheklangan masofani bosib o'ta olmaydi va harakat hech qachon tugamaydi, makon va vaqt birlikda olinganda ham harakat bo'lmaydi*» degan g'oyalarni ilgari surgan. Masalan, «*Axilles*» haqidagi aporiyada Zenon «*Axilles hech qachon toshbaqaga eta olmaydi, chunki bir nuqtadagi lahzalik tezlik, ya'ni tanani vaqtning bir cheksiz kichik lahzasi ichida fazoning bir nuqtasidagi tezlik tushunchasining bo'lishi mumkin emas*» deydi. Zenon aporiyalari o'z davri mantiq ilmi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Demokrit (mil. av. 460-370 y.) fikricha, *tafakkur orqali olingan bilimlar haqiqiy bilimdir. Aqliy bilish hissiy bilishga tayanadi. Haqiqatni bilish uchun yakka narsa-buYumlarni kuzatish, his qilish orqali umumlashtirish zarur.* Hukm S (sub'ekt) va P (predikat)ning o'zaro aloqasidan iboratdir. Demokrit fikrning chinligi masalasini tadqiq etib, induksiya va analogiyani o'rganishga alohida e'tibor qaratgan.

Suqrot (mil. av. 469-399 y.) fikricha, tabiatni o'rganish inson uchun yotdir, uni faqat xudo bilishi mumkin. Inson faqat o'ziga tegishli narsalarni,

ya'ni o'z-o'zini biladi. Bilim narsa haqidagi tushunchadir. Tushunchani aniqlash orqali bilimga erishish mumkin. Bilishning predmeti insonning maqsadiga muvofiq bo'lishi lozim. Narsa haqidagi tushunchalar ziddiyatli bo'lsa, demak bilim yuzaki bo'ladi. Suqrot haqiqatni aniqlashda induksiya va definisiyadan foydalanishni tavsiya etgan va narsalarning mohiyatini bilib bo'lmasligi, uni bilish uchun o'zini bilishi kerakligini ta'kidlagan.

Aflotun (mil. av. 427-347 y.) fikricha, umumiy tushunchalar bu Yumlardan va insonlardan ajralgan mutlaq g'oyalardir, hukm tafakkurning asosiy elementi bo'lib, ega va kesim birligidan iborat. Aflotun hukmlarni tashkil etuvchi tushunchalarni piramida shaklida tasvirlab, chin bilimga intuitsiya orqali erishilishini asoslagan. Suqrotning fikrini davom ettirib, Aflotun tur va jins belgisini ko'rsatish orqali ta'riflash usuli, tushunchalarning ikki xil, ya'ni qarama-qarshi bo'lishini ko'rsatib bergan:

A – B emas.

A – B dir.

B emas – S dir.

B emas – S emas.

Jonli mavjudotlar umurtqali va umurtqasizdir.

Ba'zi mavjudotlar umurtqali emas.

Ba'zi umurtqasiz mavjudotlar – hasharotlardir.

Umurtqali mavjudotlar – hasharot emas.

«Bir narsaning ham bo'lishi, ham bo'lmasligi mumkin emas».

Aflotunning bu fikri nozidlik qonuniga mos keladi.

Arastu (mil. av. 384-322 y.) birinchi bo'lib formal mantiqqa asos solgan. Mantiq ilmini «*ma'lum bilimlardan noma'lum bilimlarni aniqlovchi, chin fikrni xato fikrdan ajratuvchi fan*» sifatida ta'riflagan. Arastu «*Kategoriyalar talqini haqida*», «*Birinchi analitika*», «*Topika*» kabi asarlarida mantiq fanining vazifasi chin fikr, haqiqatni aniqlashdan iboratligini ko'rsatib, «*bilimlarimizning voqelikka mos kelishi haqiqatdir, haqiqatni aniqlashda nozidlik va uchinchisi istisno qonunlariga amal qilish lozim. Bir vaqtda, bir xil munosabatda aynan bir narsaga nisbatan o'zaro bir-birini istisno qiladigan fikrlarni bildirish mumkin emas, bu fikrlardan biri chin, boshqasi xato bo'lishi yoki har ikkisi ham xato bo'lishi mumkin. O'zaro ikki zid fikrning biri chin, boshqasi xato bo'lganda uchinchi fikrga o'rin yo'q*» deb yozgan.

Arastu mantiqni *isbotlash haqidagi ilm* deb, isbotlashni *yangi bilim beradigan sillogizm* deb ataydi.

Stoya maktabi vakillari birinchi bo'lib fanda «logika» terminini qo'llashgan va mantiqning maqsadi «*inson aqlini xatolardan asrash va haqiqatga erishishdir*» degan qarashni ilgari surishgan. Stoiklar fanlarni quyidagicha klassifikatsiya qilganlar: *mantiq – devor, fizika – hosildor tuproq, falsafa – daraxt, axloq – daraxt mevasidir*. Stoiklar oddiy

mulohazalardan murakkab mulohazalar tuzish haqidagi mulohazalar mantig'i nazariyasiga asos solib, dialektik va ritorik mantiqni rivojlantirganlar. Dialektik mantiq grammatika va bilish nazariyasini o'z ichiga olgan bo'lsa, ritorika notiqlik san'atidir. Ritorika sohasida Sitseron, Seneka shuhrat qozonganlar. Sitseron fikricha, donolarda tafakkur o'zining sof ma'nosida mavjud bo'ladi. Adolatli qonunlarni ishlab chiqishga qodir insonlar – donolardir. Donolar yurtida mukammal qonunlar ustuvor bo'ladi.

Epikur (mil. av. 341-270 y.) fikricha, tug'ma g'oyalar yo'q, bilimlarning manbai sezgilardir, sezgilarimiz yolg'on ma'lumot bermaydi, inson faqat xulosa chiqarish jarayonida xatoga yo'l qo'yishi mumkin deb, xulosa chiqarishda analogiya va induksiyaga ahamiyat bergan.

Skeptizm vakillari (*olamni bilish mumkinligiga shubha qiluvchilar*) Pirron, Arkesilay, Karnead, Sekst Empirik bilish jarayonining nisbiy xususiyatini mutlaqlashtirib, narsalarni haqiqiy bilish mumkin emas, chunki har bir da'vomizga unga zid bo'lgan ikkinchi da'voni qarama-qarshi qo'yish mumkin, degan qarashni ilgari surganlar.

Sharq Uyg'onish davri mantiq ilmi IX-XI asarlar Sharqda mantiq ilmi san'at darajasiga ko'tarilgan, ma'lum bilimlarni yaratish, asoslash va klassifikatsiya qilish, ta'riflash sistemalarini izga solgan.

Al-Kindiy (800-870) Arastu, Evklid asarlarini tarjima qilib, sharhlar yozgan. Kindiy fikricha, *mantiqiy isbotlashni tushunish va undan foydalanish uchun geometriyani o'rganish zarur. Arastu yaratgan qoidalarni tushunish uchun algebra va geometriyani bilish kerak. Biror buYumni isbotlashni uning mavjudligiga, borligiga ishonmasdan turib boshlash mumkin emas. Isbotlashning maqsadi, buyumni tashkil etuvchi shaklni o'rganishdan iboratdir.*

Abu Nasr Forobiy (873-950) «*Mantiq ilmiga kirish*», «*Aql haqida*», «*Shartli hukmlar*», «*Arastuning «Metafizika» kitobiga sharhlar*», «*Fanlar klassifikatsiyasi*» kabi asarlarida mantiq ilmi, narsa va buyumlar, ularning tuzilishi, ahamiyati haqida fikr yuritgan. Forobiy «*Ixson ul-ulum*» (ilmlar tasnifi) asarida «*uchinchi ilm logika (mantiq)dir. U ma'lum xulosalar kelib chiqishi logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi, bu xulosalar yordamida biz bilinmagan narsalarni bilib olamiz va nima to'g'ri va nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz.*

Al-Xorazmiy (780-847) «*Miftoh ul-ulum*» («*Ilmlar kaliti*») asarida fanlarni tasniflab, mantiq ilmiga alohida o'rin beradi. Arastu g'oyasini davom ettirib, aniq narsalarning xossalarni belgilash uchun «*individual*» tushunchasini kiritadi, individ masalasini birinchi o'ringa qo'yadi: shaxs – bu Zayd, bu kishi, bu ot, bu qo'y kabi ma'noni anglatadi. Shaxs – birlamchi

tushuncha. Hukm masalasiga alohida to'xtalib, hukmlarni modalligi bo'yicha lozim bo'lgan, mumkin bo'lgan, haqiqiy turlarga bo'lgan. Xorazmiy sillogizmi «*xulosa chiqarishning eng muhim ko'rinishi va nazariy bilimlarni egallashda asosiy vosita*» deb ataydi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) «*Donishnoma*» asarida mantiq ilmining asosiy qoidalari, tushuncha, hukm, xulosa chiqarishni batafsil tahlil qilgan. Uning fikricha, *mantiq ilmi – ma'lum bilimlardan noma'lum bilimlarni keltirib chiqarish, ularni bir-biridan farqlash, chin va xato bilimlar va ularning turlarini o'rganuvchi fan yoki nazariy san'atdir. Mantiq ilmi – olamni bilish uchun xizmat qiladi.* Ibn Sino tushunchalarni yakka va umumiy turlarga ajratib, *tushunchaning asosiy vazifasi, hukm va xulosa chiqarishni tashkil etish, ularga asos bo'lishdir* deb ta'kidlagan. Ibn Sino hukm va ularning tuzilishi, sub'ekt-narsa munosabatlarini tahlil etgan.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) R.Dekart va F.Bekonlardan olti Yuz yil muqaddam ilmiy bilish metodi, qoida va prinsiplarini ishlab chiqqan. Beruniy «*Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*» asarida bilishning asosiy usullari sifatida *aqlni bekorchi fikrlardan tozalash, tajribaga asoslanish, bilishni dastlab narsani tashkil etuvchi elementlardan boshlash, hissiy bilishga asoslangan deduksiyadan foydalanish, mantiqiy fikrlash, analiz-sintez, umumlashtirish, kuzatish, taqqoslash, qiyoslash orqali haqiqatga erishish, ma'lum narsadan noma'lum bo'lganiga, yaqindagisidan uzoqdagisiga qarab fikr yuritish, uzoq o'tmishni bilish uchun narsa, hodisaning tarixini va u xaqda boshqalarning bergan ma'lumotlarini o'rganish* deb ko'rsatgan.

Bahmanyor, Ibn Rushd, Nosiriddin Tusiy, Faxriddin Roziy, Qazviniy, Taftazoniy, Mirsharif Jurjoniy kabi Sharq mutafakkirlari mantiq ilmi rivojiga samarali ta'sir ko'rsatganlar. Mantiq ilmini «*mavjud bilimlar asosida haqiqatga erishish yo'llarini o'rganuvchi fan*» deb ta'riflaganlar.

Evropa Uyg'onish davri mantiq ilmi tabiatshunoslik fanining rivojlanishi ilmiy uslub masalalariga e'tiborni kuchaytirdi. F.Bekon, R.Dekart, T.Gobbs, G.Leybnits Ovropa Uyg'onish davri mantiq ilmi rivojiga katta hissa qo'shdilar.

Frensis Bekon (1561-1626) «*Yangi Organon*», «*Fanlarning buyuk uyg'onishi*», «*Fanlarning afzalliklari*» asarlarida ilmiy induksiya metodini ishlab chiqdi va Arastuning mantiqiy ta'limotini tanqid qildi. Bekon fikricha, *sillogizm – gaplardan, gaplar esa so'zlardan tuziladi, so'zlar narsalarni bildiradi. So'zda ifodalanmagan tasavvur xato bo'lsa sillogizm buziladi.* Bekon induksiyaning yordamchi usullarini yaratdi va induksiyaning xulosa chiqarishning asosiy shakli deb bildi. Istisno qilishga asoslangan induksiya nazariyasini isbotlab, *induksiyaning maqsadi maksimal darajada*

faktik materiallarni taqqoslash va o'rganilayotgan voqealarning nomuhim tomonlarini istisno qilish va shu asosda ularning muhim tomonlarini aniqlashdir, degan g'oyani ilgari surdi. Bekon mantiqni ilmiy uslub haqidagi fan ekanligi, ilmiy uslubni qo'llash yangi haqiqatlarni ochishga olib kelishini e'tirof etgan.

T.Gobbs (1588-1679) Bekonning yo'lini davom ettirib, «*Falsafa asoslari*» asarida mantiqiy tushunchalarni ta'riflashga katta ahamiyat berdi. Gobbs til va tafakkur birligini tan olgan holda, hukmlar chin yoki xato bo'lishi mumkin deydi. U nomlarni tushunchalar bilan, gaplarni hukmlar bilan tenglashtiradi. Gobbs fikricha, *sillogizm uchta gapdan iborat bo'lgan mulohazadir. Uchinchi gap ikkita avvalgi gapdan kelib chiqadigan mulohazalardir.* Gobbs mantig'ida ratsionalizm ustunlik qilsa ham, mantiq faniga genetik ta'riflashni kiritdi. Uning fikricha, *narsalarning qismlarini sanash orqali ham ta'riflash mumkin, faqat ta'rif isbotlashning asosi bo'la oladi. Mantiqning vazifasi narsalarni tushunishda yoki bilimlarni boshqa kishilarga yetkazib berishda aql foydalanadigan belgilar tabiatini o'rganishdan iborat.*

R.Dekart (1606-1650) «*Uslub haqida mulohazalar*», «*Falsafa muqaddimasi*» asarida bilishning ilmiy uslubini xarakterlaydigan asosiy qoidalarni ishlab chiqdi va mantiq ilmi rivojlanishida ilmiy masalalarni hal etishda katta ishlarni amalga oshirdi. Dekart fikricha, *intuitsiya xayoliy narsa emas, balki sog'lom aqlda tug'iladigan barqaror va aniq tasavvurdir. Intuitsiya yordamida inson o'z-o'zini biladi, atrofdagi narsahodisalarni ko'radi, har qanday kishi o'zining mavjud ekanligini intuitsiya orqali anglaydi. Deduksiya avval bilingan narsalar asosida bilishni ta'minlaydigan jarayondir. Deduksiya yordamida fikrning muntazam harakati bilan xulosa qilinadi. Narsalar induktiv va deduktiv yo'l bilan bilinadi.* Dekart fikricha, *bilishning ibtidosi intellektual intuitsiya, bilishning yagona usuli deduktiv metoddir.*

Dekart bilishda tafakkurning ahamiyatini bo'rttirib ko'rsatsa ham, bilishda sezgi va tajribaning ahamiyatini butunlay rad etmasdan, ularni aql va deduksiya yordamida erishilgan bilimlarni yana bir karra qayta isbotlash vositasi sifatida talqin qilgan. Uning fikricha, *to'g'ri fikrlash prinsiplari chinligi o'z-o'zidan ravshan bo'lmagan fikrni chin deb qabul qilmaslik, mulohazalarga aqlga aniq va ravshan bo'lib tuyulgan va shubhaga o'rin qoldirmaydigan fikrlarni kiritishdan iboratdir.*

Por-Royal mantig'i (*mantiq yoki fikrlash san'ati*) Dekart mantig'iga asoslanadi. Por-Royal mantig'i vakillari g'oyalarni umumiy, juz'iy, yakka turlarga ajratib, *bir buyumni ifodalagan g'oya – yakka, ko'p buyumlarni ifodalagan g'oya – umumiy g'oya – jins bo'ladi* deyдилar. Por-Royal

mantig'i vakillari hukmlar haqidagi ta'limotni Arastu mantig'iga asoslangan holda ijodiy rivojlantirganlar. Xulosa chiqarishda biror hukmning chinligi yoki xatoligi masalasi hal qilinishi asoslangan. Por-Royal mantig'iga ko'ra, xulosa chiqarishda 2 asos va bir xulosa ishtirok etadi.

Ba'zi katta shaharlar poytaxtdir.

Toshkent – katta shahar.

Toshkent – poytaxt shahardir.

Por-Royal mantig'i vakillari xulosa chiqarish tizimini kengaytirib, deduksiyani induksiyaga qarama-qarshi qo'ydilar, lekin ularning o'zaro aloqadorligini ko'rsatmadilar.

G.Leybnits (1646-1716) «*Inson aqli haqida tajribalar*», «*Monadologiya*» asarlarida tafakkur qonunlarini qayta ko'rib chiqqan va birinchi o'ringa ayniyat qonunini qo'yib, unga ontologik ta'rif bergan.

«Har bir buyum shu buyumning o'zidadir».

A – A dir, B – B dir.

Ziddiyat qonuniga ko'ra, bir vaqtda buyum ham mavjud, ham mavjud emas. Narsa A bo'lsa, A emas bo'la olmaydi. Har bir gap yoki chin yoki xato bo'ladi. Demak, a) *bir gap ham chin, ham xato bo'lmaydi*; b) *haqiqat va yolg'on o'rtasida hech narsa yo'q, ya'ni gap chin ham, xato ham bo'lmasligi mumkin emas.*

Yetarli asos qonuniga ko'ra, hamma mavjud narsalar mavjud bo'lishi uchun yetarli asosga ega, yetarli asossiz biron bir voqea chin, haqiqiy bo'lmaydi. Mantiqiy qonunlar bilish jarayoni uchun ahamiyatlidir. Leybnits simvolik mantiqqa (belgilar mantig'i deb ataladi) asos solib, tafakkurning turli jarayonlari, jumladan, tafakkur shakllari va qonunlarini ifodalashda matematik usullardan foydalanish yo'llarini ko'rsatgan. Leybnits fikricha, *mantiq fanining predmeti bilimning mazmunini o'rganish, vazifasi esa tafakkurning formal aloqalarni tasvirlashdir.*

Xristian Volf (1676-1754) mantiqda aql masalasini keng tadqiq etadi. Volf fikricha, *aqliy bilish xulosa chiqarishga asoslanadi. Bilimlar aprior (tajribadan tashqaridagi bilim) yoki aposterior (tajribadan hosil qilingan bilim) yo'l bilan hosil qilinadi. Mantiq haqiqatni bilish va xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun bilish qobiliyatlarini qo'llashga o'rgatuvchi fan bo'lib, amaliy va nazariy qismga bo'linadi. Nazariy qism – tushuncha, hukm, xulosa chiqarishni o'rgatsa, amaliy qism – bahs-munozara jarayonida, mutolaa qilganda, fikrni bayon qilganda, umuman amaliy hayotda haqiqatni aniqlashga o'rgatadi. Bilish uch qismda amalga oshadi: tushuncha, hukm, xulosa chiqarish. Hukm ikki tushunchadan tarkib topadi. Xulosa berilgan hukmlardan yangi hukmni hosil qilishdir.*

M.Lomonosov (1711-1765) mantiq ilmi bilan shug'ullangan birinchi rus olimi bo'lib, uning «*Notiqlikdan qisqacha qo'llanma*» asari darslik sifatida qo'llanilgan. Uning fikricha, bilim manbai borliq bo'lib, bilishning vositalari tajriba va eksperimentdir. Lomonosov hukmlarni umumiy va yakka turlarga ajratib, xulosa chiqarishni tasnif etgan. Uning fikricha, *bo'lakdan butunga qarab, nomidan, ta'sirdan, vaqt, o'rin, sharoitdan, kelib chiqishdan, tenglamalardan, avvalgi va keyingilardan, sababdan, o'xshash buyumlardan qarama-qarshi va o'xshash bo'lmagan buyumlardan xulosa chiqarish mumkin.*

Rus mantiqshunosi **L.Rutkovskiy** (1859-1920) «*Xulosa chiqarishning asosiy turlari*» asarida xulosa chiqarishni klassifikatsiya qilgan. **N.Vasilev** (1880-1940) formal analogiyani **L.Lobachevskiyning** noevklid geometriyasi bilan birlashtirgan. **P.S.Poretskiy** (1846-1907) matematik mantiq rivojiga muhim hissa qo'shgan. **V.Gershel** (1792-1871) ilmiy induksiyaning asosiy usullarini ko'rsatib bergan.

Nemis klassik falsafasining asoschilaridan biri **I.Kant** (1724-1804) Arastuning mantiqiy ta'limotini rivojlantirgan holda yangi mantiqiy sistema yaratib, tafakkur shakllari o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilishga alohida ahamiyat bergan. Aqlning negizini tashkil etuvchi reallik, inkor, chegara, to'plam, yaxlitlik, sababiyat, o'zaro ta'sir, imkoniyat, voqelik, zaruriyat kabi kategoriyalarini tasnif etgan. Bevosita va bilvosita xulosa chiqarish turlarini farqlagan. Kant transendental mantiqni yaratgan. *Transendental bilim «apriori» bilimlarning alohida shakli bo'lib, tasavvurlarimizning tajribaga hech bir aloqasi yo'q aql tomonidan hosil qilingan mazmuni tushuniladi.*

F.Gegel (1770-1831) fikricha, *falsafa mantiq shaklida bo'lib, uning o'rganish ob'ektini tafakkur tashkil etadi va mantiq ilmi butun borliqni o'zida gavdalantiradigan tafakkurning eng umumiy, zaruriy xususiyatlarini o'rganuvchi ta'limotga aylanadi. Dialektik mantiqning asosiy vazifasi haqiqatni aniqlash va unga erishish yo'llarini o'rganishdir.*

Gegel haqiqatni jarayon sifatida olib qaraydi, uni dialektik metod prinsiplari asosida tushuntiradi. Gegel mantiqni fikrni tafakkurning tarkibiga kiradigan, uning o'zi tomonidan yaratilgan mazmundan boshqa mazmunga ega emas narsa deb ta'riflagan.

XIX asr mantiq ilmi rivojiga **K.Popper**, **E.Voyshvillo**, **V.Smirmov**, **J.Bul**, **Ch.Pirs**, **G.Frege** o'z hissalarini qo'shganlar.

1. *Tushuncha – narsa va predmetlarning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi mantiqiy shakl*
2. *Tushunchalarning turlari. Tushunchalarni ta’riflash*
3. *Hukm tafakkur shakli sifatida. Oddiy hukm va murakkab hukmlar. Hukmlar o’rtasidagi munosabatlar*
4. *Savol fikrning maxsus shakli sifatida. Mantiqan to’g’ri va noto’g’ri qo’yilgan savollar. Me’yor va hukm*

Tushuncha narsa va hodisalarning umumiy, muhim belgilarni aks ettiruvchi tafakkur shakli bo’lib, tushunchalar ob’ektiv borliqni inson ongida aks etishi natijasida paydo bo’ladi. Tushuncha voqelikdagi narsa va hodisalarning umumiy jihatlarini aks ettiradi. Odam hamma narsaga ega bo’lgan barcha xususiyatlar – uy, daraxt, mashina, kitob kabilarda ularga tegishli bo’lgan belgilarni aks ettiradi. Narsaning belgilari cheksiz. Masalan, *baliq tushunchasini olsak, u umurtqali, jonli mavjudot, nafas oladi, oziqlanadi, ko’payadi, o’ladi, uning faqat baliqlarga xos muhim belgisi oyquloq bilan nafas olishi va suvda hayot kechirishidir. Bu baliqning o’ziga xos, muhim, umumiy belgisidir.*

Muhim belgi narsalarning asosiy tomoni, mohiyatini ifodalaydi. Masalan, millatning muhim va farqli belgilari – til birligi, e’tiqod birligi, chegara birligi, iqtisodiy birlik va madaniyat birligida namoyon bo’ladi. Bu belgilarning birortasi bo’lmasa millat millat bo’la olmaydi. Tushuncha so’zda ifodalanadi, so’z esa mantiqiy ahamiyatga ega bo’ladi.

Turli so’zlar ma’lum bir tushunchani ifodalasa, sinonim (*o’xshash*) deyiladi. Masalan, yer, zamin, tuproq, quyosh, oftob, kun so’zlarida ifodalangan tushuncha narsa va hodisalarning mohiyatini aks ettirsa, ilmiy tushuncha hisoblanadi. Masalan, *hayot – tiriklik manbai, jonsiz tabiatdan farqli bo’lib, oddiy tushunchadir. Agar hayot modda almashishi natijasidagi rivojlanish ekani ko’rsatilsa, ilmiy tushuncha bo’ladi.*

Tushuncha voqelikdagi narsa va hodisalarni aks ettiradi va uni turlicha tilda aytilsa ham mazmun-mohiyati o’zgarmaydi:

Kitob – kniga – book – كتاب

Nom – tushunchalarning narsa va hodisalarning o’zini bildiradigan so’z va so’z birikmalari bilan ifodalanishi bo’lib, yakka narsalarni (*Toshkent, Namangan, Buxoro*), bir guruh narsalarni (*xalq, o’rmon, shahar*) hodisa va jarayonlarni (*refleks, harakat, to’y*) aks ettiradi. Bir narsaning nomini o’zgartirish bilan uning o’zini ham o’zgartirib bo’lmaydi. Har qanday tushuncha o’zining mazmuni va hajmiga ega bo’lib, tushunchaning

mazmuni unda ifodalangan narsalar belgilarining yig'indisidan iborat. Tushuncha o'z mazmunida unda ifodalangan narsalarning muhim va umumiy belgilarini aks etiradi.

Tushunchaning hajmi tushunchalar aks etgan narsalar yig'indisidan iboratdir. Agar tushunchalar olamdagi narsa va hodisalarni to'g'ri aks ettirsa *to'g'ri tushuncha* deyiladi. Agar tushunchalar narsa-hodisalarni noto'g'ri aks ettirsa *yolg'on tushuncha* deyiladi. Borliqdagi narsa-hodisalarning mohiyati chuqur anglashilib borishi bilan tushunchalarning mazmuni va hajmi ham o'zgarib boradi. Tushuncha mazmunining o'zgarishi uning hajmi o'zgarishiga olib keladi, shuningdek, tushunchalar hajmining o'zgarishi ham uning mazmuni o'zgarishiga olib keladi.

Tushunchalar hajmi jihatidan yakka va umumiy tushunchalarga bo'linadi. *Yakka tushunchalar* ob'ektiv olamdagi ayrim, alohida narsa-hodisalarning umumiy va muhim tomonlarini aks ettirish orqali hosil bo'ladi (*Samarqand, Farg'ona, Xorazm*). Bir yoki bir necha guruh narsalarning muhim va umumiy tomonlarni aks ettiruvchi tushunchalar umumiy tushunchalar deyiladi (*kitob, jamiyat, fabrika, estrada, adabiyot, kompyuter*). Chegaralangan aniq tushunchalar ma'lum miqdordagi narsalarni umumiy aks ettiradi (*O'zbekiston shaharlari, oliy o'quv Yurtlari*). Umumiy tushunchalar chegaralanmagan miqdordagi narsalarni ham aks ettirishi mumkin (*shahar, olimpiada, olam, krossvord, avtobus, kollej*). Umumiy tushunchalar hajmi yo'q (nol) tushunchalarni ham aks ettiradi (*suv parisi, jin, tush, xayol, ruhiy kechinmalar*). To'plama tushunchalar bir to'plam, bir guruh narsalarning bir butun, yaxlit holda aks ettirilishidir (*xalq – yaratilgan, Alloh yaratgan maxluqotlar ichida aqli va tafakkuri, ijodkorlik qobiliyatiga ega insonlar*). Tushunchalar mazmuniga ko'ra, konkret va abstrakt tushunchaga bo'linadi. Real narsa-hodisalarni aks ettiruvchi tushuncha konkret (*yer, o'yinchoq, stol*) tushuncha, narsadan fikran ajratib mavhumlashtirilgan, ma'lum xususiyat va belgilar aks ettirilgan tushuncha abstrakt (*sog'inch, bahs, mo'jiza, qahramon*) tushuncha deyiladi. Tushunchalar nisbatdosh va nisbatsiz, ijobiy va salbiy bo'ladi.

Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar. Olamdagi barcha narsa va hodisalar o'zaro bog'liq bo'lib, ma'lum aloqa va munosabatda bo'ladi. Tushunchalar taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan tushunchalarga bo'linadi. Taqqoslanadigan tushunchalar sig'ishadigan va sig'ishmaydigan tushunchalarga bo'linadi. Agar tushunchalarning hajmi bir-biriga to'la yoki qisman mos kelsa, hajm jihatidan ikkinchisining hajmiga kirsam – sig'ishadigan munosabatdagi tushunchalar deyiladi (*kitob – darslik*). Agar tushunchalarning hajmi bir-biriga zid bo'lsa, o'zaro sig'ishmaydigan tushunchalar deyiladi (*do'st – dushman, hayot – o'lim*).

Sig'ishadigan tushunchalar o'rtasida ayniyat, bo'ysunish, qisman mos kelish munosabatlari bo'lib, tushunchalarning hajmi ayniyat munosabatida to'la mos keladi, ya'ni belgilar mazmun jihatidan ayni bir predmetni turli tomondan ifodalaydi.

A. Toshkent

B. O'zbekiston Respublikasi poytaxti

Qisman moslik munosabatida tushunchalar mazmun jihatidan bir xil bo'lsa ham, ularning hajmlari bir-biriga mos keladi:

A. Oliy o'quv yurti o'qituvchilari

B. Professorlar

Bo'ysunish munosabatida bir tushunchaning hajmi boshqa bir tushunchaning hajmini o'zining bir qismi sifatida o'z ichida oladi:

A. Fan yoki A. Ziyoli

B. Mantiq B. Injener

Sig'ishmaydigan tushunchalar o'rtasida birga bo'ysunish, qarama-qarshilik, zidlik munosabatlari bo'lib, birga bo'ysunish munosabatida bir necha tushunchalar bir tushunchaga bo'ysunadi.

B, C, D, E, G', K, M. – axloq, din, siyosat, falsafa, sotsiologiya, politologiya, tarix

A – ijtimoiy ong shakllari

Qarama-qarshi munosabatdagi tushunchalar o'zining hajmi va mazmuni jihatidan bir-biriga teskari, qarama-qarshidir (oq-qora, uzun-qisqa, yaxshi-yomon). Bu tushunchalarning biri ikkinchisini inkor qiladi:

A. – oq

B. – qora

Zid tushunchalar bir-birini inkor qilsa ham, inkor etgan tushuncha noaniq bo'ladi:

past yoki go'zal

past emas yoki go'zal emas

Zid tushunchalar uchinchi tushunchaga o'rin qoldirmaydi. Shuning uchun har ikki tushunchadan biri rost bo'lsa, ikkinchisi albatta xato bo'ladi, uchinchisining bo'lishi mumkin emas. Bu tushunchalar o'rtasida formal mantiqning uchinchisi istisno qonuni amal qiladi.

Tushunchalarni bo'lishda bo'linuvchi tushunchaning hajmi ma'lum asosda aniqlanadi, ya'ni u ma'lum tur tushunchalariga taqsimlanadi va natijada tur tushunchalari hosil bo'ladi. Tushunchalar hajmi tushunchada aks etgan narsalarning yig'indisidan iborat bo'lib, tushunchani bo'lish orqali bilimlar konkretlashadi, ular o'rtasidagi farq ortadi, bilimlar yanada konkret, aniq tus oladi:

1 yil → 12 oy → 365 kun → soat → daqiqa → soniya

Bo'lish qoidalari. 1. *Bo'lish teng hajmli bo'lishi kerak, bo'linuvchi tushunchaning hajmi bo'linmalarga teng bo'lishi kerak.*

2. *Bo'lish bo'lishga asos qilib olingan asosida izchillik bilan davom etishi kerak. Boshqa asosga o'tib ketmaslik lozim.*

3. *Bo'lish bo'laklari – bo'linma bir-birini istisno qilishi kerak.*

4. *Bo'lish to'g'ri, izchil bo'lishi va unda sakrash bo'lmasligi kerak.*

Klassifikatsiya (turlarga bo'laman) bir-biriga o'xshash va farq jihatlariga ko'ra, ma'lum guruh, sinf, tur turkumlarga bo'lishdir. Tabiiy klassifikatsiyada narsa-hodisalarning muhim belgisi, ularda amal qiladigan qonuniyatlarga qarab sinf, guruhlarga bo'linadi va narsalarning belgilari hisobga olinadi, bu esa narsaning xususiyati haqida fikrlashga imkon beradi. Yordamchi klassifikatsiya boshqa sinfga tegishli narsalar orasida individual narsalarni osonroq topish va farqlash uchun qo'llaniladi:

NamDU → *Pedagogika fakulteti* → 201, 202, 203, 207, 208, 209.

Yordamchi klassifikatsiya narsalarning mohiyati haqida xabar bermaydi. Sun'iy klassifikatsiya narsalarni tashqi tomondan sun'iy ravishda ifodalaydi (*kitoblar katalogi*).

Tabiiy klassifikatsiya ilmiy klassifikatsiya deb ataladi, chunki unda narsa-hodisalarning qonuniyatli bog'lanishlari, belgilari asos qilib olingan. Ilmiy klassifikatsiya narsalar, ularning guruhi, sinfi, turlari haqida xulosa chiqarish, umumiy jarayonlarni ochishga yordam beradi.

Tushunchalarni ta'riflash (definisiya) tushunchaning mazmun-mohiyati, muhim belgilari ta'riflashda aks etadi. Ta'riflash orqali bilishning quyidagi vazifalari hal etiladi:

a) *tushunchada aks etuvchi narsaning muhim belgilarini ko'rsatadi;*

v) *tushunchani ifoda qiluvchi so'zning ma'nosini ochib beradi;*

s) *termin hosil qilishga yordam beradi.*

Kvadrat tushunchasining belgilari teng tomonli, to'g'ri burchakli ko'pburchak, geometrik figura va boshqalar. Kvadratning o'ziga xos xususiyatlari teng tomonli va to'g'ri burchakli to'rtburchak bo'lishidir.

Ta'riflash ilmiy bilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ta'riflashning nominal va real turlari mavjud. Nominal (*yunoncha nomina – ism, nom*) ta'rif ma'lum narsa-hodisalarni ifodalaydigan so'z yoki terminning asl ma'nosini bilishda ishlatiladi. Masalan, *reja – fors-tojik tilidan olingan bo'lib, biror ishni tartibi bilan va o'z vaqtida bajarish uchun oldindan belgilab olingan aniq yoki taxminiy mo'ljal, chiziq, tartib, qoidadir.*

Nominal ta'rif berilgan terminning ma'nosini ochish uchun qo'llanilsa, real ta'rifda tushunchani ifodalagan so'z, termin emas, balki tushunchada ifodalagan predmetning mohiyati va muhim belgilari ochib beriladi (*biologiya Yunoncha bio – hayot, logos – ta'limot so'zlaridan olinib, hayot*

haqidagi fan degan ma'noni bildiradi (nominal ta'rif). Biologiya – hayot qonunlari va jonli mavjudotlarning o'sishi haqidagi fandır (real ta'rif).

Genetik ta'rifda tushuncha ifodalagan narsa-hodisaning kelib chiqishi, tarkibiy tuzilishi ifodalanadi

Ta'riflash qoidalari. Ta'riflashning umumiy, barcha fanlar uchun xos bo'lgan mantiqiy qoidalari bo'lib, ularga amal qilinmasa, xatolar kelib chiqishi mumkin:

a) ta'riflash teng hajmli bo'lish kerak. Masalan, tafakkur – bilishning oliy bosqichi yoki teorema – to'g'riligi muhokama yo'li bilan ishonch hosil qilinadigan matematik ifodadir.

b) ta'riflashda eng yaqin jins tushunchasini olish kerak. Masalan, Tavrot – yahudiylik dinining muqaddas kitobi.

v) ta'rifda tur belgisi ta'riflanuvchi narsaga tegishli bo'lishi va uning barcha narsadan farqini ko'rsatib berishi kerak. Masalan, predmet – sezgi organlari orqali his qilinadigan har qanday moddiy narsa, voqea, hodisa.

g) ta'rif inkor shaklida bo'lmasligi kerak, masalan, ijobiy narsa salbiy emas, balki ijobiy maqtovga sazovor bo'lgan narsa deyilsa to'g'ri bo'ladi.

d) ta'rifda qaytarish bo'lmasligi kerak: Masalan, odam insoniy fazilatlarga ega bo'lgan kishi degan ta'rifda qaytarish bo'lib, ta'riflash ta'riflanuvchi tushunchalar orqali ifodalanmoqda. Bu xato mantiq ilmda tautologiya deyiladi. Tautologiya – fikrni keragidan ortiq qaytarishdir.

d) ta'riflashda fikrlar aniq bayon qilingan bo'lishi kerak. Noaniq fikr to'g'ri ta'rifga olib kelmaydi. Masalan, sazan – karplar oilasiga mansub baliq turi. Sazan – suvda yashovchi tanga baliq.

e) ta'riflashda obrazli so'z va ibora bo'lmasligi kerak. Masalan, xayol – uchqur ot, xayol – biror ish-harakatni amalga oshirish haqidagi o'y, niyat, istak, fantaziya.

Bilish jarayonida tushunchani ta'riflash mumkin bo'lmagan o'rinlarda ta'rifga o'xshash usullardan foydalaniladi. Ular ko'rsatish, tasvirlash va tavsiflash, o'xshatish va tafovutlashdir. Tasvirlash badiiy asarlarda voqealar bayoni, tabiat manzarasi, she'riyatda qo'llaniladi. Masalan,

«Ko'zda nurning nuri ko'ngil nuridir,

Nur, ko'zning nuri, qalbning qo'ridir». (J.Rumi)

Tavsiflashda aynan bir narsaga bo'lgan muhim xususiyatlarning belgilari ko'rsatiladi.

201 guruhi talabasi Ahmedova Komilaga berilgan tavsifnoma.

Tafovutlash – narsa-hodisalar o'rtasidagi o'ziga xos xususiyat, farq, birini ikkinchisidan ajratuvchi belgi.

Puxta holin bilgaymi, hech xom...

Zar qadrini zargar bilar.

O'xshatish – narsa-hodisani ma'lum umumiylikka ega bo'lgan boshqa narsa yoki hodisa bilan taqqoslash orqali ifodalash.

Bolaning yoshligi xuddi otasinikiga o'xshaydi.

Ko'rsatish – narsa-hodisalarning biror xususiyatga tegishli ekanligini dalil, isbotlar asosida ko'rsatib berish.

Do'stlik boshga og'ir kulfat tushganda bilinadi.

Ilmiy tadqiqot natijasini dissertatsiya himoyasi ko'rsatadi.

Tushunchalarni umumlashtirish orqali umumiy tushunchadan eng umumiy tushunchaga boriladi. Eng umumiy tushuncha umumlashtirishning so'nggi bosqichi bo'lib, kategoriyalar (yunoncha – tur, turkum, daraja, ko'rsatma) deyiladi.

Kategoriya – olamdagi narsa-hodisalarning eng umumiy xususiyatlari, aloqa va munosabatlarini aks ettiruvchi eng umumiy tushunchadir. Har bir fan o'z kategoriyasiga egadir. Mantiq ilmining asosiy kategoriyasi mantiqiy qonunlar, tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, argumentlash, isbotlash, raddiya, muammo, gipoteza, nazariya, analogiyadir.

Chegaralash – hajmi kengroq tushunchalarni hajmi torroq tushunchalarga keltirish bo'lib, tushunchalarni chegaralash orqali eng umumiydan umumiy va yakka tushunchaga boriladi. Yakka tushuncha tushunchani chegaralashning oxiridir (*olam – mavjudot – hayvonot – umurtqalilar – sut emizuvchilar – ot – «Saman»*).

Hukm – tafakkur shakllaridan biri bo'lib, narsa-hodisalarda biror belgining bor-yo'qligi tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi. Fikrlash jarayonida narsa-hodisaning oddiy tashqi xususiyati bilan birga uning ichki, zaruriy bog'lanish va munosabatlari bilinadi. Hukmda hamma vaqt tasdiq yoki inkor bilan aytilgan fikr bo'ladi:

«Temir – qattiq jismdir».

«Ba'zi yoshlar – talaba emas».

Fikrlar haqiqiy (*to'g'ri*) va yolg'on (*xato*) bo'lishi mumkin:

«Ot – sut emizuvchilar oilasiga kiradi» (To'g'ri hukm).

«Ot – sudralib yuruvchilar oilasiga kiradi» (Xato hukm).

Voqelikka mos kelish darajasiga ko'ra chin, xato va noaniq hukmlar bo'ladi. Ob'ektiv voqelikka mos kelgan, uni to'g'ri ifodalagan hukmlar chin, mos kelmaganlari esa xato bo'ladi. Ayni paytda chinligini ham, xatoligini ham aniqlab bo'lmaydigan hukmlar noaniq hukm deyiladi. Hukmlar darak gap orqali ifodalanadi, chunki darak gapda fikr tasdiq yoki inkor holda bo'ladi: *«Toshkent – O'zbekistonning poytaxtidir».*

Hukmning haqiqat yoki haqiqat emasligini tekshirish kontekstni analiz qilish asosida aniqlanishi lozim (*universitet so'zi hukm emas, tushunchadir. Agar bu so'z universitet binosiga yozib qo'yilgan bo'lsa, (Namangan davlat*

universiteti), u holda hukm bo'ladi. Chunki «bu – universitetdir» degan ma'noni bildiradi. Yana bir misol, «Ahmad» tushuncha, «204 guruhi talabasi» deyilsa, hukm bo'ladi.

Oddiy hukmning tarkibi, uning turlari. Hukm ega (S) va kesim (P) hamda bog'lovchilardan tashkil topadi. Hukm sub'ekti fikrimizdagi narsani bildiradi. SHuning uchun hukmdagi fikr nimaga qaratilgan bo'lsa, o'sha uning sub'ekti hisoblanadi. **S – P dir.**

«Mantiq – to'g'ri tafakkur shakli va qonunlarini o'rganadigan fandır».

Hukm predmeti to'g'risida tasdiq yoki inkor qilib aytilgan qismi predikat deyiladi. Bog'lovchi S va P o'rtasidagi aloqani ifodalaydi. («dir», «emas»)

S – P dir (tasdiq hukm). «Barcha talabalar yoshlardir».

S – P emas (inkor hukm). «Ba'zi yoshlar talaba emas».

Tasdiq hukmda biror belgining narsada mavjudligi ko'rsatiladi. Inkor hukmda biror belgining shu narsada mavjudligi rad etiladi. Hukmlar miqdor jihatdan umumiy, juz'iy va yakka hukmga bo'linadi.

Umumiy hukm – narsalar va ularning xususiyatlarini to'raligicha aks ettiradi. **Hamma S – P dir.**

«Barcha metallar elektr o'tkazuvchanlik xususiyatiga egadir».

Agar hukm narsalarning xususiyatlarini bir qismini aks ettirsa juz'iy hukmlar deyiladi. **Ba'zi S – P dir.** «Ba'zi yoshlar tadbirkordir».

Agar hukm narsa va hodisalarning ayrim, yakka xususiyatlarini aks ettirsa yakka hukmlar deyiladi.

«Islom Karimov – O'zbekiston Respublikasi Prezidentidir».

Hukmlar miqdor va sifat jihatidan birlashtirilsa, quyidagi hukmlar hosil bo'ladi:

a) umumiy tasdiq (miqdor jihatdan umumiy, sifat jihatdan tasdiq)

Hamma S – P dir. «Hamma talabalar falsafa fanini o'rganadi».

b) juz'iy tasdiq (miqdor jihatdan qisman, sifat jihatdan tasdiq)

Ba'zi S – P dir. «Ba'zi hasharotlar ucha oladilar».

v) umumiy inkor (miqdor jihatdan umumiy, sifat jihatdan inkor)

Hech bir S – P emas. «Hech bir saxiy xasis emas».

g) juz'iy inkor (miqdor jihatdan qisman, sifat jihatdan inkor)

Ba'zi S – P emas. «Ba'zi faylasuflar idealist emas».

Hukmlar latin harflarida ifodalanadi.

A – umumiy tasdiq – «affirmo» tasdiqlayman.

I – qisman tasdiq – «(i) affimo» so'zining ikkinchi unli harfi.

E – umumiy inkor – «nego» inkor qilaman.

O – qisman inkor – «(o) nego» so'zining ikkinchi unli harfi.

Ehtimollik hukmi. Fikrlar aniq yoki ehtimol aytilishi mumkin. Ehtimollik hukmda predikat sub'ektining belgisini taxminan tasdiqlaydi yoki inkor qiladi.

Ehtimol S – P dir. «Ehtimol, ertaga havo ochiq bo'lar».

Ehtimol S – P emas. «Ehtimol, falsafadan tayanch yozilmas».

Ehtimollik hukmi fanda, ilmiy-tadqiqot jarayonida, kundalik hayotimizda narsa va hodisalarning to'la sababi aniqlanmagan holatlarda qo'llaniladi. Aniqlik hukmi predikat (P) sub'ektdagi (S) belgining mavjudligini tasdiqlaydi yoki inkor qiladi.

S – P dir. «Jinoyatchi javobgarlikka tortilishi muqarrardir».

S – P emas. «Hamma talabalar a'lochi emas».

Aniqlik hukmi voqelik va zaruriy hukmlarga bo'linadi. Voqelik hukmda predikat sub'ektdagi belgining mavjudligini yo tasdiqlaydi, yo inkor qiladi. Bunday hukmlar fakt, dalillarga asoslansa ham, zaruriy qonuniyatga olib kelmaydi.

«Ibn Sino – tib ilmining bilimdonidir».

«Najmiddin Komilov – O'zbekiston qahramonidir».

Zaruriy hukmda predikat sub'ektdagi belgini albatta tasdiqlaydi yoki inkor qiladi. Zaruriy hukmda narsa-hodisalarning mavjudligi, shuningdek, ular o'rtasidagi qonuniy, zaruriy munosabatlar ham aks ettiriladi. «Dunyo xalqlari terrorni la'natlaydi».

Murakkab hukmlarning tuzilishi. Murakkab hukmda bir necha sodda hukmlar mantiqiy bog'lovchi orqali bog'langan bo'ladi. Murakkab hukmlar «va», «yoki», «agar», «unda» kabi mantiqiy bog'lamlar orqali ifodalaniib, birlashtiruvchi, ayiruvchi, shartli, ekvivalent kabi turlarga bo'linadi. Birlashtiruvchi hukm – ikki yoki undan ortiq oddiy hukmlarning «va», «ham», «hamda» kabi mantiqiy bog'lovchilar vositasida o'zaro birikishidan hosil bo'lgan hukmlardir. **S – P₁ va P₂ dir.**

«Xoja Ahror Valiy o'z davrida naqshbandiya tariqati rivoji va islom dini taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi».

S – ham P₁ ham P₂ dir. «Xoja Ahror Valiy ham diniy, ham dunyoviy ishlarni uyg'unlashtirgan holda umr kechirgan».

Ayiruvchi hukmlar «yo», «yoki», «yoxud» mantiqiy bog'lamlari vositasida oddiy hukmlardan tashkil topgan mulohazalardir. Bu bog'lovchilar ikki oddiy hukmni yoki bir qancha predikatlarini yoki bir qancha subektlarni bir-biridan ayirib turadi.

«Hasan Yaponiya grantini yo yuta oladi, yo yuta olmaydi».

«Bu uchburchak yoki o'tkir, yoki o'tmas, yoki to'g'ri burchakdir».

Shartli hukm ikki oddiy hukmning «agar, ... unda» mantiqiy bog'lamsi orqali birikishidan tashkil topadi.

«Agar talaba imtihonga yaxshi tayyorlansa, unda a'lo baho oladi».

Shartli hukm ikki qismdan iborat bo'lib, biri shart qo'yadi, ikkinchisi natijada hosil bo'ladigan hukmni ifodalaydi, birinchisi asos bo'lsa, ikkinchisi natija bo'ladi.

1. *«Agar elektr toki bo'lmasa, tramvay to'xtaydi» (chin).*

2. *«Agar qor yog'sa, yer quruq bo'ladi» (xato).*

3. *«Agar yomg'ir yog'masa ham, yer xo'l bo'ladi» (suv sepish, qor yog'ishi, suv toshishi mumkin) (chin).*

Ekvivalentlik hukmlari «agar va faqat agar ... unda» mantiqiy bog'lovchi yordamida ikki oddiy hukmning o'zaro bog'lanishidan hosil bo'ladi. Ekvivalent hukmning chin bo'lish shartlari quyidagicha:

«Agar berilgan son juft son bo'lsa, u holda ikkiga qoldiqsiz bo'linadi».

«Agar farzand tarbiyasiga uning yoshligidan jiddiy yondashilsa, u holda etuk inson bo'lib yetishadi».

Hukmlar o'rtasidagi munosabatlar. Hukm ham tushunchalar kabi ob'ektiv borliqning aloqa, munosabatlarini o'zida aks ettiradi. Hukmlar o'rtasidagi munosabatlarda ularning hajmi va mazmunining to'g'ri yoki xato ekanligi muhim ahamiyatga ega. Agar hukmlar sub'ekt yoki predikat jihatdan har xil bo'lsa, taqqoslanmaydigan hukmlar deyiladi. Agar hukmlar har xil miqdorga ega bo'lsa ham bir xil terminga ega bo'lsa, bu hukmlar taqqoslanadigan hukmlar deyiladi.

Savol va javobning muhokamadagi o'rni. Bilimlar narsa-hodisalar haqidagi avvalgi qilingan hukmlardan yangi, ularni to'ldiradigan, kengaytiradigan hukmlarni hosil qilishga qarab taraqqiy etadi. Bu jarayon ma'lum savollarni qo'yish va ularga javob qidirish tarzida sodir bo'ladi. Hukmning vazifasi narsa haqidagi mavjud bilimlarni qayd qilishdan iborat bo'lsa, savol uning yangi xususiyatlari, aloqalarini qidirib topishga va o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Savol so'roq gap yordamida ifoda qilingani uchun hukmni ifoda qila olmaydi.

Savolning mantiqiy xususiyatlari quyidagicha: a) savolda ma'lum boshlang'ich bilim mujassamlashgan bo'ladi; b) savol qo'yish va unga javob qidirish yo'li bilan yangi bilim hosil qilinishi lozim bo'ladi; v) savolda narsa haqida to'laroq bilimga ega bo'lish ehtiyoji o'z ifodasini topadi.

Savol bilimdagi noaniqlik, shubhalarni yo'qotish hamda aniqroq va to'laroq bilimlar hosil qilishga bo'lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan fikrlash vositasidir. Savol o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, uning asosini unda mujassamlashgan bilim tashkil etadi. Savol o'zining asosiga ko'ra, to'g'ri va noto'g'ri qo'yilgan savollarga bo'linadi. Asosi chin va ziddiyatsiz bilimdan iborat bo'lsa, savol to'g'ri qo'yilgan bo'ladi. (*Mantiq nima?*) Xato va ziddiyatli asosga ega savol noto'g'ri qo'yilgan savol

hisoblanadi. Savol bilishdagi vazifasiga ko'ra, aniqlovchi va to'ldiruvchi, tuzilishiga ko'ra, oddiy va murakkab savollarga bo'linadi. Tarkibida bittadan boshqa savol bo'lmasa, oddiy savol, bittadan ko'p bo'lsa, murakkab savol deyiladi. Savolni to'g'ri qo'yish uchun savol til talablariga javob berishi, savol aniq, ravshan, qat'iy holda ifoda qilingan bo'lishi, savolning asosi chin hukmlardan iborat bo'lishi kerak.

Masala – savolning alohida bir turi bo'lib, uni hal qilish savolning asosini mantiqan o'zgartirish, yetishmagan ma'lumot bilan to'ldirish, muhim tomonlarini ajratish, muhim bo'lmaganlarini chiqarishni taqozo etadi.

Javob – narsa haqidagi avvalgi bilimni qo'yilgan savolga muvofiq aniqlashtiradigan va to'ldiradigan yangi hukmdan iborat. Javob savolning asosini tashkil etuvchi bilimga tayanilgan holda yangi bilim olishiga imkon beradi. Javobning mohiyatini savolda mavjud bo'lgan noaniqlikni yo'qotish tashkil etadi. Javobning bevosita va bilvosita, to'liq va to'liqsiz, chin va xato, qisqa va batafsil, aniq va noaniq turlari bor. Bevosita (to'g'ri) javob berilgan savolga taalluqli mulohazalardan iborat. Bilvosita javob javob qidirish asosida qo'shimcha ma'lumotlarga murojaat qilish asosida hosil qilinadigan mulohazalar to'plamidan iborat bo'lib, bevosita (to'g'ri) javob ulardan xulosa chiqarish yo'li bilan hosil qilinadi. To'liq javob o'zida savolning barcha qismlari haqidagi ma'lumotlarni mujassamlashtirgan mulohazalar to'plami bo'lsa, to'liqsiz javob savolni tashkil etuvchi qismlarning bir qismi haqidagi ma'lumotni ifoda etgan mulohazalardan iborat. Javobda ifodalangan fikr-mulohazalar borliqqa muvofiq kelib, uni adekvat (*teng o'xshash*) holda aks ettirsa, chin javob deyiladi. Javobda ifodalangan fikr-mulohazalar borliqqa muvofiq kelmasa, xato javob deyiladi. Grammatik shakliga ko'ra javoblar qisqa va batafsil bo'ladi. Qisqa javob «*ha*» yoki «*yo'q*» tarzida ifodalanadi, batafsil javob savolning har bir qismi takrorlanadigan mulohazadir.

Javobning aniq yoki noaniq bo'lishi savolning sifatiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bahs yuritish jarayonida «*tomdan tarasha tushgan*» savolning «*salomiga yarasha alik*» olinadi, ya'ni «*nima eksa, o'shani o'radi*». Aniq javob – mantiqan to'g'ri qo'yilgan savolga berilgan mazmuni, ma'nosi konkret va ravshan mulohazadan iborat javobdir.

Me'yoriy qoidalar ilmiy bilishda qoida va usullar, huquqiy sohada – huquqiy me'yoriy xujjatlar, qonun, kodeks, buyruq, qarorlar, axloq-odob me'yorlarini o'zida ifoda qiladi. Me'yor talablariga rioya qilish kundalik hayotimiz, bilish jarayonida ko'zlangan maqsadga erishishimizga imkon beradi. Tushunchalarga berilgan ta'rif ham keng yoki tor bo'lmasligi, o'rtacha bo'lishi lozim. Me'yoriy hukmlar boshqa hukmlar singari mantiqiy qiymatga ega, ya'ni unda chin yoki xato fikr ifodalanadi.

9-mavzu. Xulosa chiqarish. Dalillashning mantiqiy asoslari

1. *Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi. Deduktiv xulosa chiqarish va uning turlari*
2. *Induktiv xulosa chiqarish. Ommabop induksiyaning mohiyati.*
3. *Analogiya. Dalillash va ishonch-e'tiqodning shakllanish jarayoni.*
4. *Isbotlash va rad etish tushunchasi. Isbotlash va rad etish qoidalari. Bahs yuritishning mohiyati va shakllari*

Xulosa chiqarish tafakkurning universal shakli bo'lib, unda bir yoki bir nechta chin mulohazalardan yangi bilimlar keltirib chiqariladi. Xulosa chiqarish jarayoni ikkita asoslardan xulosaga o'tishdan tashkil topadi. Xulosa chiqarish orqali yangi bilimlar hosil qilinadi. To'g'ri xulosa chiqarish uchun quyidagilarga asoslaniladi:

1. Asoslar chin mulohazalar bo'lishi kerak
2. Asoslar o'zaro mantiqiy bog'lanishi kerak.

Masalan, «*Abu Nasr Forobiy Sharq faylasufidir.*

«*Abu Nasr Forobiy Sharq Aristotelidir.*»

Ikkita chin mulohazadan bitta xulosa chiqarib bo'lmaydi. Xulosa chiqarish xulosaning chinlik darajasi, xulosa chiqarish qoidasining qat'iyiligi, xulosa asoslarining soni va fikrning harakat yo'nalishiga ko'ra deduktiv, induktiv, analogiya bo'yicha xulosa chiqarish kabi turlarga bo'linadi.

Deduktiv xulosa chiqarish – zaruriy xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish va analogiya – ehtimoliy xulosa chiqarishdir. Deduksiya bevosita va bivosita xulosa chiqarish kabi turlarga bo'linadi. Faqat bitta mulohazaga asoslanib, yangi bilimni hosil qilinishi bevosita xulosa chiqarish deyiladi.

Bevosita xulosa chiqarishning mantiqiy usullari quyidagicha:

I. Aylantirish (*obversio*) – berilgan mulohazaning miqdorini saqlagan holda, sifatini o'zgartirib, yangi mulohaza hosil qilinadi:

$$\frac{S-P}{S-P} \qquad \frac{S-\text{субъект}}{P-\text{предикат}}$$

Bu usulda qo'sh inkor sodir etiladi, ya'ni avval asosning predikati, keyin esa bog'lovchisi inkor etiladi. Inkor qilish jarayonida (-ta, -siz, -mas) kabi inkor Yuklamalaridan va «hech bir, ba'zi, emas» kabi zid tushunchalardan foydalaniladi. Aylantirish usulida oddiy, qat'iy mulohazalarning hammasidan aylantirish orqali xulosa chiqariladi. Aylantirishda oddiy, qat'iy mulohazalarning shakli o'zgaradi.

Hamma S-P «*Hamma faylasuflar donishmanddir.*»

Hech bir S-P emas. «*Hech bir faylasuf nodon emas.*»

Hech bir S-P mas emas. «*Hech bir uy poydevorsiz emas.*»

Hamma S emas Pdir. «*Hamma uy bo'lmagan joy poydevorsiz*».
«*Hech bir qullikda yashayotgan odam erkin emas*».
«*Hamma qullikda yashamayotgan odam erkindir*».
«*Hech bir vatanparvar sotqin emas*».
«*Hamma vatanparvar bo'lmaganlar – sotqindir*».

Ba'zi S-P dir. «*Ba'zi odamlar kasaldir*».

Ba'zi S-P emas. «*Ba'zi odamlar kasal emas*».

«*Ba'zi qonunlar xalq uchun foydalidir*».

«*Ba'zi qonunlar ishchilar uchun foydali emas*».

«*Ba'zi musiqachilar ashula aytadi*».

«*Ba'zi musiqachilar o'qituvchi emas*».

Ba'zi S-P siz emas. «*Ba'zi natural sonlar juft emas*».

Ba'zi S emas-P dir. «*Ba'zi natural sonlar toqdir*».

«*Ba'zi tabiatshunoslar faylasuf emas*».

«*Ba'zi tabiatshunoslar olimdir*».

II. Almashtirish (konversio) usulida xulosa berilgan mulohazadagi sub'ekt va predikatning o'rnini almashtirish orqali keltirib chiqariladi. Almashtirishda terminlar hajmi o'zgarasligi lozim bo'ladi, aks holda berilgan mulohazadan noto'g'ri xulosa chiqishi mumkin.

Sof almashtirish: **Hamma S-P dir.**

«*Hamma tirik mavjudotlar ko'payish xususiyatiga ega*».

«*Hamma ko'payish xususiyatiga ega bo'lganlar – tirik mavjudotdir*».

Toraytirilgan almashtirish:

«*Hamma delfinlar sut emizuvchilardir*».

«*Ba'zi sut emizuvchilar delfinlardir*».

Sof almashtirish.

Ba'zi S-P dir «*Ba'zi qushlar yirtqichdir*».

Ba'zi P-S emas «*Ba'zi yirtqichlar qush emas*».

Kengaytirilgan almashtirish

Ba'zi S-P dir «*Ba'zi musiqachilar skripkachi*».

Hamma P-S dir. «*Hamma skripkachilar musiqachilardir*».

Almashtirish usulida mulohazadagi terminlarning o'rnini almashtirilib xulosa chiqariladi. Mulohazadagi S va P ning hajmi aniqlanadi, agar hajmi mos kelmasa to'g'ri xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Almashtirish usuli tushunchaga berilgan ta'riflarning to'g'riligini aniqlashda yordam beradi.

III. Predikatga qarama-qarshi qo'shish (kontrapositio) bu usulda berilgan mulohaza avval aylantiriladi, so'ng almashtiriladi. Natijada hosil qilingan mulohazaning sub'ekti asos mulohaza predikatiga zid, predikati esa uning sub'ektiga mos bo'ladi:

S-P P-S

1) **Hamma S-P** «*Hamma jirafalar umurtqali hayvonlardir*».

Hech bir P emas-S emas.

«*Hech bir umurtqasiz hayvon jirafa emas*».

«*Hamma tirik mavjudotlar nafas oladi*».

«*Hech bir nafas olmaydigan narsalar – tirik mavjudot emas*».

2) **Hech bir S – P emas.**

«*Hech bir talaba darsga kech qolishni xohlamaydi*».

Ba'zi R emas S dir.

«*Ba'zi darsga kech qolmaydiganlar talabalaridir*».

3) **Ba'zi S – P emas.** «*Ba'zi ishchilar talaba emas*».

Ba'zi P emas – S dir.

«*Ba'zi talaba bo'lmaganlar ishchilardir*».

Sillogizm (qo'shib hisoblash) deduktiv xulosa chiqarishning mantiqiy sistemasi bo'lib, unda o'zaro mantiqiy bog'langan ikki qat'iy mulohazadan uchinchi yangi qat'iy mulohaza keltirib chiqariladi.

«*Har qanday metall – elektr o'tkazuvchidir*».

«*Ba'zi suyuqliklar – metallardir*».

«*Ba'zi suyuqliklar – elektr o'tkazuvchidir*».

Sillogizmning umumiy qoidalari quyidagicha:

1. *Sillogizm*da katta, o'rta, kichik terminlar bo'lishi kerak. Aks holda xulosa yangi bilim bermaydi. Agar terminlar ko'payib ketsa ayniyat qonuni buziladi va to'g'ri xulosa chiqarib bo'lmaydi. Agar bitta termin ikki xil ma'noda kelsa, mulohazalar orasida mantiqiy bog'lanish bo'lmaydi.

2. O'rta termin asoslardan birida to'la hajmda olinishi kerak.

3. Ikkita inkor asosdan xulosa chiqarib bo'lmaydi.

4. Ikkita juz'iy hukmdan xulosa chiqarib bo'lmaydi.

5. Asoslardan biri inkor hukm bo'lsa, xulosa ham inkor bo'ladi.

6. Asoslardan biri juz'iy hukm bo'lsa, xulosa ham juz'iy bo'ladi.

Sillogizmlarning oddiy qat'iy sillogizm, qisqartirilgan qat'iy sillogizm (*entimema – aql*da, *fikr*da), murakkab sillogizm, murakkab qisqartirilgan sillogizm (*epixeyrema – ajratish, farqlash*) kabi turlari mavjud.

Induktiv xulosa chiqarish bir necha ehtimoliy xulosalardan bir umumiy xulosa chiqarish usulidir. Narsa-hodisalarni idrok etish bilan uning mohiyati, xususiyati, xossalari ham ahamiyat beriladi. Bir va bir necha xossaning takrorlanishiga ko'ra, umumiy xulosaga kelish mumkin.

Induksiya (*lotincha – yagona asosga keltirish*) asosida chiqarilgan xulosalar ilmiy bilishda o'rnatilgan turli empirik qonuniyatlar, yaratilgan umumlashmalar tarzida o'z aksini topadi, narsa va hodisalar haqidagi bilimlar kengayishiga olib keladi.

Induktiv xulosa chiqarish bilvosita xulosa chiqarish bo'lib, uning asoslari ikki va undan ortiq mulohazalardan tashkil topgan bo'ladi:
 «Yer o'z o'qi atrofida Quyosh bo'ylab ellips harakat qiladi».
 «Mars o'z o'qi atrofida Quyosh bo'ylab ellips harakat qiladi».
 «Yupiter o'z o'qi atrofida Quyosh bo'ylab ellips harakat qiladi».
 «Saturn o'z o'qi atrofida Quyosh bo'ylab ellips harakat qiladi».
 «Pluton o'z o'qi atrofida Quyosh bo'ylab ellips harakat qiladi».
«Neptun o'z o'qi atrofida Quyosh bo'ylab ellips harakat qiladi»...
 «Demak, barcha planetalar Quyosh bo'ylab ellips harakat qiladi».

Induktiv xulosa chiqarishda yakka, juz'iylik va umumiylikning dialektik aloqasini kuzatish mumkin. Juz'iy bilimlar umumiy bilim hosil qilishda mantiqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Induktiv xulosa chiqarish kuzatish va tajriba natijalarini umumlashtiradi. Kuzatish va tajribalar orqali eng oddiy kundalik ishlardan tortib empirik va nazariy qonun, gipotezalar ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirib, bilimlar hosil qilinadi. Ilmiy kashfiyotlar, qonunlar, aloqadorliklar aynan induktiv yo'l bilan kashf etilgan (*elektr, optika kimyoviy elementlar, fizika qonunlari va hakazo*).

To'liq induksiyada biror narsa va hodisani o'rganilayotganda uning ma'lum bir sinfga mansub xossalari aniqlanadi, o'sha xossa berilgan sinf uchun umumiylikni ko'rsatadi. Masalan, *Quyosh sistemasiga kiruvchi planetalar, BMTga a'zo tashkilotlar, sut emizuvchilar sinfiga kiruvchi umurtqali hayvonlar, biror shahardagi korxonalar va tashkilotlar haqidagi xulosalar to'liq induksiya yo'li bilan olingan. Shu bilan birga Quyosh sistemasiga kiruvchi planetalar harakatining yo'nalishi soat strelkasi harakati yo'nalishiga teskari ekanligini ham to'liq induksiya usuli orqali hosil qilingan. Barcha metallar elektr tokini o'tkazadi, Toshkent shahridagi barcha korxonalar davlat soliq qo'mitasi ro'yxatidan o'tgan kabi umumiy hukm orqali ifodalangan bilimlar ham to'liq induksiyaning qo'llash orqali olingan.*

To'liq induksiyaning ifodasi quyidagicha:

S_1 predmeti P belgiga ega.

S_2 predmeti P belgiga ega.

S_3 predmeti P belgiga ega.

S_N predmeti P belgiga ega.

Demak, S_N predmeti P belgiga ega.

To'liq induksiyada biror xossa butun sinfga ko'chirilib, unga tegishli umumiy xossasida qayd etiladi.

«Zardusht Ozarbayjonda tug'ilgan».

«Budda Hindistonda tug'ilgan».

«Musos Misrda tug'ilgan».

«Iso Quddus yaqinida Vifileem (hozirgi Bayt Lahm)da tug'ilgan».

«Muhammad s.a.v. Makkada tug'ilgan».

«Ular buyuk dinlar asoschilaridir».

«Demak, buYuk dinlarning asoschilari Sharqda tug'ilganlar».

To'liq induksiya xos bo'lgan yana bir xususiyat borki, asoslar va xulosada ko'rsatilgan narsalardan boshqa narsalar haqida bilim bermaydi. To'liq induksiyaning xulosasi aniq va chin bo'ladi. To'liqsiz induksiya ehtimoliy xulosa chiqarish turi bo'lib, biror belgining biror sinfga xos yoki xos emasligini, shu belgining berilgan biror sinfga mansub barcha narsalarga xosligi yoki xos emasligi haqida ma'lumot beradi. To'liqsiz induksiya xulosa kuzatish, tajriba davomida qayd etilmagan, o'rganilmagan narsalarga ham tegishli bo'ladi. To'liqsiz induksiya quyidagicha ifodalanadi:

S_1 narsa P belgiga ega.

S_2 narsa P belgiga ega.

S_3 narsa P belgiga ega.

S_4 narsa P belgiga ega.

S_N narsa P belgiga ega.

S_1, S_2, \dots narsalar S sinfga tegishli.

Ehtimol, S sinfnig har bir narsasi P belgiga egadir.

Masalan, «2 soni 2 ga qoliqsiz bo'linadi».

«4 soni 2 qoldiqsiz bo'lanadi».

« n soni 2 ga qoldiqsiz bo'linadi».

«2, 4, \dots , n sonlari 2 ga qoldiqsiz bo'linadi».

«Ehtimol, juft sonlar barchasi 2 ga qoldiqsiz bo'linishi mumkin».

Ommabop induksiya xalq donoligining oqilona ko'rinishidir. Ommabop induksiya kuzatilayotgan holatlarga zid bo'lgan holat yo'qligiga ishonch hosil qilinadi, tekshirilayotgan buyumning belgisini tadqiq etish bilan birga, zid holati bor-yo'qligi ham aniqlanadi, ya'ni «shoshmay tur-chi», «qani, biroz tekshiraylik-chi», «yetti o'lchab bir kes» kabi fikrlarga tayanib ish ko'riladi. Masalan, dehqonchilik, xalq xunarmandchiligi, kundalik hayot Yumushlari, xo'jalik ishlari ommabop induksiyaning qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Sotsiologik tadqiqotlar ham ommabop induksiya usuli bo'lib, ular orqali xalqning ijtimoiy ahvoli, bilim saviyasi, qiziqishi, yashashi va boshqa jihatlari haqida ma'lumot olinadi. Ommabop induksiyaning kamchiligi shundaki, unda xulosa taxminiy-ehtimoliy bo'lishdan yuqoriga o'ta olmaydi yoki xulosa tasodifiy, ya'ni zaruriyat bilan bog'lanmaydi. So'rovnomalarda aholining yoshi, jinsi, kasbi, nuqtai nazardan noto'g'ri ko'rsatkichlar olinsada, faktlar yashirilgan yoki ataylab orttirib ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Shuningdek, turli g'aroyibotlarga ishonish, «ko'z tegishi», «tushdan

ta'sirlanib noto'g'ri xulosa chiqarish» ham ko'pincha haqiqatga mos kelmasligi mumkin. Hodisalarning sababini aniqlashga, qonunlarni ochishga qaratilgan xulosa ilmiy induksiya bo'lib, narsa-hodisalarning belgilari shunchaki qayd etilmay, ular haqida to'la ma'lumotga ega bo'lish uchun boshqa sababiy bog'lanishlar ham o'rganiladi.

Ilmiy induksiyaning usullari quyidagicha:

a) o'xshashlik. Agar hodisaning kuzatilayotgan hollari uchun faqat bitta holatgina umumiy bo'lsa, mazkur hodisaning sababi hisoblanadi;

b) tafovut. Hodisa vujudga kelayotgan va vujudga kelmayotgan hollar ulardan avval kelayotgan holatlarning bittasidangina farq qilib, qolganlarida o'xshash bo'lsa, ana shu bitta holat kuzatilayotgan hodisaning sababidir (ikkita qorxonaning tafovuti, farqlari o'rganiladi, sabablari ochib beriladi).

Ayrim mutafakkirlar deduksiyaning ahamiyatini yuqori baholab, uni tadqiq etishga e'tibor qaratgan bo'lsalar (*Arastu, Dekart*), boshqalari induksiyaning o'rniga katta baho berganlar (*Demokrit, Suqrot, Bekon, Mill*). Ba'zi faylasuflar har ikki xulosa chiqarish usulini o'zaro bog'liq holda olib tadqiqi etganlar (*Galiley, Gegel*). Demak, bilishning turli bosqichlarida induksiya va deduksiya turli ahamiyatga ega bo'ladi, lekin bilishning barcha bosqichlari soha va yo'nalishlarida induktiv va deduktiv xulosa chiqarish o'zaro aloqadorlikda bo'ladi, ya'ni biri ikkinchisini to'ldirib boradi, biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydi. Deduktiv xulosa chiqarish asoslarini induktiv yo'l bilan hosil qilingan umumiy bilim tashkil etadi. Induktiv xulosaning chinligi deduksiya yordamida tekshiriladi. Deduksiyada fikr umumiydan juz'iylik va yakkalikka, induksiya esa yakkalik va juz'iylikdan umumiylikka qarab boradi. Induksiya va deduksiyaning asosini borliqdagi yakkalik, juz'iylik va umumiylikning o'zaro aloqasi, ularning birini ikkinchisi orqali namoyon bo'lishi tashkil etadi.

Analogiya (*Yunoncha – moslik, o'xshashlik*) bevosita xulosa chiqarishning turi bo'lib, fikr bir xususiy holatdan boshqa bir xususiy holatga qarab harakatlanadi. Analogiya xulosasi doimo ehtimollik xarakteriga ega bo'ladi, ya'ni bir narsada a, b, c, d, f belgilari mavjud, tekshirilayotgan narsada ham a, b, c, d, f belgilari mavjud. Demak, ikkinchi narsada d, f belgilar ham mavjud bo'lishi kerak, degan xulosa chiqarish mumkin. Masalan, ota-onalar bolalarining bir necha o'xshash belgilariga qarab ularning boshqa tomonlari haqida xulosa chiqarishadi. Har qanday o'xshatish ham analogiya bo'lavermaydi. Shoirlar ayollarni gulga, sevgini daryoga o'xshatishadi, bu oddiy o'xshatishdir. Olimlar esa narsa va hodisalarning zaruriy bog'lanishi va ichki mohiyati, sababiyati haqida aniq dalil asosida xulosa chiqaradilar. Inson miyasi xususiyatlari asosida kompyuter yaratilgan, ya'ni analogiya orqali bevosita bir modeldan boshqa

prototipga axborot o'tkazilgan. Qadimgi yunon afsonalariga ko'ra, Dedal qush modeli asosida qanot yasagan va inson ham qanoti bo'lsa, ucha oladi degan xulosaga kelgan: «*qush tirik mavjudot, uning qanoti bor, uchadi. Inson tirik mavjudot, uning qanoti yo'q, uchmaydi. Insonning ham qanoti bo'lsa, ehtimol u ucha olar*».

Analogiya asosida samolyot, vertolyot, poezd, kompyuter, oddiy ombur kabi ko'plab ajoyib kashfiyotlar qilingan. Analogiya murakkab masalalar yechimini oddiy masalalar orqali topishda qo'l keladi. Analogiya xulosasi ehtimoliy bo'lgani uchun uni har doim tekshirish, tajriba o'tkazish va jiddiy o'rganishni taqozo etadi. Analogiya ilmiy nazariyalar vujudga kelishida muhim ahamiyatga kasb etadi.

Dalillash (argumentlash)ning mantiqiy asoslari. *Dalillash* – biror fikr mulohaza yoki mulohazalar tizimini voqelikka bevosita murojaat qilish yo'li bilan (*kuzatish, tajriba-eksperiment*) yoki chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalar yordamida asoslashdir.

Dalillash bevosita va vositali bo'ladi. Bevosita dalillash tajriba-kuzatish orqali amalga oshsa, vositali dalillash chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalarga asoslangan va xulosa chiqarish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Dalillashning birinchi usuli empirik, ikkinchi usuli nazariy bilimlarga asoslanadi. Dalillashning xususiy ko'rinishi mantiqiy isbotlashdir. Isbot insonning o'z atrofidagi narsalarni bilishi jarayonida, o'zaro muloqotda to'g'ri fikrni tasdiqlashdir. Mantiqiy isbotlash esa biror fikr, mulohazaning chinligini, chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohaza orqali asoslashdir. Isbotlash xulosa chiqarish shaklida bo'lsa, dalillash ko'proq dialog ko'rinishida bo'lib, biri ikkinchisining fikrini rad etishga, o'z fikrining chinligini isbotlashga, o'z fikrlari to'g'riligiga ishontirishga harakat qiladi. Dalillash asosida shaxsning barcha sifatleri, so'z san'atini qay darajada egallaganligi, notiqlik mahorati aks etadi. Dalillash orqali kishilarda ma'lum voqea-hodisalarga ishonch-e'tiqod shakllanadi. Faktlarga asoslangan dalillash yuksak ishontirish kuchiga ega bo'ladi. Bilimning maqsadi ham ilmiy asosga ega bo'lgan e'tiqodni shakllantirishdan iborat bo'lib, dalillash va isbotlash orqali amalga oshiriladi. Ishonch-e'tiqod – shaxsning xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir.

Isbotlash, uning tarkibi, turlari, qoidalari. Isbotlash usuli orqali biror fikrning to'g'riligi, haqiqiyliги isbotlangan boshqa bir fikr bilan asoslab beriladi. Masalan, har qanday matematik masalaning to'g'riligi oldindan isbotlangan boshqa qoidalarga asoslanadi. Biror jinoyat ishini isbotlash uchun qonunlar majmuasida ko'rsatilgan moddalarga asoslaniladi.

«*Temir issiqlik o'tkazadi*» degan fikrni isbotlash uchun hamma metallning issiqlik o'tkazishini dalil qilish mumkin. Isbotlash hamma vaqt ham xulosa chiqarishining oddiy shaklidek bo'lavermaydi. Ba'zan biror fikrni isbotlash uchun ko'plab dalil keltiriladi. Masalan, Yerda hayotning paydo bo'lishi, Napoleon urushi, jinoyat sodir etgan shaxsning aynan o'sha jinoyatchi ekanligini isbotlash shular jumlasidandir.

Isbotlash tezis, argument (*asos*) va isbotlash usuli (*demonstratsiya*) dan iboratdir. Isbotlashning tezisi isbotlanishi lozim bo'lgan fikrdir. Argument tezisning isboti uchun keltirilgan fikrlardir. Ta'rif, teorema, aksioma, qonun va boshqa empirik va nazariy umumlashmalar argument bo'lib xizmat qiladi. Isbotlash usulida asoslardan tezis keltirib chikariladi. Bu isbotlash shaklidir. Isbotlashning bevosita va bivosita isbotlash turi bo'lib, bevosita isbotlashda tezisning chinligi to'g'ridan to'g'ri argumentlar bilan asoslanadi. Masalan, «*takrorlash bilimning onasidir*», ya'ni takrorlash natijasida bilimlar mustahkamlanadi, xotiraga joylashib, bilim manbai bo'lib xizmat qiladi. Bivosita isbotlashda tezisning chinligi unga zid bo'lgan hukmning xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Bunda tezisga qarshi antitezisning xatoligini isbotlash kerak bo'ladi. Masalan, jinoyat sodir etganlikda gumon qilingan shaxslar A., B., S., D. degan tezis o'rta tashlanadi. Ulardan S. jinoyat qilgan degan xulosaga kelinadi, qolganlari jinoyat qilmaganligi aniqlanadi. Bivosita isbotda tezisning to'g'riligi unga zid bo'lgan tezisning xatoligini isbotlash yo'li bilan ham aniqlanadi. Bunda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan tezisning biri xato bo'lsa, ikkinchi to'g'ri yoki aksincha bo'ladi. Masalan, «*A'zam hammani o'ziga karata oladigan, o'ziga ishongan, dunyoqarashi keng, bahs-munozarada faol ishtirok etadigan, mulohazali shaxs*». «*Yo'q, A'zam maqtanchoq, takabbur, ishi bitgunga qadar muomala qiladigan, vaqtinchalik do'st, har bir hodisaga, holatga «silliq» moslasha oladigan shaxs*». Bu tezisni isbotlash uchun ulardan biri xato ekanligini isbotlash zarur bo'ladi.

Raddiya, uning turlari, usullari. Ilmiy tanqid. Raddiya u yoki bu fikrning xatoligini isbotlovchi mantiqiy amal bo'lib, tezis, argument va demonstratsiyani rad etishdan iborat. Raddiya bahs-munozaralarda uchraydi. Bahs qatnashchilari biror tezisni himoya qilsa – **proponent** (*himoyachi*), unga qarshi chiqsa – **opponent** (*raddiyachi*) bo'ladi. Hal qilinmagan munozarali bahslar – **polemika** deyiladi. Tezislarni rad etishda faktlar, tezisdan kelib chiqadigan natijalar xatoligi ko'rsatiladi, antitezis isbotlanadi, isbotlash usuli tanqid qilinadi.

Antitezisning chinligidan tezisning xatoligi kelib chiqadi. Argumentlarni rad etishda tezisni isbotlash uchun opponent dalillari tanqid qilinadi, keltirgan dalillari tezisni isbotlash uchun yetarli emasligi

aniqlanadi. Argument xato bo'lsa, tezis ham xato, degan fikr isbotlamaydi. Bunda tezis chin fikr bo'lishi mumkin. Argumentlarni rad etish orqali tezisning isbotlanmaganligi asoslanadi. Isbotlash usulini tanqid qilish orqali rad qilishda isbotlashda yo'l qo'yilgan xatolar aniqlanadi, tezis rad etilmay, uni qayta isbotlash talab etiladi. Rad etish usullari amaliyotda bir-birini to'ldirgan holatda qo'llaniladi.

Isbotlash va rad etish qoidalari, ular buzilganda kelib chiqadigan mantiqiy xatolar. Isbotlash va raddiya to'g'ri yoki xato bo'lishi mumkin. Isbotlash va raddiya to'g'ri bo'lishi uchun xulosa chiqarish qoidalari va tafakkur qonunlariga amal qilingan bo'lishi kerak. Aks holda esa isbotda xatolikka yo'l qo'yilgan bo'ladi. Isbot to'g'ri bo'lishi uchun dastavval tezis haqiqiy bo'lishi kerak. Isbotda tezis natija vazifasini o'ynaydi. Dastlabki olingan natija to'g'ri bo'lsa isbot to'g'ri bo'ladi. Agar natija xato bo'lsa, isbot ham xato bo'ladi. Shunga ko'ra, isbotdagi xatolar tezisga tegishli, argumentlashga doir, isbotlash usuli bilan bog'liq xatolarga bo'linadi.

Mantiqiy xatolar tafakkur qonunlarini buzish, xulosa chiqarish qoidalariga amal qilmaslik natijasida yuzaga keladi. Inson fikrlash jarayonida xatoga yo'l qo'yishi mumkin. Mantiq tarixida ataylab xatoga yo'l qo'ygan sofistlar (yunoncha – ayyorlik, mug'ombirlik) yolg'on va xato fikrlarni turli yo'llar bilan haqiqatga o'xshatib, odamlar ko'ziga rostdek ko'rsatishga urinib, haqiqatni ataylab buzib, bahs-munozarada engib chiqqanlar.

Sofistlar mantiq qonunlarini to'la o'zlashtirgan holda buzib talqin etganlar. Keyinchalik nisbiylikning bilish nazariyasiga tadbiiq etish, haqiqatni sub'ektiv deb qarash, nisbiylikni absolyutlashtirish orqali sofistika so'z o'yini, safsatabozlikka aylangan, ya'ni bir fikr ayni vaqtda to'g'ri ekanligi ham, xato ekanligi ham isbotlanavergan.

«O'g'ri hech qachon yomon narsani olmaydi».

«Yaxshi narsani olish yaxshilikdir».

«Demak, o'g'rilik yaxshilikdir».

Bu yerda bir so'zning bir necha ma'nolarda qo'llanishi orqali natijaning xato bo'lishi kutiladi.

Fikrlash jarayonida bilmasdan yo'l qo'yilgan mantiqiy xato **paralogizm** deyiladi. Chinligini ham, xatoligini ham birday isbotlash mumkin bo'lgan fikrlar **paradoks** deyiladi. Paradoks (*qarshi fikr*) umumiy qabul qilingan va ko'zga tashlanib turgan, hatto sog'lom fikrlarga qarshi turadigan, keskin farq qiladigan odatdan tashqari ajoyib fikrlardir. XIX asrga kelib paradoks ilmiy tekshirish predmetiga aylanib, mantiq va matematikada ajoyib kashfiyotlarning vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Bahs yuritish san'ati (eristika) o'ziga xos qonun-qoidalar (zaruriyatsiz bahslashmaslik, mavzusiz bahs yuritmaslik, bahs davomida mavzudan chetga chiqmaslik, mavzuni o'zgartirmaslik, bahs yuzasidan zid fikrlar bo'lmasa bahsni to'xtatish, mavzuni yaxshi biladiganlar bilan bahslashish, bahs yuritishda mantiq qonun-qoidalariga rioya qilish, bahs davomida fikrlardan xulosa chiqarish, mantiqiy ziddiyatlarni aniqlash va bartaraf etish kabilar)ga amal qilishni talab etadi. Asoslashning mantiqiy asoslarini bilish va bahslashish qoidalariga amal qilish tafakkur madaniyatini yuqori darajaga ko'taradi.

Muammo – javobi bevosita mavjud bo'lmagan va yechish usuli no'malum bo'lgan savoldir. Muammoni qo'yish va hal etish mavjud bilimlar doirasidan chetga chiqishni, yangicha yechish usulini qidirib topishni taqazo etadi. Muammoni muvaffaqiyatli hal etishning zurrur shartlaridan biri uni to'g'ri qo'yish va aniq bayon qilishdan iboratdir. Chunki to'g'ri qo'yilgan savol yarim javobdir. Muammoni hal qilish uchun muammoni qo'yishda kishilarning hayotiy tajribasi, bilimi, talanti muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy muammo ma'lum bir nazariya doirasida vujudga keladi va ma'lum nazariya yordamida hal qilinadi. Muammoni yechish uchun mavjud nazariyalar doirasida tushuntirib bo'lmaydigan fakt va hodisalar aniqlanishi, muammoni hal qilish g'oya va usullari tahlil qilinishi va ularga baho berilishi, muammoni hal qilish maqsadi, olingan natijani tekshirish yo'llari belgilanishi, muammoning asosi bilan uni yechish uchun ilgari surilgan g'oyalar o'rtasidagi izchil munosabat va bog'lanishlar ko'rsatilishi lozim.

Gipoteza (*yunoncha – faraz, asos, taxmin*) orqali bir qancha faktlar asosida narsa-hodisaning aloqasi yoki sababi mavjudligi haqida xulosa chiqariladi, lekin xulosa hali to'la isbotlangan deb bo'lmaydi. Gipoteza noma'lumdan ma'lumga beradigan tadrijiy ilmiy bilish shakli bo'lib, nazariy bilimning ajralmas qismi hisoblanadi. Bilish jarayoni cheksiz bo'lib, bunda bilmaslikdan bilishga, oddiydan murakkabga qarab boriladi. Gipoteza murakkab fikrlash jarayoni bo'lib, uni tuzish va isbotlash vaqtida analogiya, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, bilishning boshqa shakli va usullaridan foydalaniladi. Faraz gipotezaga aylanishi uchun tekshirish o'tkazish kerak. Faraz gipoteza darajasiga ko'tarilishi uchun ilmiy bilim, ilmiy dunyoqarashga qarama-qarshi bo'lmasligi, hal qilishga tashlangan faktlar uchun umumiy bo'lishi va ularning hal qilinishida ishtirok etishi, boshqa har qanday taxminlarga qaraganda to'la va yaxshiroq hal etish imkonini berishi lozim.

Umumiy gipoteza – tabiat, jamiyat, bilish hodisalarining qonuniyatlari haqida bildirilgan asosli taxmindir (Yerda hayotning paydo bo'lishi, ongning kelib chiqishi, Quyosh sistemasining vujudga kelishi, hasharotlarning o'z

manzilini aniq topib olishi kabilar). Ayrim, xususiy gipotezalar alohida narsa-hodisalarning xususiyati hamda sababi to'g'risidagi aniq hodisalar to'g'risidagi taxminlardir. Ishchi gipoteza eng dastlabki faktlar asosida qilingan taxmin bo'lib, farazga yaqin tursa-da, farazdan aniqligi bilan farq qiladi. Ishchi gipotezadan kundalik hayotda, sud-tergov ishlari, qishloq xo'jaligida ko'p foydalaniladi.

Ilmiy gipoteza – tabiat, jamiyat, tafakkur qonunlarini ochishda ishlatiladigan taxminlardir. Har qanday gipoteza tekshirishni talab qiladi. Uni tekshirish natijasida gipotezaning haqiqatlik ehtimolligi yo ortadi, yo kamayadi, gipotezaning haqiqatligi isbotlanadi yoki gipoteza rad etiladi. Gipoteza inson amaliy faoliyati natijasida vujudga keladi, takomillashadi, ayrim hollarda rad etiladi, isbotini topgach, nazariyaga aylanadi.

Nazariya – ma'lum bir bilish sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, gipoteza va g'oyalarni sistemaga solib, ular haqida yaxlit tasavvur hosil qiladigan, yangi fundamental umumlashmalar yaratishga olib keladigan, shu sohadagi hodisalarni tushuntirish, oldindan ko'rish imkonini beradigan ishonchli bilimdan iborat.

Ilmiy nazariya tarkibiga empirik asos (ilmiy fakt to'plash, o'rganish, sistemaga solish, jadval, sxema, grafik tuzish, muayyan umumlashma, empirik tushunchalar, farazlar, empirik qonunlar), boshlang'ich nazariy asos (nazariyaning asosiy tushunchalari, postulatlari, aksiomalari, fundamental qonunlar, prinsiplar), nazariyaning mantiqiy usuli (tushunchalarni hosil qilish va ta'riflash qoidalari, xulosa chiqarish, isbotlash qoidalari), olingan natijalar (xulosalar) kiradi.

Nazariya muammoni qo'yish, gipotezalarni yaratish, qonunlarni shakllantirish, g'oyalarni ilgari surish va asoslashdan iborat bilimning uzoq va mashaqqatli yo'lini bosib o'tishning natijasi bo'lib, bilishga doir qonunlarni aniqlash va ularni o'rganish imkonini yaratadi. Xullas, nazariya tafakkurning shakl va qonunlarini mukammal o'zlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Ali ibn Sino. Falsafiy qissalar. – T.: Fan, 1963.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: 1993.
3. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr / Tuzuvchi N.Rahmonov. So‘zboshi muallifi, izoh va lug‘atlar tuzuvchisi V.Rahmonov. – T.: 1991.
4. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998.
5. Getmanova A. Logika. – M.: Vldos, 1998.
6. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili / Bunyodkorlik yo‘lidan. T. 4. – T.: O‘zbekiston, 1996.
7. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: O‘zbekiston, 1999.
8. Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. – T.: O‘zbekiston, 1999.
9. Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T. 8. – T.: O‘zbekiston, 2000.
10. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
11. Mantiq. Ma’ruzalar matni. – T.: O‘AJBNT, 2001.
12. Mo‘minov I. O‘zbekistonda tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar. – T.: Fan, 1998.
13. Rahimov I. Logika. – T.: O‘qituvchi, 1980.
14. Rahimov I. Logikadan amaliy mashg‘ulotlar va metodik tavsiyalar. – T.: O‘qituvchi, 1988.
15. Falsafa tarixi. – T.: Sharq, 2002.
16. Xayrullaev M., Xaqberdiev M. Mantiq. – T.: O‘qituvchi, 1993.
17. Sharipov M., Fayzixo‘jaeva D. Mantiq. – T.: O‘AJBNT, 2000.
18. Sharipov M., Fayzixo‘jaeva D. Mantiq. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004.
19. O‘rinboev B. Notiqlik mahorati. – M.: O‘qituvchi, 1984.
20. O‘rta Osiyo xalqlari hurfikrliligi tarixidan. – T.: 1990.
21. G‘arb falsafasi. – T.: Sharq, 2004.
22. Abdulla Sher. Tasavvuf, G‘azzoliy va go‘zallik falsafasi // Sog‘lom avlod uchun. – T.: 2002.
23. Abu Homid G‘azzoliy. Mukoshafat ul-qulub. – T.: 2004.
24. Abu Homid G‘azzoliy. Kimyoi saodat. Ruh haqiqati. I-kitob. – T.: Adolat, 2005.
25. Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G‘azzoliy. Muhabbat, shavq, uns va rizo kitobi. – T.: Movarounnahr, 2005.

26. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1989.
27. Avesto. – T.: OʻzME, 2003.
28. Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul-haqoyiq (Haqiqatlar qaymogʻi) / Fors tilidan N.Komilov tarjimasini. – T.: Kamalak, 1995.
29. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. – T.: Fan, 1986.
30. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1991.
31. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. 13-jild. – T.: Fan 2000.
32. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – T.: Fan, 2002.
33. Aristotel. Poetika. Axloqi kabir. – T.: Fan, 1980.
34. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – T.: 1991.
35. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir / Ulugʻbek Hamdam tarjimasini. – T.: Mehnat, 2001.
36. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy-maʼnaviy. 1-6-kitoblar. – T.: Sharq va Al-Xudo nashriyotlari, 2002-2004.
37. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. – T.: 1990.
38. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. – T.: Yozuvchi, 1996.
39. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: 1994.
40. Komil inson haqida toʻrt risola / Fors-tojik tilidan N.Komilov tarjimasini. – T.: Maʼnaviyat, 1997.
41. Sulaymonova F. Sharq va Gʻarb. – T.: 1997.
42. Umar Xayyom. Navroʻznoma. – T.: 1990.
43. Umarov E. Estetika. – T.: 1995.
44. Sharq miniatyura maktablari. – T.: Fan, 1982.
45. Qurʼoni Karim maʼnolarining tarjimasini. – T.: 2001.
46. Haqqulov I. Irfon va idrok. – T.: Maʼnaviyat, 1995.
47. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: 1992.
48. Sher A. Axloqshunoslik. – T.: 2000.
49. Gʻaybulloh as-Salom, Saydi Umar. Tolibnoma. – T.: 1996.
50. Fitrat. Oila. – T.: 1999.
51. Abu Homid Gʻazzoliy. Ey, oʻgʻlon (Ayyuhal, valad). – T.: Movarounnahr, 2004.
52. Saʼdiy Sheroziy. Guliston. – T.: 1968.

Mundarija

Kirish	3
Axloqiy tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari	5
Axloqiy tamoyillar va me'yorlar.	13
Shaxs axloqiy tarbiyasi	24
Estetik tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari	32
Estetikaning asosiy tushunchalari	44
Badiiy asarni estetik idrok etish va estetik tarbiya	53
Mantiq ilmi predmeti va ahamiyati.	61
Tushuncha. Hukm	73
Xulosa chiqarish. Dalillashning mantiqiy asoslari	83
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	94

